

Nima uchun
Muqaddas Kitobga
ishonish kerak?

Greg Gilbert

Nima uchun Muqaddas Kitobga ishonish kerak?

Muallif: Greg Gilbert

“Bugun masihiylar Xudoning Kalomi haqiqat ekanini har qachongidan ham ko’proq bilishi kerak. Masihga ishongan va ishonmagan odamlar uchun mo’ljallangan mazkur kitobda Greg Gilbert Muqaddas Kitobning haqiqiyliги haqidagi ishonchli dalillarni keltirgan holda, imonlilarning shubhalanuvchi odamlar bilan muloqot qilishiga yordam beradi.”

Josh MakDauell,

yozuvchi va voiz

“Bu kitob bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Odamlar Muqaddas Kitobni ochishdan oldin uning haqiqiyliги haqida turli va mantiqiy savollar berishadi. Gilbertning “Nima uchun Muqaddas Kitobga ishonish kerak?” deb nomlangan kitobi bu savollarga javob berib, odamlar bu eng ulug’ bo’lgan kitobga, ya’ni Muqaddas Kitobga e’tibor bermasligining sababi ma’lum darajadagi bir qator qiyinchiliklar borligini ko’rsatgan. Gilbert nima uchun Muqaddas Kitobda yozilgan so’zlarga quloq solish kerakligini oddiy qilib tushuntiradi.”

Darrel L. Bok,

Hovard J. Hendriks markazida

madaniyatlararo hamkorlik bo’yicha ijrochi rahbar,

Dallas ilohiyotshunoslik seminariyasida

Yangi Ahdni o’rganish bo’yicha professor

“Haqiqatdan ham Muqaddas Kitobga ishonish mumkinmi? Shubha qiluvchi zamonaviy odamlar uchun bu muhim savol. Greg Gilbert kitobxonni Muqaddas Kitobni o’qishga undagan holda mazkur savolga aniq va ishonchli javob bergan. Uning kitobi masihiylar Muqaddas Kitobga oid haqiqatlarni himoya qilishiga, shubha qiluvchilarni esa o’z nuqtai nazarini ko’rib chiqishiga yordam beradi. Bu kitobni o’qish menga katta foyda keltirdi.”

Kristian Vegart,

*“Arche” jamoatining katta cho’poni,
Hamburg, Germaniya*

“Mazkur ajoyib kitobda taassurotli omillar va Muqaddas Kitobning tarixiy ekanligi keltirilgan. Kitobda tasdiq, lo’ndalik, batafsillik, o’qishga osonlik va qat’iylik bor. Men nafaqat uni tavsiya qilaman, balki ko’plab do’stlarim – imonlilar va shubha qiluvchi odamlar orasida tarqataman.”

Uilyam Teylor,

*Muqaddas Helena jamoati bosh ruhoniysi,
Bishopsgeyt, London*

“Muqaddas Kitobga ishonish kerakligini biladigan, ammo nima uchun ishonish kerakligini bilmaydigan ko’p talabalarni uchratganman. Shuning uchun ular Muqaddas Kitobga ko’pincha ishonmaydi. Mazkur kitobda shunga o’xshash savollarga javoblar aniq va oddiy tarzda berilgan. Kitob tushunarli tarzda yozilgani sabab, imonli va haqiqatni chin dildan qidirayotganlarga yuborishim uchun sevimli manbalarim ro’yxatini to’ldirishga yordam bermoqda.”

J. D. Grier,

*“Sammit” jamoatining bosh cho’poni,
Darem, Shimoliy Karolina*

“Greg Gilbert mehnati tufayli foydali va ishonchli kitob paydo bo’lib, bu kitob Muqaddas Kitobga nisbatan ishonchni mustahkamlashda yordam beradi. Muallif tarixiy hujjat sifatida Muqaddas Kitobning ishonchli ekanini juda ko’p murakkab dalillar bilan umumiy tarzda birlashtirgan. Muqaddas Kitobni o’rganuvchi va mazkur kitob haqida va’z qilishga intilayotganlar uchun bu kitob katta yordam bo’ladi. U nafaqat Muqaddas Kitobning g’oyasini ochib beradi, balki tirilgan Masih bilan ham tanishtiradi.”

Katlin Nilson,

Ayollar tashabbusidagi Xushxabar Koalitsiyasi rahbari

**Nima uchun
Muqaddas Kitobga
ishonish kerak?**

Nima uchun Muqaddas Kitobga ishonish kerak?

Greg Gilbert

CROSSWAY
Wheaton, Illinois

Nima uchun Muqaddas Kitobga ishonish kerak?

Greg Gilbert tomonidan

Mualliflik huquqi © 2024 yil

Marvarid Xizmatlari

Why Trust the Bible?

Copyright © 2015 by Gregory D. Gilbert

Crossway, 1300 Crescent ko'chasi, Uiton shahri, Illinoys shtati 60187 da chop etilgan.

Barcha huquqlar himoyalangan. Bu nashrning biror qismi qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki boshqa shaklda, boshqa yo'l bilan, elektron, mexanik, fotonusxa, ko'chirib olish yoki boshqa usul bilan nashriyotni oldindan ogohlantirmay yetkazilishi mumkin emas. AQShning mualliflik huquqida ko'zda tutilgan qonunlari bundan mustasnodir. Crossway AQShda ro'yxatdan o'tgan savdo belgisi hisoblanadi.

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and 9Marks

This edition published by arrangement with 9Marks.

All rights reserved.

First printing 2015

AQShda chop etilgan

Muqaddas Bitiklardan parchalar 2023 Muqaddas Yozuvning So'zma-So'z Tarjimasidan [MY] olingan.

Ruxsat bilan ishlatiladi. Barcha huquqlar himoyalangan.

Muqaddas Bitiklardan olingan parchalardagi ta'kidlar muallif tomonidan kiritilgan.

9Marks ISBN: 979-8-89218-126-6

Onam va otamga

*Muqaddas Kitobga
va mazkur kitobda yozilgan
Najotkorga ishonish kerakligini
birinchi bo'lib o'rgatgansizlar.*

MUNDARIJA

1 — Barcha o'qigan narsalarga ham ishonib bo'lmaydi	13
2 — Tarjimadagi qiyinchiliklar haqida.....	29
3 — Nusxadan qayta yozilgan nusxa nusxami?	41
4 — Biz o'sha kitoblarni o'qishyapmizmi?.....	58
5 — Sizga ishonsam bo'ladimi?.....	75
6 — Bu aslida ham bo'lganmi?.....	99
7 — O'liklar ichidan tirilganning so'ziga ishoning.....	119
Xotima: Keyingi savol	135
Ilova: Qo'shimcha izlanishlar uchun manbalar	137
Muqaddas Kitobga iqtiboslar	142

1

BARCHA O'QIGAN NARSALARGA HAM ISHONIB BO'LMAYDI

Barcha o'qigan narsalarga ishonib bo'lmaydi. Buni hamma biladi. Ayniqsa hozir internet davrida faqat adashgan odam o'qigan barcha narsasini haqiqat deb qabul qilishi mumkin. Gap ro'znoma va jurnal haqida, yoki tablo va qiziqarli sarlavha ostidagi “yangiliklar” onlayn xizmati haqida bo'lishiga qaramay, ega bo'lishimiz kerak bo'lgan eng qadrli narsa – bu chin narsani uydirmadan, haqiqatni soxtalikdan farqlashdir. Biz ahmoq bo'lishni xohlamaymiz va *to'g'ri qilamiz*.

Men rafiqam bilan birgalikda bolalarga aynan shuni – diqqat bilan o'qish va eshitish, hamda barchasini to'g'ri deb qabul qilmaslikni o'rgatishga harakat qilamiz. Ularga ma'lumotni tanqidiy ravishda tushunishga va bu ma'lumotni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida o'ylashni uqtiramiz. Hatto besh yoshli qizimizga ham haqiqat va “shunchaki hikoyalar”ning farqiga borishni o'rgatamiz. Qizig'i, qizimiz buni uddasidan chiqayapti:

- Jorj Vashington AQSh ning birinchi prezidenti bo'lgan. – “Bu haqiqat, dada.”
- Mett amaki yangi ish topib, boshqa shaharga ko'chib ketdi. – “Bu ham haqiqat.”
- Betmen Jokerning ortidan quvib, uni qamoqqa qamab qo'ydi. – “Yo'q, bu shunchaki hikoya.”

- Elza o'zining muzlatish qobiliyati orqali muzli qasr qurdi. – “Shunchaki hikoya.”
- Supermen uchishni biladi. – “Hikoya.”
- “Bir necha yil oldin, uzoq-uzoq galaktikada . . .” – “Hikoya!”

Keyin qizimga keyingi vazifani aytaman. Ikki ming yil oldin bokira qiz Maryam Iso ismli chaqaloqni dunyoga keltirdi. Iso ulg'aygach O'zini Xudo deb atadi. U ko'p mo''jizalar qilgan: suv ustida yurgan, o'liklarni tiriltirgan. Uni xochga mixlashdi, lekin U tirildi va osmonga ko'tarildi, endi U dunyoni Shoh sifatida boshqaryapti.

Bunga qizim qanday javob beradi? “Bu haqiqat . . .”

Agar siz ham masihiy bo'lsangiz, unda “bu haqiqat” – deb javob berishingizga umuman shubha yo'q. Lekin o'zimiz diyonatli bo'lishimiz kerak. Ko'rinishidan muvaffaqiyatli odamlarning bu voqeaga jiddiy munosabatda bo'lishi boshqalarga g'alati tuyuladi. Imkon bo'lganda, ko'plar jilmayib quyidagi so'zlarni aytgan bo'lar edi: “Quloq soling, Iso haqidagi xayoliy hikoyani barcha faqat hikoya deb hisoblasa oqilona bo'lmas edimi? Ularni jiddiy qabul qilib, *haqiqat* deb hisoblash nodonlik, shunday emasmi?”

Mening masihiylik va cho'ponlik tajribam meni ruhlantiradi, chunki men masihiylar Muqaddas Kitobga tebranmay ishonayotganlarini ko'ryapman. Ular unga ishonishadi, hayotini unga ishonib topshirishgan va uning amrlariga rioya qilishga harakat qilishadi. Muqaddas Kitobda ularning e'tiqodiga yoki hayot tarziga mos kelmagan narsa aytilganda ular o'zgarishga harakat qilishadi. Bitta so'z bilan, bu odamlarning to'liq roziligi bilan Muqaddas Kitob ularning hayotining va imonining asosiga aylanadi. Biroq mening tajribam boshqa narsaga ham ishora qilmoqda: ko'plab masihiylar *nima sababdan* Muqaddas Kitobga to'liq ishonishlarini tushuntirib bera olmaydilar.

Albatta, ularda buning sababi bor. Ular Muqaddas Kitobning ishonchliligiga ularni Muqaddas Ruh ishontirdi deb aytishadi. Boshqalar esa Muqaddas Kitobning haqiqiylikining shahodati – uning ularning hayotiga o'tkazgan ta'siri deb aytishadi. Kimdir esa hattoki Muqaddas Kitob shunchaki haqiqatga o'xshab eshitiladi deydi. Ba'zilar Muqaddas Kitobning bayonotlarini tasdiqlaydigan arxeologik ma'lumotlarini keltiradilar. Yana shundaylar borki, agar ulardan qat'iyat bilan bu savolga javob berishini so'rasangiz, ular qo'llarini ikki yonga cho'zib: “Hamma narsani shunchaki imon bilan qabul qilish kerak” deydi.

Ma'lum bir me'yorda bu barcha nuqtai nazarlarni masihiylar uchun o'rinli desa bo'ladi. Lekin bir narsa aniq: bularning bittasi ham Muqaddas Kitobga *ishonmagan* odamni *unga ishonishga* ko'ndirmaydi. Hoynahoy aksi bo'ladi: Muqaddas Kitob borasida o'z shubhasini bildirgan odamga masihiy “uni imon bilan qabul qilish kerak” deb javob bersa u o'z shubhalarining tasdig'iga erishishi turgan gap. “*Ha ana, men ana shu narsa haqida aytayapmanda. Muqaddas Kitobga ishonish uchun hech qanday sabab yo'q. Faqat bitta sabab bor – imon*” deydi u.

Agar masihiy bo'lsangiz, sizga savolim bor: nima uchun Muqaddas Kitobga ishonasiz? Muqaddas Kitobga ishonmaydiganlarga buni qanday tushuntirasiz? Kitobni oxirigacha o'qigandan keyin bu savolga javob bera olasiz deb umid qilaman. Bu javob nafaqat sizni qoniqtirishi, balki sizning suhbatdoshingizning fikriga ham ta'sir qilib uni o'ylantirishi kerak.

Havoriy Petrus 1-Petrus 3:15da biz masihiylar nimaga ishonishimiz haqida “javob berishga doimo tayyor bo'lish”imiz haqida yozadi. Bizning zamonimizda bu boshqa qolgan savollarning negizi bo'lgan savolga to'liq javob berishni anglatadi. Axir *Isoning kimligi?*

va *Xushxabar nima?* ekani haqidagi mulohaza yurishingizdan avval, ko'plarni boshqa savol qiziqtiradi: biz nima uchun Muqaddas Kitobda yozilgan so'zlarga ishonamiz?

YANGI YANA YANGI TOSHBAQALAR

Davom ettirishdan oldin bir narsani aytib o'tishim kerak, garchi bu sizni umuman hayratlantirmaydi deb o'ylayman. Men – suyak-suyagigacha singib ketgan masihiyman. Masihilar kimligi va ularni qanday aniqlash mumkinligini ehtimol onangiz sizga tushuntirgandir? Mana, men xuddi shunday odamlardan biriman. Muqaddas Kitobda yozilgan so'zlar haqiqat ekaniga, Qizil dengizdagi suv bo'linganiga, Yerixo devorlari qulaganiga, Isoning suv ustida yurib, kasallarga shifo berganiga va odamlardan yovuz ruhlarni quvib chiqarganiga ishonaman. Xudo yer yuziga to'fon yuborib, Nuhni qutqarganiga ishonaman. Yonahni ulkan baliq yutib yuborganiga, Isoni bo'lsa bokira qiz dunyoga keltirganiga ham ishonaman. Eng asosiysi, Isoning jismonan o'lganiga, so'ng o'liklar ichidan tirilganiga ishonaman. Bu tarixiy dalil bo'lib, *aslida ham* shunday bo'lgan. Men bunga ishonaman.

Umuman olganda, yashiradigan narsa yo'q: Muqaddas Kitobni haqiqiy ekaniga ishonishimning asosiy sababi, Isoning o'liklar ichidan tirilganiga bo'lgan ishonchimdir. Tirilish masalasida men bilan rozi bo'lasizmi yoki yo'qmi bilmadim, ammo nima uchun yaqin orada Muqaddas Kitobga qat'iy ravishda ishonganimni tushuntirib berish mushkul emas. Agar Iso o'liklar ichidan tirilgan bo'lsa, demak bunga yagona mantiqiy xulosa U haqiqatdan ham xuddi o'shaning O'zidir. Agar Iso Muqaddas Kitobda yozilganidek tirilgan bo'lsa, unda U O'zi aytganidek haqiqatdan ham Xudoning O'g'li,

Shohlarning Shohi, Hukmdorlar Hukmdori, U Yo'l, Haqiqat, Hayot va Xudoning Donoligi. Buning barchasi haqiqat bo'lsa (shunday emasmi?), unda U nima haqida gapirishni biladi. Demak, biz Isoga quloq solishimiz kerak.

Shunday qilib, Isoning Muqaddas Kitobga ishonganiga menda hech qanday shubha yo'q. Eski Ahdda ham buni aniq ko'rish mumkin. Iso gapirgan va'zlarida Muqaddas Kitobni Xudoning So'zi ekanini bir necha bor takrorlab, uning haqiqiyligini tasdiqlagan. Yangi Ahdga kelsak, u Isoning yerdagi hayotidan bir necha yillar keyin yozilganiga qaramay, u butunlay Isoning hokimiyatiga tayangan va birinchi masihiylar buni tushungan. Bundan tashqari, Muqaddas Kitobning hokimiyatini tan olish uchun ikki asosiy mezonga amal qilishgan: 1) yozilgan kitobni Isoning havoriylaridan biri tasdiqlagan; 2) yozilgan kitob Isoning ta'limotiga to'liq mos kelishi kerak bo'lgan. Biz bu haqda hali yana gaplashamiz lekin mohiyatini tushundingiz deb o'ylayman. Isoning haqiqatdan ham tirilganini tan olsangiz, har qanday ikkilanishsiz Muqaddas Kitobning haqiqiy va ishonchli ekaniga amin bo'lasiz.

Ehtimol, men juda shoshilib, xulosa qilishingiz uchun turtki bo'layotgandirman, lekin shunga qaramay so'ramoqchiman: buning barchasi nimadan boshlangan? Iso o'liklar ichidan tirilganiga bo'lgan ishonchga qanday kelgansiz? Isoning tirilgani haqida Muqaddas Kitobda yozilgani uchun ishonaman, Muqaddas Kitobga bo'lsa, Iso o'liklar ichidan tirilgani uchun ishonaman, Isoning tirilgani haqida Muqaddas Kitobda yozilgani uchun ishonaman, Muqaddas Kitobga . . . deb shunchaki ayta olmaysiz. Bu yopiq tarzda umidsiz va tuturiqsiz fikrlash doirasidir. Bu menga bir bola haqidagi hikoyani eslatadi, o'qituvchi boladan nimaga yer qulamaydi, – deb so'rabdi.

— Chunki yerni toshbaqa ushlab turadi, – deb javob beribdi bola.
— Nimaga toshbaqa qulamaydi? – deb soʻrabdi oʻqituvchi.
— Chunki uni boshqa toshbaqa ushlab turadi, – deb bola fikrini davom ettirdi.

— Bu toshbaqa nimaga qulamaydi? – deya oʻqituvchi savolni davom ettirdi.

— Bola fikrlab, savol berishni davom ettiradigan boʻlsangiz, yangi va yana yangi toshbaqalar paydo boʻlishi tushunarli-ku, deb javob beribdi!

Barchamiz oʻzimiz uchun xuddi shunday toshbaqalarni oʻylab topib, buni eng nufuzli bilim manbai deb hisoblashimizni tan olishimiz kerak. Bu faqat masihiylarga emas balki barchaga taalluqli. Hayotga aql koʻzi bilan qarovchi odamdan, nimaga aqliga suyanishini soʻrasangiz, u “chunki bu oqilona”, – deb javob beradi. Mantiqiy odamdan, nimaga mantiqqa suyanishini soʻrasangiz, u “chunki bu mantiqiy”, – deb javob beradi. Anʼanaviylikka rioya qiladigan odamdan, nimaga anʼanaga suyanishini soʻrasangiz, u “barcha odamlar har doim anʼanaga suyanan”, – deb aytadi. Asosiy savol javobsiz qolyapti: nimaga odamlar aql, mantiq yoki anʼanaga suyanadi? Toʻgʻri, aqlni ruhiy tushunchadan ishonchli deb hisoblash mumkin, sababi u koʻrish va teginish mumkin boʻlgan dalillarga tayanadi. Biroq, mazkur dalillar ham taxminlarga asoslanib, ayrimlarini maʼqullab, boshqalarini esa maʼqullay olmaymiz. Qanday boʻlishidan qatʼiy nazar, barchada hamma narsa yangi va yana yangi toshbaqalar bilan boshlanayotganini koʻrish mumkin. Oʻylaymanki, Xudo bu bilan bizning cheklanganligimizni koʻrsatyapti: insoniy borligʻimiz barcha narsalarni tushuna olmasligimizni eslatib turadi.

Biroq mazkur narsani bilish uchun har qanday umidni chetga surib qoʻyish kerak degani emas. Hatto falsafiy, epistemologik (bilim

haqidagi fan) ma'noda fikrlash to'g'ri bo'lsa ham, bu mavjud narsalar haqida ishonchli xulosa qila olmaymiz degani emas. Albatta, ba'zi juda tirishqoq faylasuflar qo'llarini tushirib quyidagi so'zlarni aytadi: "Bo'ldi, yetar! Hech narsani bilolmaymiz!" Ammo bunday fikrlash usuli biron narsani bilish jarayoniga tahdid soladi (biz hech kimni va hech narsani bilolmaymiz) va bu jarayonni juda kam odam jozibador va muqarrar deb hisoblaydi. Shuning uchun ko'pchilik haqiqat deb hisoblagan bir nechta dastlabki shartlardan harakatini boshlaydi. Misol uchun, aql aqlga, mantiq mantiqqa, tuyg'ularimiz ishonchga, dunyo va o'zimiz chindan ham bor ekaniga ishonamiz. Bundan keyin, dastlabki shartlarga amal qilgan holda, ishonch bilan o'zimiz bilan bo'lib o'tgan voqea, bizni o'rab turgan dunyo va boshqa narsalar haqida xulosa chiqarishga harakat qilamiz.

Ammo xulosa qilishga shoshilmang. Dastlabki shartlarni bajarish, barcha narsani taxmin qilish degani emas. Misol uchun, siz biron-bir davlatning prezidenti ekanligingizni taxmin qilib, shu ishonch bilan yashay olmaysiz. Xuddi shunday siz ishongan narsalar ma'lum sabab bilan haqiqat bo'lsa, o'zingizni xudoman deb taxmin qilolmaysiz. Bu taxminlar asossiz bo'lgani uchun kimdir ustingizdan kulishi va hatto sizni bir xonaga qulflab qo'yishi ham mumkin! Gap shundaki: ko'p odamlar Muqaddas Kitob haqida gapirganda, masihiylar o'zini aynan shunday tutadi deb o'ylaydi. Xuddiki biz Muqaddas Kitob – Xudoning Kalomi, undagi barcha yozilgan so'zlar haqiqat va Isoning o'liklar ichidan tirilgani rost deb biron-bir asossiz aytayogandekmiz.

Agar biz masihiylarni ayblashayotgan narsalar ular aytgandek darajada vahimali bo'lmasachi? *Muqaddas Kitob - bu Xudoning So'zi deb shunchaki taxmin qilish emas*, balki Iso chindan ham o'liklardan tirildi degan to'g'ri va ishonchli xulosaga kelishning uslubi bo'lsachi? Iloji bo'lganda doira ichidagi sababsiz yurishdan ozod bo'lgan bo'lar edik.

Muqaddas Kitob – Xudoning So’zi degan xulosaga kelishdan oldin, Iso haqiqatdan ham o’liklar ichidan tirilgan degan fikrga keldik. Keyin shunga asoslangan holda biz ham Isoning ortidan ergashib, Muqaddas Kitobni Xudoning So’zi sifatida qabul qilgan bo’lardik. Shunda Muqaddas Kitobning haqiqiyligiga bo’lgan ishonchimiz faqat ko’r imonga tayanmagan bo’lar edi. Bunday ishonchni shubhalanuvchi odamlarning hujumidan himoya qilish mumkin; uning yordami bilan shubhalanuvchi odamlarning ishonchsizligini silkitib yuborsa bo’ladi. Havoriy Petrus shunday so’zlarni yozgan: “Yuraklaringizda Rabbii Xudoyingizni muqaddas tutinglar. Sizlarning umidingiz haqida sizlardan hisobot talab qiladigan har bir kishiga muloyimlik va ehtirom bilan javob berishga doimo tayyor bo’linglar” (1-Petrus 3:15). Savoli bor barcha odamlarga bizda ajoyib javob bor.

MASIHILIK XUDDI TARIXIY VOQEAGA O’XSHAYDI

Gap shundaki, bu xulosaga kelishning iloji bormi? O’ylaymanki, iloji bor: bu uchun *tarixga nazar* solish kerak. Keling, Yangi Ahd tarkib topgan hujjatlarga, Xudoning Kalomi sifatida emas, balki tarixiy hujjat sifatida qarab ko’ramiz. So’ng bunga asoslangan holda, Iso haqiqatdan ham o’liklar ichidan tirilganiga ishonishni xulosa qilishimiz mumkin. Bunga hatto o’zini masihiy deb hisoblamagan odam ham e’tiroz bildirmasligi kerak. Yangi Ahdga tarixiy hujjatlar to’plami sifatida murojaat qilishdan oldin, maxsus arizalarni topshirish, maxsus darajaga ega bo’lish yoki haqiqatga qandaydir da’vo qilish shart emas. Mazkur hujjatlar “tarixiy fikr hukmi” oldida o’zi uchun o’zi gapirishi kerak.

Shu bilan birga, Yangi Ahdga tarixiy hujjatlar to’plami sifatida qarash, masihiylar orasida ham e’tirozga sabab bo’lmasligi kerak.

Axir bunday qilish u bilan *boshqacha* munosabatda bo'lish degani emas. Yangi Ahddagi hujjatlar o'z-o'zidan tarixiylikni talab qilib, uning mualliflari ham tarixiy jarayonga rioya etishga harakat qilgan. Misol tariqasida xushxabarchi Luqoni olaylik. U kitobxon uchun o'z Xushxabarini Isoning hayoti va ta'limoti bilan bog'liq bo'lgan barcha narsani "tartib bilan" boshlaganini ko'ramiz (Luqo 1:3). Luqo yozgan narsalar haqida nima o'ylashingizdan qat'iy nazar, u yerda tarixiy voqealar bayon etilgani shubhasiz. Albatta, hozirgi davrdagi tarixiy voqealarni yozish usuli qadimgi davrdagidan farq qiladi. Lekin maqsad bir bo'lgan: mualliflar o'zining fikri bilan chindan ham bo'lgan hodisani tasvirlagan. Shunday qilib, Luqo va boshqa mualliflar aynan shu ish bilan shug'ullangani uchun, Yangi Ahddagi hodisalarni o'qish juda o'rinli bo'lib, aslida bu hodisalar aynan shu uchun yozilgan.

Masihiylik boshqa dinlarga nisbatan ko'proq *tarixiy voqealarni* o'z ichiga oladi. Bu shunchaki ahloqiy nasihat, falsafiy fikrlar to'plami yoki sirli haqiqat va hatto afsona ham emas. Masihiylik – avvalo mohiyatiga ko'ra mislsiz va aniq, qachonlardir haqiqatdan bo'lgan *tarixiy voqeani* o'z ichiga oladi.

ISHONCHLILIK ZANJIRI

Hatto shunday bo'lgan taqdirda ham, yana bir savol tug'iladi: Yangi Ahdga oid hujjatlarni va biz tadqiqot qilmoqchi bo'lgan to'rt Xushxabarni haqiqatdan ham *tarixiy dalil* deb hisoblash mumkinmi? Kitobning katta qismini mana shu savolga qaratamiz. Yangi Ahdda Isoning hayoti va Uning tirilgani haqidagi ma'lumotlar ishonchli ekaniga amin bo'lishimiz mumkinmi? "Ha, bu haqiqatdan sodir bo'lganiga ishonchimiz komil", – deb ayta olamizmi? Men, Yangi Ahdga oid hujjatlarga *ishonishimiz mumkin* deb hisoblayman. Ammo bunday

xulosaga kelish uchun ma'lum ish talab qilinadi, chunki har qanday tarixiy hujjatning ishonchli ekanini bilish uchun ko'plab savollar bilan murojaat qilishimiz kerak.

Nima haqida gapirayotganimni tushunmoqchi bo'lsangiz, fikrlarimni diqqat bilan kuzating. Misol uchun, Isoning hayotidagi ma'lum bir voqeani Matto Xushxabarida o'qiganingizda, buni yozish uchun kamida uch kishi qatnashganini ko'rishingiz mumkin. Albatta, bu bizga qanday ko'rinishda yetib kelganiga ta'sir qilgan. Birinchidan, mazkur hikoya muallif nomidan amalga oshirilgan. Ikkinchidan, bu qo'lyozmani eng kamida bitta odam nusxa qilib ko'chirib yozgan, hoynahoy bir necha marta ko'chirib yozilgan ham bo'lishi mumkin va asrlar o'tib bu bizgacha yetib keldi. Uchinchidan, kimdir (ehtimol, butun jamoa) qo'lyozma nusxasini asl tildan sizning ona tilingizga tarjima qilgani uchun, uni o'qish imkoniga egasiz. Mazkur jarayonning har bir bosqichida savollar tug'ilib, yozilgan so'zlarga chindan ham ishonsa bo'ladimi va o'sha paytda aslida sodir bo'lgan voqealarning aniq va to'g'ri suratini olish mumkinmi degan shubhalar uyg'otadi. Ortga, hozirgi davrdan voqea tasvirlangan, o'tgan davrga nazar solinsa, muhim ahamiyatga ega beshta savoldan iborat bo'lgan zanjir hosil bo'ladi:

1. Muqaddas Kitob asl nusxadan bizning ona tilimizga mos tarzda *tarjima qilingan* deb ishonsak bo'ladimi? Yoki tarjimada asl nusxada bo'lmagan narsalar bormi?
2. Nusxa ko'chiruvchilar qo'lyozmani asl nusxasini aniq tarzda *yetkazib* berganiga ishonsak bo'ladimi? Yoki ular matnni ko'chirayotganda, (atayin) nimanidir qo'shgani, olib tashlagani yoki almashtirgani uchun endi biz o'qiyotgan narsalar butunlay asl nusxadan farq qiladimi?

3. Biz o'qiyotgan kitoblar aynan shu ekaniga ishonchimiz komilmi? Ehtimol, Isoga bo'lgan boshqa, lekin ishonchli nigohni qo'ldan boy berayotgandirmiz? Boshqacha qilib aytganda, boshqa kitoblar emas, balki *aynan shu kitoblar to'g'ri* ekaniga amin bo'lishimiz mumkinmi?
4. Qo'lda yozilgan asl nusxalarning mualliflari *ishonchli* ekanini bilamizmi? Ular bizga bo'lib o'tgan voqeani aniq tarzda bayon qilishni istaganmi? Ularda boshqa maqsad, masalan, san'at asarini yozish yoki kitobxonni chalg'itish maqsadi bo'lmaganmi?
5. Mualliflar bo'lib o'tgan voqealarni aniq tarzda ifoda etayotganiga ishonadigan bo'lsak, unda ular tomonidan yozilgan so'zlar haqiqatdan ham bo'lganiga ishonsa bo'ladimi? Ular tomonidan yozilgan so'zlarning barchasini *to'g'ri* deb ayta olamizmi? Yoki ular xato qilmaganini tasdiqlaydigan boshqa jiddiy asoslar bormi?

Agar tarjima, nusxa ko'chirish, kitoblarni to'g'ri tanlash, ishonchli va haqiqiy ekanligi bilan bog'liq savollarga ishonch bilan "Ha!", – deb javob bersak, unda muhokama qilingan voqeadan bugungi kunga qadar ishonchlilik zanjiriga ega bo'lib, ishonch bilan quyidagi so'zlarni aytamiz:

1. Bizda Muqaddas Kitob qo'lyozmalarining yaxshi tarjimalari mavjud.
2. Mazkur qo'lyozmalar – dastlabki asl qo'lyozmaning aniq nusxalaridir.
3. Muqaddas Kitobga kiritilgan kitoblar, o'rganish uchun haqiqiy va eng a'lo kitoblar hisoblanadi.

4. Mazkur kitobning mualliflari chindan ham sodir bo'lgan voqealarni aytishga harakat qilgan.
5. Ular ko'rgan va yozgan narsalarini *noto'g'ri deb hisoblashga hech qanday sabab yo'q.*¹

Siz bunga qanday munosabatda bo'lishingizdan qat'iy nazar, mazkur tasdiq Muqaddas Kitobni tarixiy va ishonchli deb hisoblashimiz uchun yetarlicha asos bo'la oladi. Agar shunday hisoblasak, unda Isoning tirilishi haqidagi Muqaddas Kitobda yozilgan hikoyani o'qib, quyidagi so'zlarni aytishimiz mumkin: “Ha, bu voqea chindan ham bo'lganiga ishonaman. Boshqa bo'lib o'tgan tarixiy voqea singari, Isoning o'liklar ichidan tirilganiga ishonaman.”

BIR NECHTA MUHIM IZOHLAR

Mazkur turdagi tarixiy asosni qabul qilishdan oldin, uchta izoh haqida fikrlash juda muhim. Birinchidan, *matematika darajasidagi* aniqlikka intilmasligimizni yodda tuting. Bunday mantiqiy yaxlit aniqlik faqat matematika va tabiiy fanlarga xos bo'lib, tarixiy masalalarda umuman yordam bera olmaydi. Kimdir tarixiy voqealarga o'xshash voqealarni o'ylab topishi va bu ozgina bo'lsa ham haqiqatga yaqin bo'lishi mumkin. Masalan, Qaysar hech qachon Rubikondan o'tmagan, – deb aytishadi. “Ehtimol, harbiy rahbarlardan biri Qaysarning *kiyimini kiyib*, barchani ahmoq qilgandir. Bunday taxmin qilishga asos bo'lmasa-da, voqea aynan shunday bo'lgani *ehtimoldan holi emas*. Demak, Qaysar Rubikondan o'tganini ishonch bilan ayta olmaymiz.”

1. Ushbu fikrlash zanjiri haqida birinchi marta Vashingtondagi Kapitoliy Tepaligidagi Baptist jamoatining cho'poni Mark Deverdan eshitganman. Boshqa yozuvchilar ham taxminan shunday usuldan foydalanadi.

Nahotki! Bunday e'tirozlar tarixiy xulosalarga to'sqinlik qilganida, o'tmishda bo'lgan voqealarning *hech biriga* ishonmagan bo'lar edik.

Yaxshiyam, matematik darajadagi aniqlikka muhtoj emasmiz. Bizga *tarixiy to'g'ri ma'lumot* kerak. "Qaysar Rubikondan o'tganini matematikadagi aniqlik va mantiqiy ishonch bilan tasdiqlaymiz!", – deb e'lon qilmaymiz. Buning o'rniga: "Ba'zilar Qaysar Rubikondan o'tgan, – deb hisoblaydi deyish mumkin. Ular yolg'on ishlatmay, afsona to'qimaslikni va aslida nima bo'lgani haqida xabar bermoqchi bo'lgan deb o'ylaymiz. Ulardagi ma'lumotlar noto'g'ri deb o'ylashimiz uchun bizda hech qanday asos yo'q. Shuning uchun tarixiy nuqtai nazardan Qaysar rostdan ham Rubikondan o'tganiga amin bo'lishimiz mumkin." Tarixdan biz aynan shunday "aniqlikni" kutamiz. Ko'proq narsani bilish tarixdan u bera olmaydigan narsani talab qilishni bildiradi.

Ikkinchidan, *tarixiy tasdiq harakat* uchun yetarli asos bo'lishini yodda tuting. Odamlar boshidan o'tkazmagan kechinma bilan harakat qila olmasligini eshitganman. Odamlar ko'rmagani yoki boshidan o'tkazmagani uchun harakat qilishga shubha qilishadi. Bir qarashda, bunday holatda sog'lom fikrni ko'rish mumkin; u vijdonli va teran fikrli bo'lib tuyuladi. Ammo yaxshilab o'ylaydigan bo'lsak, hech kim unday yashamaydi. Aslida to'g'ridan-to'g'ri duch kelmagan, hamda shaxsan boshdan kechirmagan narsalarga ishonamiz va *harakat qilamiz*.

Tasavvur qiling. Men yashayotgan mamlakatning konstitutsiyasi qabul qilinganda, hali bu yorug' dunyoga kelmagan bo'lishimga qaramay, konstitutsiya qabul qilinganiga ishonib, shu ishonch bilan harakat qilayapman. Qabul qilingan konstitutsiyaga muvofiq tarzda yashayotganimizni, *matematikadagi aniqlik* bilan tasdiqlay olmaganim uchun, ovoz berishdan bosh tortmayman. Yoki boshqa bir

misol: o'ylab ko'rsam, ota-onam haqiqatdan ham mening ota-onam ekanini aniq bilmayman. Qanday tug'ilganim esimda yo'q. Biz hech qachon DNK testini o'tkazmaganmiz. *Ehtimol*, kimdir xato qilgan yoki tug'ilganlik haqidagi guvoynomani qalbakilashtirgan bo'lishi mumkin! Boshqa tomondan barcha narsa ota-onam, mening ota-onam ekanini tasdiqlaydi. Yashashni davom ettirgan holda, doim bu ishonch asosida *harakat qilyapman*.

Tarix aynan mana shunday ishonchni bera oladi. Agar fikrlaringga qo'shilsangiz, siz ham shu ishonchga ega bo'lasiz degan umiddaman. Tarixga oid bo'lgan ishonch ma'lum narsalarni tushunishimizga yordam berib, "Ha, Iso haqiqatdan ham o'liklar ichidan tirilgan. Bo'lib o'tgan voqeani boshqacha qilib tushuntira olmayman. Endi mazkur ishonch bilan harakat qilaman", – deb aytishdan boshqa hech qanday tanlov qoldirmaydi.

Uchinchidan, siz ilmiy-tadqiqot ishlari haqidagi kitoblarni o'qimayotganingizni yodda tuting. Men mavzuni to'liq tahlil qilishni maqsad qilmagan edim. Bu yerda har bir dalilning o'zgarishi uchun imkon yo'q, barcha namuna tariqasida keltirilgan misollar va qarshi misollar ham yo'q. Shuning uchun ko'p yillar davomida masihiylar tomonidan yozilgan mazkur kitobni, mehnat asarlariga tenglashtirmaysiz deb umid qilaman. Agar kitobimni boshqa shunga o'xshash kitoblar bilan solishtirsangiz, uni unchalik keng qamrovli va qalin emasligini ko'rishingiz mumkin. Ko'p yillar davomida Muqaddas Kitob haqiqiy ekaniga men va boshqalar ishongani uchun, faqat asosiy dalilni ko'rsatish maqsadida bu kitobni yozdim.

Oxirgisi. Sharhimni kuzatib borgan bo'lsangiz, asosiy e'tiborimni Yangi Ahddagi to'rtta Xushxabarga qaratganimni ko'rasiz. Bu Eski yoki Yangi Ahddagi har bir kitobni muhokama qilishga ta'sir qiladigan nozik farqlarga va uning uzatilishi hamda kanonligiga unchalik e'tibor

bermaganimni bildiradi. Ammo siz, mazkur kitob *butun* Muqaddas Kitobni bildirmaydimi deb so'rashingiz mumkin? Ha, bildiradi. Biroq, yuqorida keltirilgan beshta sinov prizmasi, Yangi Ahddagi Xushxabar kitoblarini o'rganishga va boshqa barcha kitoblarga taalluqli savollarning haqiqiylikini bilishga yaxshi yordam beradi. Bundan ham muhim bo'lgan narsa yodingizdami: maqsadimiz – Isoning tirilganiga tarixiy ma'noda ishonch hosil qilish. Agar shunday xulosaga kela olsak, bizda Eski Ahdni ham ishonchli deb hisoblashga yetarli asoslar bo'ladi. Tarixiy ma'noda Isoning tirilganligiga qanday qilib ishonch hosil qilish mumkin? Birinchi o'rinda Xushxabar kitoblari ishonchli ekanini aniqlash kerak. Maqsadimiz ham mana shudir.

Boshqa kitoblar Muqaddas Kitobning haqiqiyliги bilan bog'liq bo'lgan eng kichik masalalarni hal qilayotganda, bu kitob menga va boshqa ko'plab odamlarga Muqaddas Kitobning haqiqiyliги Isoning tirilishiga asoslanganligini ko'rsatib berdi. Agar bu dalillar sizga foyda va ishonch bergan bo'lsa, men bundan xursandman. Agar unday bo'lmasa, unda batafsil va yaxshiroq kitoblarni o'qishingizni maslahat beraman (Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxatini ilovada topasiz).

BIRINCHI QADAM

Siz masihiy bo'lmay turib mazkur kitobni o'qiyotgan bo'lsangiz, avvalo shu joygacha o'qiganingiz uchun sizdan minnatdorman. Bu kitob orqali masihiylar, masihiylik, Muqaddas Kitob va Iso haqidagi fikringiz o'zgaradi deb umid qilaman. O'qishni tugatganingizdan so'ng, biz, masihiylarda imon uchun asos borligini tushunib olasiz. Albatta, men yozgan dalillar bilan mutlaqo rozi bo'lmasligingiz mumkin, ammo masihiylik e'tiqodida siz oldin tasavvur qilgandan ko'ra ko'proq narsa bor ekanini ayta olasiz deb umid qilaman.

Ko'proq narsalar haqida gapirishingiz bundan mustasno emas. Balki siz, Muqaddas Kitob *haqiqatdan ham* ishonchli degan xulosaga kelgandirsiz. Agar shunday bo'lsa, unda sizni katta kashfiyotlar kutmoqda. Chunki endi siz avvalgi shubhalardan ozod bo'lib, Muqaddas Kitob – Iso Masih va U O'zini kim deb hisoblagani haqida fikr yuritishingiz mumkin.

Lekin siz masihiy bo'lsangiz, mazkur kitob *nima uchun* Muqaddas Kitobga ishonganingizni yaxshiroq tushunishingiz uchun yordam beradi. Ehtimol, bu imoningiz haqida gapirishga va ishonmaydigan odamlar oldida e'tiqodingizni himoya qilishga imkon beradi. Gap shundaki, odamlar masihiylikni qanchalik ayblashiga qaramay, u odamlardan aql bovar qilmas ko'r-ko'rona e'tiqodni va isbotsiz be'mani ishonchni talab qilmaydi. *Aslida* Iso bizni gunohlardan qutqarganiga ishonishimizning sababi, U haqiqatdan ham yuqori darajadagi ishonchga loyiqligidadir.

Biz buni qayerdan bilamiz?

Muqaddas Kitob bizga shunday deydi.

Keling, unga ishonish mumkin yoki mumkin emasligini tekshirib ko'ramiz.

2

TARJIMADAGI QIYINCHILIKLAR HAQIDA

Bir necha yil oldin Xitoyning Shanxay shahriga tashrif buyurish imkoniga ega bo'lganman. U yerda yashaydigan do'stlarim safarga jo'nashimdan oldin, ko'p belgi va ko'rsatkichlardagi ingliz tilida yozilgan xitoycha yozuvlar doim yozilgan ma'noni bildiradi deb o'ylamasligim haqida ogohlantirishdi. Xitoylik tarjimonlar ko'p yillar davomida ishora belgilarini ingliz tiliga tarjima qilishda katta xatolarga yo'l qo'ygan va bunday xatolar odamlarni yanglishishiga sabab bo'lgan.

Safardan oldin internetda bir nechta misollarni o'qib chiqdim. Ayrim noto'g'ri tarjimalar juda kulgili edi. Restoran eshigida quyidagi yozilgan gapni tasavvur qiling: *Bar yopiq bo'lmagani uchun hozircha ochiq*. Yoki tushlik taomnomasida yozilgan "*mazali achchiq buvi*" deb yozilgan gap. Jamoatchilik bog'idagi ko'rsatkichga yozilgan so'zlar ta'sirli ma'noga ega edi: *Oyog'ingiz ostida jozibali, ammo baxtsiz o'tlar o'smoqda*. To'g'risi, bu gaplar nima haqida yozilganini tushunish qiyin!

O'zim ham shunga o'xshash qiziqarli xatolarni topaman deb o'ylagan edim, lekin Shanxayga yozgi Olimpiyada o'yinlari tugaganidan keyin kelganim uchun, xitoyliklar Olimpiyada O'yinlari boshlanishidan oldin tarjima qilingan so'zlardagi xatolarni to'g'rilab chiqish bo'yicha mamlakatda katta ish olib borgani ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, menda tushlikka "*mazali achchiq buvi*" ni yeyish yoki jozibali, ammo baxtsiz o'tlar ustidan yurish imkoni bo'lmadi!

Nima uchun xitoyliklar tarjima­dagi xatolarni to'g'rilashga harakat qilgani haqida o'ylab ko'ring. Bu juda oddiy: Olimpiya O'yinlari bo'layotgan vaqtda butun dunyoning e'tibori shu davlatga qaratilgani uchun, xitoyliklar boshqalar to'g'ri tushunishini xohlagan. Ular tarjima­dagi so'z odamlarga aynan o'sha ma'noni yetkazishi uchun harakat qilgan. Belgi, taomnoma yoki Muqaddas Kitob tarjimasidan qat'iy nazar, aslida tarjimaning mohiyati ham mana shundadir. O'z ona tilimizda o'qiyotgan matn, muallifning matniga mos ekaniga ishonchimiz komilmi?²

TARJIMA QILISHNING ILOJI BORMI?

Agar ona tilimiz qadimiy ibroniy, oromiy va yunon tili bo'lganida, Muqaddas Kitobni haqiqatdan ham tarixiy kitob ekanini aniqlash osonroq bo'lar edi. Lekin afsus unday emas. Demak, Muqaddas Kitob mualliflari ishonchga sazovor bo'lgani va ko'chiruvchilar asl qo'lyozmalardan ko'chirib olgani haqida savol berishning o'zi yetarli emas. Muqaddas Kitobning bugungi kundagi tarjimalari aynan o'sha nusxa mazmuniga mos ekanligi haqida ham savol berishimiz kerak.

Ehtimol, javob topishimiz kerak bo'lgan birinchi savolimiz, aslida tarjima qilishning iloji bormi?

2. Mazkur bobni yozayotganda quyidagi kitoblardan foydalanman: Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi?* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi* (Grand Rapids, MI: Baker Akademik, 1999); [ingliz tili: Craig L. Blomberg, *Can We Still Believe the Bible?: An Evangelical Engagement with Contemporary Questions* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); Paul D. Wegner, *The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible* (Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999)].

Μὴ θησαυρίζετε ὑμῖν θησαυροὺς ἐπὶ τῆς γῆς, ὅπου σῆς καὶ βρῶσις ἀφανίζει, καὶ ὅπου κλέπται διορύσσουσιν καὶ κλέπτουσιν· θησαυρίζετε δὲ ὑμῖν θησαυροὺς ἐν οὐρανῷ, ὅπου οὔτε σῆς οὔτε βρῶσις ἀφανίζει, καὶ ὅπου κλέπται οὐ διορύσσουσιν οὐδὲ κλέπτουσιν· ὅπου γάρ ἐστιν ὁ θησαυρός σου, ἐκεῖ ἔσται καὶ ἡ καρδία σου.

Mazkur yunon tilidagi matndan foydalanib, quyida aynan shu ma'noga ega so'zlar yozilganiga ishonsak bo'ladimi? Bu joyda xuddi pastdagi parchada yozilgan narsa yozilganiga ozgina bo'lsa ham aminmisiz?

Bu zaminda o'zingizga kuya va zang yeb bitiradigan hamda o'g'rilar kovlab, talab ketadigan xazinalarni to'plamanglar. Ammo osmonda o'zingizga kuya va zang yeb bitirmaydigan hamda o'g'rilar kovlab talab ketmaydigan xazinalarni to'planglar. Chunki sizning xazinangiz qayerda bo'lsa, yuragingiz ham o'sha yerda bo'ladi (Matto 6:19-21).

Yuqoridagi savolga shunday javob bersa bo'ladi: "Ha bo'ladi, faqat bu uchun ancha mehnat qilish kerak." Har qanday tarjima ko'p yillik mehnatni talab qiladi. Oldin so'zlarning ma'nosi va ikki tilning tuzilmasini o'rganish kerak. Bundan keyin asl ma'noni aniq ifodalovchi so'z va tuzilmani topish kerak. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, tarjimaning mohiyati birinchi o'rinda so'z yoki jumla ma'nosini tushuntirish, keyin boshqa odamga tushunarli bo'lishi uchun xuddi shu ma'noni *boshqa* so'zlar bilan yetkazishga harakat qilishdir.

Bu juda murakkab bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin yaxshilab o'ylasak, hatto ona tilimizda ham aynan shunday yo'l tutishimizni

ko'ramiz. Misol uchun, mening o'smir yoshdagi ikki o'g'lim va nabiralarini tushunishga harakat qiladigan otam bor. Ammo xoh ishonning yoki ishonmang, ba'zan bu oson bo'lmaydi! Yo'q, ular bir-biri bilan boshqa tilda emas, balki ingliz tilida gaplashadi. Lekin shunga qaramay ular o'rtasida vositachilik qilib, bir-biriga aytayotgan so'zlarni tarjima qilishimga to'g'ri keladi.

Misol uchun, o'g'lim "You! Hammasi joyida oka", deb so'rganida, dadam menga nabirasi to'satdan qadimiy yunoncha yoki shunga o'xshash tilda gapirayotgandek qaraydi. Dadam "hammasi" degan so'zdan boshqasini tushunmaydi. Shuning uchun o'g'lim aytgan har bir so'zning ma'nosi haqida o'ylab, dadamga tushunarli bo'lishi uchun *boshqa* so'zlarni ishlatgan holda tarjima qilishimga to'g'ri keladi.

Odatda barcha gapni to'liq tarjima qilaman. "Dada, u hammasi yaxshi ekanini aytmoqchi." Lekin men buni yanada o'ylab aytadigan bo'lsam, har bir so'zni birin-ketin tushuntirishim kerak va bu taxminan mana shunday tarzda bo'ladi.

- "You" – norasmiy tarzdagi yoshlar orasidagi salomlashuv. Yoshi kattalar "salom" – deb aytgan bo'lar edi.
- "Hammasi joyida" degan yoshlar iborasi, "hammasi yaxshi, muammo yo'q" degan ma'noni bildirib, "joyida" so'zi "bog'lovchi so'z" hisoblanadi.
- "Oka" – "aka" so'zidan olingan bo'lib, do'stona munosabatni bildiradi. "Oka" bo'lish uchun tug'ishgan aka bo'lish shart emas. Ota-onalarimiz oddiy qilib "do'st" yoki "o'rtoq" deb murojaat qilgan bo'lar edi.

Agar hammasini bir-biriga bog'laydigan bo'lsak, o'smirlar aytadigan "You! Hammasi joyida oka" jumlasini yoshi kattalar tiliga

quyidagi tarzda tarjima qilish mumkin: “Do’stim, salom! Hammasi yaxshi!” Dadam buni eshitgandan keyin yengil nafas olib, mana endi tushundim deya – tabassum qilib, nabirasiga bosh barmog’ini ko’rsatdi. Bobosi bilan nabiralari bir-birini tushinishi uchun tarjimonga murojaat qilishga to’g’ri keldi. “Barakalla!” – dedi dadam . . . Bu gapdan keyin boshqa so’zlarni yana tarjima qilishga tushdim.

Ha to’g’ri, bu tarjimon ishiga juda sodda tarzda yondashuv bo’lib, aslida tarjima ishi juda murakkab ekanligi tushunarli. Muqaddas Kitob va boshqa mashhur kitoblarning tarjimasi yoki umuman kundalik muloqot uchun zarur bo’lgan tarjimalar haqida gaplashadigan bo’lsak, mazkur ish bilan shug’ullanuvchilar qahramon hisoblanadi. Ammo hozir oddiy bir misol orqali butunlay boshqa narsani tushuntirmoqchiman. Gap tarjima qilish oson yoki qiyinligida emas. Gap tarjima qilishning *imkoni* borligi haqida ketyapti. Tarjima tufayli ma’lumotni aniq, to’g’ri va ishonchli tarzda uzatish mumkin.

Muqaddas Kitobni yunon va qadimiy ibroniy tilida o’qiyotganimiz uchun, uni tarixiy haqiqat ekanini hech kim rad etolmaydi. Olimlar asrlar davomida yunon, ibroniy, oromiy va boshqa tillarni o’rganayotgani uchun aniq tarjima qila oladi.

NIMA UCHUN MUQADDAS KITOBNING TARJIMALARI KO’P?

Agar shunday bo’lsa, nima uchun Muqaddas Kitobning turli xil tarjimalari mavjud? [*muharrir izohi*: O’zbek tilida uchta tarjima bor: Yangi Ahd Injil nomi ostida chiqqan tarjimasi, Muqaddas Kitob tarjimasi va Muqaddas Yozuvning so’zma-so’z tarjimasi.] Misol uchun, ingliz tilidagi tarjimalar orasida qirol Yoqubning Muqaddas Kitobi (the King James Version, KJV), qirol Yoqubning Muqaddas Kitobining yangi

tarjimasi (the New King James Version, NKJV) va qayta ko'rib chiqilgan standart tarjima bor (the Revised Standard Version, RSV). Bundan tashqari Xolman Muqaddas Kitobi (the Holman Christian Standard Bible, HCSB), Ingliz tilidagi standart tarjima (the English Standard Version, ESV), Yangi tirik tarjima (the New Living Translation, NLT) va Yangi xalqaro tarjimalar (the New International Version, NIV) ham bor. Yana mazkur tarjimalarning aksariyat qismi harbiy xizmatchi, sportchi, erkak, ayol, o'smir, talaba va tadbirkorlar uchun mo'ljallangan. Nega?

Ingliz tilidagi standart tarjima ustida mehnat qilgan tarjimonlar, Yangi xalqaro tarjimada xatolar bo'lgan deb hisoblagan bo'lishi mumkinmi? Ehtimol, qirol Yoqubning Muqaddas Kitobi juda yomon tarjima qilingani uchun Qayta ko'rib chiqilgan standart tarjimasining tarjimonlari barchasini yangitdan qilishiga to'g'ri kelgan? Nahotki, Yuhanno Xushxabari uni kim o'qiyotganiga – erkak, ayol, sportchi yoki harbiyga qarab o'zgarsa?

Qisqa tarzda javob berish kerak bo'lsa, unda barcha savollarga yo'q deb aytish kerak! Muqaddas Kitobning talaba, erkak, ayol va harbiylar uchun mo'ljallangan turli nashrlarga keladigan bo'lsak, bu shunchaki ularni qiziqtirish bo'lib, asosiysi Muqaddas Kitobning matni o'zgaragan. Bunday nashrlar faqat turli xil qo'shimcha matnlari – nutq, eslatma, ruhiy mavzudagi maqola va shunga o'xshash narsalar bilan farq qiladi. Ayol va erkaklarga mo'ljallangan Muqaddas Kitob bo'lgani uchun, Muqaddas Kitobning matni o'zgaradi yoki boshqa ma'nolarni keltirib chiqaradi deb o'ylamang.

Turli tarjimalar haqida nima deyish mumkin? Nahotki, ular Muqaddas Kitobni boshqa tarzda talqin qilsa, nahotki Muqaddas Kitobning asl ma'nosi yo'qolgan bo'lsa? Bu juda yaxshi savol. Aslida, turli tarjimalardagi yunon va ibroniy tildagi iborani yetkazish uchun turli so'zlar ishlatilgani, asl nusxadagi ma'no o'zgardi degani emas.

Keling yana bir bor o'smirlar iborasini misol tariqasida ko'rib chiqamiz "You! Hammasi joyida, oka." Men buni butunlay boshqacha tarjima qilishim ham mumkin:

- "Salom do'stim! Hammasi zo'r!"
- "Salom birodar! Menda hammasi yaxshi."
- "Xayrli kun qadrdonim! Sizdek g'amxo'r odamlar bo'lgani uchun yaxshi yashayapman."

Har bir tarjimadagi so'zlar turlicha bo'lishiga qaramay, gapning ma'nosi o'zgarmaganiga shubha qilyapsizmi? Qaysi *tarjimaga* e'tibor bilan qarashingizdan qat'iy nazar, o'g'limni do'stona munosabatga ega bo'lgan odamga murojaat qilayotganini va uning hozirgi holati a'lo darajada ekanini *ko'rishingiz mumkin*.

Muqaddas Kitob bilan ham xuddi shunday. Keling Muqaddas Kitobga oid bo'lgan yana bir oyatni olib, turli tarjimalarda qanday yozilganini ko'rib chiqamiz. Rafiqamdan istagan Xushxabar kitobini tanlab aytishini iltimos qildim. U Mark Xushxabari kitobini tanladi.

- Endi birdan o'n beshgacha bo'lgan sonni ayt.
- O'n!
- Yana, birdan ellik ikkigacha bo'lgan sonni tanla.
- Ellik!

Keling Mark 10:50 ni, shuningdek mazkur oyatning bir nechta tarjimasini ko'rib chiqamiz. Mana bu yunon tilidagi asl matn:

ὁ δὲ ἀποβαλὼν τὸ ἱμάτιον αὐτοῦ ἀναπηδήσας ἦλθεν πρὸς τὸν Ἰησοῦν.

2023 Muqaddas Yozuvning soʻzma-soʻz tarjimasida shunday yozilgan:

U ustki kiyimini uloqtirib tashlab, oʻrnidan turdi va Isoning oldiga keldi.

Muqaddas Kitob tarjimasi:

Koʻr toʻnini yechib tashlab, oʻrnidan sakrab turdi-da, Isoning yoniga keldi.

Sinodal tarjimada shunday yozilgan:

U ustidagi kiyimini yechib oʻrnidan turdi va Isoning oldiga keldi.

Yangi ruscha tarjimada esa quyidagicha tarjima qilingan:

Bartimay toʻnini yechib oʻrnidan turdi va Isoning oldiga keldi.

Nozir Kassian muharrirligi ostidagi tarjima:

U ustki kiyimini yechib sakrab turdi-da Isoga yaqinlashdi.

Ruhoniy Leonid Lutkovskiyning tarjimasi:

Oʻzining ustki kiyimlarini yerga tashlab oʻrnidan turdi va Isoning oldiga bordi.

Slavyan jamoatiga oid tarjima:

U oʻz libosini yerga tashlab, oʻrnidan turdi va Isoning oldiga keldi.

Juda qiziq, to'g'rimi? Mark 10:50 da nima deyilganini qanday tushunish mumkin? Bu odamning Isoga yaqinlashgani aniq. Lekin u ustki kiyimini *yechdimi* yoki *yerga tashladimi*? Bu *ustki kiyimmi* yoki *libosmi*? Bu odam Isoga yaqinlashish uchun *sakrab turgani* yoki *o'rnidan turganini* qanday aniqlash mumkin?

Mayli, albatta bu hazil. Yettita tarjimaning farqi bo'lishiga qaramay, gap nima haqida ketayotganini tushunish oson. Bu odam tezda ustki kiyimini yechgan holda, o'rnidan turib Isoning oldiga boryapti. Turli tarzda tarjimalar bizga asl nusxa nima haqida gapirayotganini tushunishga to'sqinlik qilmay, aksincha ikki yoki uch tarjimani taqqoslash orqali yozilgan fikrni to'ldiradi.

Albatta, buning o'zi yetarli emas. Boshqa oyatlar ham Mark 10:50 ga o'xshab oddiy emas. Ba'zi so'z va iboralarni tarjima qilish haqiqatdan ham qiyin bo'ladi. Bunday hollarda tarjimonlar orasida so'z va iboralarni qanday qilib yetkazish haqida ko'pincha kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Shunday holatlarda quyidagilarni yodda tutishimiz lozim.

1. Olimlar Muqaddas Kitobga oid bo'lgan tarjimaning juda kichik so'z va iboralarni sezilarli darajada farqlaydi. Bunday so'z va iboralarni har bir kitobda, hatto Muqaddas Kitobning har bir bobida ham uchratmasligimiz mumkin.
2. Shunga o'xshash kelishmovchiliklar yuzaga kelganida, Muqaddas Kitobning eng yaxshi tarjimalari kitobxonlarga shunday izoh beradi: "mazkur matnni ibroniy [yoki yunon] tilidagi ma'nosi aniq emasligini."³ Ya'ni, hech kim o'zicha biron-bir narsani qo'sha olmaydi. Hatto tarjimonlar shunday ish qilishni xohlasa ham buni qilolmagan bo'lar edi, harqalay ingliz (va o'zbek) tilida bunday voqea bo'lmagan.

3. YaRT Isha'yo 10:27 dagi izohga qarang - *Muharrir izohi*.

3. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan ko'plab tarjimalar, ataylab noto'g'ri talqin qilingan tarjimalarni aniqlashga yordam beradi. Misol tariqasida Iyegova shohidlari [sektasi] ning "Yangi dunyo tarjimasi" (New World Translation – NWT) ni keltirish mumkin. Yuhanno Xushxabari birinchi bob, birinchi oyatda shunday yozilgan: ". . . bu Kalom xudolardan biri edi", [ya'ni Iyegova shohidlari ko'p xudolar bor, Iso Masih shulardan bittasi deb biladi] boshqa barcha jiddiy tarjimalarda bu joyni quyidagi tarzda tarjima qilinganini bilish juda foydali: ". . . Kalom Xudo edi." Bu yerda "Yangi dunyo tarjimasi" mualliflari boshqa tarjimonlar qabul qilishi mumkin bo'lmagan narsalarga yo'l qo'yganini aniq ko'rish mumkin. Agar siz yunon tilini chuqur o'rganib, bu tilning grammatikasi qanday ishlatilishini bilganingizda, siz ham Iyegova shohidlaridan tashqari barcha tarjimonlar kabi bir xil xulosaga kelar edingiz. "Yangi dunyo tarjimasi" mualliflari mazkur oyatni o'ziga xos ilohiyotshunoslik ta'limotiga asosan tarjima qilgan.
4. Mana shunday atayin qilingan tarjimadagi xatolar aniqlanib rad qilingani uchun biz ishonch bilan haqiqiy masihiylikka xos bo'lgan ta'limot hech qachon bahsga, Muqaddas Kitobning biron-bir joyi asl nusxasidan noaniq tarjimaga ega emasligini aniq ayta olamiz. Biz Muqaddas Kitobda nima yozilganini va bu nimani bildirishini bilamiz.⁴

Ammo yana bir savol tug'iladi. Nima uchun Muqaddas Kitobning har xil tarjimalari mavjud? Agar tarjima borasida kelishmovchiliklar

4. Bu masala Blomberg va Vegner tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan.

kam bo'lib, bu ta'limotning mohiyatiga ta'sir qilmasa, nima uchun boshqalar o'zini qiynab keyingi tarjimaga kuchi va mablag'ini sarflaydi? Bu juda o'rinli savol. Bunga javob berish uchun odamlar Muqaddas Kitobni turli sabablarga ko'ra o'qishini tushunishimiz kerak.

Muqaddas Kitobni Xudo bilan muloqat qilish, ruhiy o'sish, va'z tayyorlash, mashg'ulotlar o'tish, turli matnlarni o'rganish va tahlil qilishda, masihiylikka oid ta'limotlarni muhokama qilishda, shuningdek mazkur kitob orqali imon tushunchasini mustahkamlash uchun o'qishadi. Mazkur mashg'ulotlarning aksariyat qismiga yunon yoki ibroniy tilidan so'zma-so'z tarjimaning o'zi yetarli emas. Agar shunday bo'lganida bu juda zerikarli bo'lar edi. Yana bir bor Mark 10:50 ga murojaat qilamiz. Yunon tilidan qat'iy so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, unda quyidagicha ko'rinishda bo'lar edi:

U tashlab ustki kiyimini o'rnidan turib keldi oldiga Isoning.

Albatta, buni ham hal qilish mumkin. Bunday qat'iy so'zma-so'z tarjima, oyatni ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchilar uchun foydali bo'lar edi. Lekin siz ertalab qahva ichib Muqaddas Kitobni o'qiyotganda, bunday uslubga toqat qila olasizmi?

Aynan shuning uchun bizda Muqaddas Kitobning turli tarjimalari mavjud bo'lib, ular har xil maqsadda ishlatiladi. Ba'zan qat'iy deyarli so'zma-so'z tarjima qilingan asl nusxa kerak. Ba'zan esa o'qishga qulay, tushunarliroq bo'lgan tarjima kerak. Shuning uchun ba'zi tarjimalar iboradagi so'zning ma'nosini (yoki alohida fikrlarni) yoritib, so'zlarning tartibini tarjima qilinayotgan tilga xos ravishda o'zgartiradi va asl nusxadagi fikrlarni kitobxonga tushunarli shaklda yetkazish uchun yunon va ibroniy grammatikasi o'rniga uning tizimlaridan foydalanadi. Aslida, Muqaddas Kitobning har bir

tarjimasi *o'qish uchun aniq va qulay* bo'lishiga harakat qilish kerak. Ba'zi tarjimonlar matnni aniq tarzda yetkazishni o'zining burchi deb hisoblab (buni Mark 10:50 misoli tariqasida ko'rdik), shu bilan birga muqarrar ravishda qabul qilish oson bo'lgan qulaylikni qurbon qiladi. Boshqalar esa o'qish uchun qulay bo'lgan tarjimani yaratish ustida harakat qiladi. Ammo bu asl nusxadagi so'zlarning ketma-ketligini o'zgartirishni talab qilgani uchun kitobxon tilida mazkur iboralar "to'g'ri" tarzda jaranglaydi.

Nima demoqchi ekanligimni tushunyapsiz deb umid qilaman. Muqaddas Kitobning asl qo'lyozmasi nima haqida gapirayotganiga nazariy bilim yoki Muqaddas Kitobning tarjima amaliyoti shubha qilishimizga sabab bo'la olmaydi. Bu kitobda nima yozilganini *haqiqatdan* ham bilamiz. Olimlar bahslashadigan joy juda kam. Ular Muqaddas Kitobning barcha joylarida sochilib ketgan bo'lib, hech qanday ahamiyatga ega emas. Muqaddas Kitobni to'g'ri tarjima qilishning iloji bor va *bunday tarjimalar amalga oshirilgan va yana amalga oshirilib kelmoqda*.

Muqaddas Kitob *tarixiy ishonchli* qo'lyozma ekanini aniqlash uchun buning o'zi yetarli emas albatta. Biz quyidagi savolni berishimiz kerak: hozir aynan mualliflar tomonidan dastlab yozilganlarni tarjima qilyapmizmi?

Boshqacha qilib aytganda, Muqaddas Kitob qo'lyozmalarini yozgan odamlar nusxalardagi asl mohiyatni to'g'ri yetkazib berganmi?

3

NUSXADAN QAYTA YOZILGAN NUSXA NUSXAMI?

Maktabda, keyin kollejdagi bir necha chet tillarini o'rganganman. Haligacha ispan tili men uchun sevimli til hisoblanadi. Bu ko'pchilikda, ayniqsa olimlarda unchalik taassurot uyg'otmasa ham, mazkur tilni o'rganish uchun *to'rt yilni* bag'ishlaganimni aytib o'tmoqchiman. O'sha vaqtdan beri taxminan o'n besh yil o'tdi va endi ispan tilini uncha yaxshi bilmayman – yaxshi o'qiy olmayman, gapira olmayman va tushunmayman ham. Lekin o'sha paytlarda jiddiy shug'ullanganim uchun ingliz tilidan ispan tiliga va aksincha ispan tilidan ingliz tiliga yaxshi tarjima qilar edim. Buning sababi ispan tili o'qituvchimning bizga *har kuni* tarjima qilish uchun uyga vazifa berganidir. Ko'plab kollejlarning jadvali qanday tartibda bo'lgani esingizdami? U yerda chet tili mashg'ulotlari kun ora bo'lardi – dushanba, chorshanba, juma yoki seshanba, payshanba. Lekin ispan tili bundan mustasno. Bizda bu til har kuni, dushanbadan jumaga qadar o'tilar edi. Menda har kuni ingliz yoki ispan tilidagi matn bo'lgani uchun uni tarjima qilib, ertasi kuni sinfda muhokama qilishga tayyorgarlik ko'rar edim.

Aslida ham tarjimani yaxshi qilardim. Kollejdagi so'ngi o'quv yilida ikki soat ichida mingga yaqin so'zni tarjima qila olar va har bir jumlaning grammatikasini talabga asosan tushuntirib berar edim. To'g'ri, mashg'ulotlarda bir necha bor yoqimsiz hayoti dars o'rganishimga to'g'ri kelgan: menga berilgan matnni emas boshqa

joyini tarjima qilgan ekanman, su sababli yaxshi tarjima qilganim foydasiz bo'ldi!

Ba'zida odamlar Muqaddas Kitobni tarjima qilganlarni ayblashadi. Tarjimaning *aniqligi* haqida kafolat berishimizga qaramay, *kerakli narsani* tarjima qilayotganimizga ishonch hosil qila olmaymiz. Shuning uchun barcha sa'y-harakatlarimiz behuda bo'lishi mumkin. Ayblov mualliflar tomonidan yozilgan qo'lyozmalarning yo'qligi bilan bog'liq emas. Bu degani, bizdagi nusxalar noto'g'ri ekanligi va shuning uchun dastlab nima yozilganini aniq bilmasligimizni bildiradi. Agar bu gap to'g'ri bo'lib, mazkur dalil isbotlangan bo'lsa, unda bahs-munozarani davom ettirishning hojati yo'q.

Bir jurnalda bu haqda keskin ravishda shunday deb yozishgan:

Oynai jahon orqali va'z qiladigan hech bir va'zxon Muqaddas Kitobni o'qimagan. Uni masihiy siyosatchilar ham o'qimagan. Bu kitobni hatto Rim Papasi ham o'qimagan. Mazkur kitobni men va siz ham o'qimagansiz. Barchamiz o'qiyotgan tarjima yomon tarjima bo'lib, bu tarjima yana boshqa tarjimadan tarjima qilingan. Bu tarjima bo'lsa nusxaning yana bir nusxasidan nusxa ko'chirilgan nusxadan olingan, hamda mazkur holat yuzlab marotaba yana va yana takrorlangan.⁵

“Yomon tarjima” bilan bog'liq bo'lgan ayblovga mazkur kitobda allaqachon javob berdik. Yomon tarjimalar haqidagi uydirmalar noto'g'ri ekanligi sizga tushunarsiz bo'lsa, ehtimol unda qaytib yana 2-bobni o'qishingizga to'g'ri keladi. Boshqa tarjimadan olingan tarjimaga ega ekanligimiz noto'g'ri, go'yo yunon asl nusxasi avval xitoy

5. Kurt Eichenwald, “The Bible: So Misunderstood It's a Sin,” Newsweek, December 23, 2014, <http://www.newsweek.com/2015/01/02/thats-not-what-bible-says-294018.html>.

tiliga, xitoy tili esa nemis tiliga, nemis tili bo'lsa polsha tiliga tarjima qilingan va shundan keyin u ona tilimizga tarjima qilingandek. Yo'q bunday emas, bizda to'g'ridan-to'g'ri asl tildan – yunon va ibroniy tilidan tarjima qilish imkoni bor. Shunday qilib eng yomon holatda ham biz *tarjimaga* egamiz tamom. Lekin oxirgisi “nusxaning yana bir nusxasidan nusxa ko'chirilgan nusxa” haqidagi ayblovgva nima deymiz?

BIZDA ASL NUSXALAR YO'Q. NIMA BO'PTI?

Keling *dasturda* berilgan savol haqida o'ylab ko'ramiz: Muqaddas Kitobning asl matni asrlar davomida bizgacha yetib kelganiga amin bo'lishimiz mumkinmi? Agar mazkur masalaga e'tibor qaratayotgan bo'lsak, unda aniq bo'lgan haqiqatni tan olishimiz kerak: ha to'g'ri, bizda asl nusxa yo'q.⁶

Luqo, Yuhanno, Pavlus hamda Yuhanno Xushxabari va Rimliklarga maktubini nimaga yozilganidan qat'iy nazar, bu asl nusxalar tarix zarvaraqlari uchun yo'q deb hisoblanadi. Ehtimol hech qachon Muqaddas Kitobga tegishli qo'lyozmani topa olmaganimiz uchun “Bu aynan o'sha havoriy yozgan varaq ekaniga yuz foiz aminman”, – deb ayta olmaymiz.⁷ Lekin qo'llarimizni tushirib umidsizlik qilishimiz kerak emas. Umuman *asl qo'lyozma* muhim ekanligi haqida qay darajada

6. Mazkur bobni yozayotganda quyidagi kitoblardan foydalanganman: Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi?* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi* (Grand Rapids, MI: Baker Akademik, 1999); [ingliz tili: Craig L. Blomberg, *Can We Still Believe the Bible?: An Evangelical Engagement with Contemporary Questions* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); Paul D. Wegner, *The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible* (Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999)].

7. Bundan tashqari qadimgi mualliflar qog'ozga yozmagan. Ular papirus, teri va keyinchalik pergamentga yozishgan. Biroq mazkur kitob uchun “qog'oz” so'zining o'zi yetarli bo'ladi.

o'ylanishimiz kerak? Albatta, agar shunday bo'lganida zo'r bo'lar edi. Bir necha yil oldin Londondagi "Britaniya kutubxonasi xazinalari" ko'rgazmasiga tashrif buyurdim. U yerda eng qimmatbaho madaniy va tarixiy asarlar taqdim etilgan bo'lib, ishchi xodimlar Britaniya kutubxonasidagi haybatli arxivlardan yodgorliklarni qazib olgan. Bu ajoyib uchrashuv bo'lgan edi. Oldimda ozodlikka oid buyuk xartiya, Gutenbergning 1455 -yildagi Muqaddas Kitobi, Gendel tomonidan yozilgan "Masihning" partiturasini, Sinay kodeksi – Yangi Ahdning qadimiy va mashhur bo'lgan to'liq nusxasi, Leonardo da Vinchining yon daftarchasi va (iltimos tinchlaning) "Bitlz" guruhidagi Jon Lennon tomonidan qog'oz parchasiga chizilgan "Help!" qo'shig'ining asl matni.

Xonimlar va janoblarni, biz *bilgan* narsalar haqida xabar berishdan mamnunman. "Help!" qo'shig'ining matni "Bitlz" tomonidan o'ziga xos shaklda yozilganiga hech qanday shubha yo'q. Ushbu matnni qog'oz sochiqqa yozilgan holda ko'rish mumkin. Umuman olganda bu zo'r ekanini tan olaman. Ammo bu "Britaniya kutubxonasining xazinalaridan" joy olishi kerakligiga ishonchim komil emas, lekin shunga qaramay ko'rib turibmiz.

Demak, savol. Nahotki, faqat *asl yozilgan qog'ozga ega* bo'lib, mualliflar *aslida* nima yozganini to'liq bila olsak? Nahotki, Gomer va Platoning "Odyssey" yoki "Respublika" deb yozilgan qog'ozi bo'lmagani sabab, ular nima haqida yozganini bilmasak? Nahotki, "Bitlz"ga tegishli bo'lgan "Help!" qo'shig'ining matni bu biz *haqiqatdan* ham bilgan yagona qo'shiq bo'lsa? Albatta yo'q! Bu o'taketgan bema'nilik! Muqaddas Kitobga oid hujjatlar haqida nima deyish mumkin? Izmimizda faqat boshqa nusxalardan qayta yozilgan ko'plab foydasiz nusxalar borligini tan olishdan boshqa yo'l yo'qmi? Nahotki, bizgacha yetib kelgan nusxalar Muqaddas Kitobning mualliflari tomonidan yozilganini aniq tasdiqlaydigan ishonch bo'lmasa?

Bunday xulosa qilishimiz uchun sabab yo'q. Aslida Muqaddas Kitobning *asl qo'lyozmalari* yo'q bo'lishiga qaramay, ularning mazmunini bilishimizga aminmiz. Nima uchun?

Javob shundan iboratki, asl qo'lyozmalarning yo'q bo'lishiga qaramay, bizda minglab boshqa qog'ozlar (ya'ni papirus, teri va pergament parchalari) bor bo'lib, unda Muqaddas Kitobga tegishli har bir matn asl tilda yozilgan va faqat Yangi Ahdning o'zi 5400 ga yaqin qo'lyozmaga ega. Zamonaviy bosma nashrni hisobga olmaymiz: hozir bosmaxona ixtiro qilingandan oldin bo'lgan *qadimiy qo'lyozmalar* haqida gapiryapmiz. Ko'pchiligi davrimizning uchinchi, ikkinchi va hatto (ehtimol) birinchi asrlariga mansub. Ba'zi qo'lyozmalarda Muqaddas Kitobdagi kitoblarning to'liq nusxasi saqlanib qolgan, boshqalari esa qisman zarar ko'rgan. Bir paytlar katta qo'lyozma bo'lgan parcha qismlari ham bor. Qaytaraman, bu topilmaning hech biri Muqaddas Kitobning asl qo'lyozmasi emas. Buning barchasi qadimgi hujjatlarning nusxasidir. Ammo ularni qadimgi Rim imperiyasida, g'orlarga yashiringan holda, qadimgi xarobalar ostida ko'milgan va hatto Misr shahrining tashlandiq joylaridan topib olishgan! Mutaxassislar bu topilgan parchalarning yoshini aniqlagandan so'ng, ular bizga masihiylik tarixining dastlabki uchinchi yoki to'rtinchi asrlaridan kelib chiqqani ma'lum bo'lgan.⁸

Bu barcha qo'lyozmalarni va parchalarni qiziqarli yoki jumboqli qiladigan narsa, siz bunga qanday qarashingizga bog'liq bo'lib, garchi ular Muqaddas Kitobdagi muayyan bir joyning nusxasi deb sanalsa ham, ba'zi joylarda ular bir-biridan farq qiladi. Misol tariqasida, Matto Xushxabarining qo'lyozmasida yozilgan Pontiy Pilat so'zlarini keltiramiz: "Bu Odamning to'kiladigan qoni uchun men aybdor

8. Yangi Ahdning saqlanib qolgan qo'lyozmalari haqida batafsil ma'lumot olish uchun, masalan Vegnerga qarang: 235–242 betlar.

emasman” (Matto 27:24). Xuddi shu Xushxabarning keyingi asrlarda topilgan parcha qismida, Pilatning soʻzlari boshqacha jaranglaydi: “Bu Haq Odamning toʻkiladigan qoni uchun men aybdor emasman.”⁹ Bundan nima kelib chiqyapti? Hech boʻlmaganda bir marta, baʼzida bir necha marta xushxabarchi Matto soʻzlari notoʻgʻri tarzda yozilgan.

Bunday raqamni, yaʼni 5400 ga yaqin qoʻlyozma va parcha qismlarini koʻrgandan keyin – ayrimlar “Yoʻq! Aslida nima yozilganini bilishning *iloji yoʻq*. Saqlanib qolgan nusxalar asl nusxalardan ancha yangiroq boʻlishiga qaramay koʻp zarar yetgani uchun, mualliflar dastlab nima yozganini tushuntirish qiyin”, deb aytishadi. Lekin bu nihoyatda qatʼiy holdagi xulosa. Nimaga deysizmi? Avvalo shubha qiluvchilar fikriga koʻra muammoning kelib chiqishi, bizdagi qoʻlyozmalar bilan asl nusxalarning orasida uzoq davr boʻlgani va ularning orasidagi oʻzaro farqi, lekin aslida bu ular tasavvur qilgandek qoʻrqinchli emas. Bundan tashqari, butun imperiyadan yigʻib kelingan *aynan* mana shu turli koʻrinishdagi minglab nusxalar, asl qoʻlyozmada yozilgan narsalarni tiklashga yordam beradi deb *katta ishonch* bilan ayta olamiz.

Sizning ruxsatingiz bilan buni tushuntirishga harakat qilaman. Asta-sekin, qadamma-qadam muqokama qilamiz.

QANDAY TAFOVUT!

Birinchidan, biz ega boʻlgan hujjatlar va asl qoʻlyozmalar oʻrtasida ulkan tafovut boʻlgani uchun asl qoʻlyozma qanday ekanini aniqlash harakatlarini toʻxtatish kerak deb aytilgan koʻp ayblovlar quloqqa chalinadi. Barcha Yangi Ahd qoʻlyozmalari birinchi asrning ikkinchi

9. Muqaddas Kitobning rus tilidagi turli tarjimalariga qarang. Qoʻlyozmalardagi farq haqida Matto 27:24 da Kulakov tomonidan tahrir qilingan tarjimada aytilgan. *Tar. izoh.*

yarmida yozilgan bo'lib, dastlabki nusxalari 125, 150 va 200 yillarga to'g'ri keladi. Demak, asl qo'lyozmani dastlabki nusxalardan 45-75 yil ajratib turadi. 75 yil uzoq vaqt bo'lib ko'ringani uchun bu bizga juda katta muammodek tuyuladi: shu vaqt ichida boshqa nusxalardan nusxa ko'chirib, ko'plab nusxalarni tayyorlash va ba'zi nusxalarni yo'qotish mumkin. Shuning uchun asl qo'lyozmalar qanday ko'rinishda bo'lganini bila olmaymiz. Biroq, qadim zamondagi odamlar kitobni bizga qaraganda ko'proq qadrlagani va yaxshiroq munosabatda bo'lganini esga oladigan bo'lsak, bunday taxmin mutlaqo adolatsiz ekanini tushunamiz. Hozir ham millionlab kitoblar har yili chop etilayotgan bir vaqtda, duch kelgan bukinistik do'koniga kirib, yuz, ikki yuz va hatto uch yuz yillik kitoblarni topish mumkin. Odamlar kitoblarni asraydi! Ayniqsa qadim zamonda shunday bo'lgan va bir kitobni qayta yozish uchun *bir necha haftalar* talab etilgan. Olimlar qadimgi kutubxonalarni o'rganib chiqib, odamlar kitobning yangi nusxasini chop etishdan oldin 100-150 yil davomida eskisidan foydalanganini aniqlashgan.

Ta'sirli misollardan biri – IV asrga tegishli bo'lgan Yangi Ahd nusxasi, Vatikan kodeksi hisoblanadi. X asrda nusxa ko'chiruvchilar kitobni yanada ko'proq foydalanish maqsadida harflarni siyoh bilan bo'yab chiqishgan. Ya'ni, Vatikan kodeksi paydo bo'lgandan keyin undan *olti yuz yil* davomida foydalanishgan! Hamma gap shundaki: agar kitoblardan bir necha asrlar davomida muntazam ravishda foydalanishgan bo'lsa, 45-75 yil ichida Yangi Ahdning asl qo'lyozmasi hamda eng qadimgi nusxalar orasidagi tafovutni juda katta deb hisoblab bo'lmaydi. Mualliflar tomonidan yozilgan asl qo'lyozmalar yo'qolib ketishidan avval o'nlab yillar va hattoki asrlar davomida son-sanoqsiz miqdorda yangitdan ko'chirma qilingan va saqlanib qolingan. Shuning uchun asl qo'lyozma nusxalari boshqa nusxalardan

ko'chirilgan deb ta'kidlash – bo'rttirib gapirishni bildiradi. Imkonimiz chegarasidan chiqmaydigan bo'lsak, *asl qo'lyozmadan ko'chirilgan nusxa* muzeylarda saqlanayotganini taxmin qilishimiz mumkin.

Bundan tashqari, boshqa qadimiy asarlarning asl qo'lyozmalari va saqlanib qolgan nusxalarning eng qadimgi nusxalari o'rtasidagi vaqt tafovutiga qarasaq, Yangi Ahd bilan bog'liq bo'lgan tafovut deb aytilgan so'z faqat balandparvoz gap hisoblanadi. Misol tariqasida, bugungi kungacha saqlanib qolgan Fukididaning “Peloponnes urushi tarixi” asarini roppa-rosa sakkizta qo'lyozmasini keltirish mumkin. Ilk qo'lyozma asl qo'lyozmadan 13 asrga kichik! Yuliy Sezarning “Gall urishidagi maktub” asariga keladigan bo'lsak, faqat to'qqiz yoki o'nta nusxasi o'qishga yaroqli bo'lib (o'qish uchun nimani yaroqli deb hisoblashga bog'liq), eng avvalgi qo'lyozma asl qo'lyozmadan to'qqiz yuz yildan keyin ko'chirilgan deb sanaladi. Tatsitning “Tarix” va “Annallar” deb nomlangan asarlari birinchi asrda yozilgan bo'lib, ikkita saqlanib qolgan qo'lyozmalar IX va XI asrlarga to'g'ri keladi, ya'ni ular asl qo'lyozmadan sakkiz yuz yil va ming yil yoshroq hisoblanadi.

Boshqa qadimiy adabiyotlar haqida gap ketganda, vaqtdagi farqga hech kim e'tibor bermay, faqatgina Yangi Ahd qo'lyozmalari odamlarning bezovtalanishiga sabab bo'ladi.

TO'RT YUZ MINGTA FARQ?

Endi ikkinchi ayblovga o'tamiz: bizgacha yetib kelgan qo'lyozmalarda juda ko'plab tafovut bo'lib, asl qo'lyozmaning aniq mazmunini ishonch bilan mana shunday deb bo'lmaydi. Bir olimning aytishicha Yangi Ahd qo'lyozmalarining – tasavvurga sig'maydi! – to'rt yuz mingga yaqin matni bor emish. (“Yaqin” deb aytishimizga sabab, hech kim buni hisoblab chiqmagan. Hatto bunday gapni aytgan tadqiqotchi

ham, “ba’zilar ikki yuz ming, boshqalari uch yuz ming, yana birlari esa to’rt yuz ming va undan ham ko’p turlari bor deb ta’kidlaydi!”¹⁰ Nima bo’lishidan qat’iy nazar, bu ayblov haqida bir necha fikrlarni bildirishimiz mumkin.

1. Aslida qo’lyozmalar orasida *unchalik ko’p* farq bo’lmay, “to’rt yuz ming” soni to’g’ri bo’lgan taqdirda ham bir qarashda unchali qo’rqinchli emas. Gap shundaki, mazkur variantlar soni haqida gapirgan olim, nafaqat bizgacha yetib kelgan besh mingta asl yunon qo’lyozmalarini bosmaxona ixtiro qilingunga qadar ko’rib chiqqan, balki yana boshqa tillardagi o’n mingta qo’lyozmani, shuningdek Yangi Ahd qismidagi jamoat tarixining birinchi olti yuz yil vaqt oralig’idagi ma’lumotga ega bo’lgan! Barchasini birlashtirsangiz chindan ham to’rt yuz mingta variantni olasiz (balki ikki yuz ming yoki uch yuz ming...), gap olti yuz yil vaqt oralig’ida, har bir qo’lyozma uchun atigi o’n oltita variant to’g’ri kelishi mumkin bo’lgan va keng tarqalib ketgan yigirma besh mingta qo’lyozma mulohazasi haqida ketyapti. To’g’risini aytganda, bu juda ko’p emas.
2. To’rt yuz mingta matn variantlari to’rt yuz mingta noyob tarzda o’qishni anglatmaydi. Bu bir qo’lyozmada “men bu Odamning qoni to’kilishida aybsizman”, deb yozilganini, boshqa *o’ntasida* esa “men bu Haq Odamning qoni to’kilishida aybsizman”, deb yozilib, endi bu *o’n birinchi* variant bo’lishini bildiradi. Bunga diqqatingizni qaratsangiz, dahshatli bo’lib ko’ringan to’rt yuz ming so’zi e’tiborsiz bo’lib qoladi.

10. Bart D. Ehrman, *Isoning so’zlarini noto’g’ri iqtibos qilish: Muqaddas Kitobni kim va nima uchun o’zgartirgani haqidagi hikoya* (San Fransisko: Harper San Fransisko, 2005) 89-bet; [Ingliz tili: Bart D. Ehrman, *Misquoting Jesus: The Story Behind Who Changed the Bible and Why* (San Francisco: Harper San Francisco, 2005), 89].

3. Mazkur yigirma besh ming qo'lyozma variantlari butun matn davomida uchramaydi; aksincha ular odatda matnning bir xil joylarida "to'plangan" holda keladi. Yangi Ahdda bunday savollarni yuzaga keltiradigan joylar hayratli tarzda juda kamdir.¹¹

Aslida, tushunib bo'lmaydigan darajadagi ulkan farqga ega bo'lgan baxtsiz nusxalarni ko'rmaysiz. Umuman bunday narsa yo'q. Aksincha, asrlar davomida Yangi Ahdning ko'plab qismlari hayratlanarli ravishda izchil uzatilgani (ya'ni nusxalarni ishlab chiqarish) va shu bilan birga asl mazmuniga nisbatan turli farqlarga sabab bo'lgan bir nechta joyni ko'rasiz.

Qisqa qilib aytganda, nusxa ko'chiruvchilar juda yaxshi ishlagan.

JUMBOQNI YECHAMIZ

Bu yerda yana bir muhim savolni muhokama qilish kerak: haqiqatdan ham aynan farq qiladigan joylarning borligi asl hujjatning mazmunini tiklashga yordam beradi. Nimani nazarda tutayotganimni hozir tushuntirib beraman.

Avvalgi mazmunni matn asosi yordamida tiklash jumboqni yechishga o'xshab ketadi. Mazkur jarayonning asosida quyidagi taxminni ko'rish mumkin: qarama-qarshiliklar bo'lgani sabab, nafaqat nusxa ko'chiruvchining matn nusxasi o'zgartirildi, balki u *nima uchun* bu ishga qo'l urganini tushunishimiz mumkin. Nusxa ko'chiruvchilar turli sabablarga ko'ra matnni o'zgartirgan. Ba'zan bu tasodifan

11. Bu masala Blombergda batafsil ko'rib chiqilgan: Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi?*, 13-28-betlar; [ingliz tili: Craig L. Blomberg, *Can We Still Believe the Bible?*, 13–28].

bo'lgan. Misol uchun, *bir-biriga o'g'shah harflarni adashtirishgan; bir so'zni boshqa o'g'shah so'z bilan almashtirishgan; so'zlarni qoldirib ketishgan; so'zlarni takror ishlatishgan yoki yoki harflarni ikki marta yozishgan; bir necha satrdan keyin qaytarilishi kerak bo'lgan matn bir qismini tashlab ketishgan.* (Yuqoridagi jumlaning yana bir bor o'qing; hech qanday g'alati holat sezilmadimi?)

Lekin o'zgarishlarni atayin qilgan payt ham bo'lgan. Misol uchun, nusxa ko'chiruvchi so'z yoki ism noto'g'ri yozilganini ko'rganida, uni to'g'rilab yozishga qaror qilgan; biron-bir matn boshqasi bilan mos kelishi uchun qaysidir parchadagi so'zni o'zgartirgan yoki o'zaro bog'lanmagani uchun o'rniga boshqa so'z qo'ygan; kitobxon aynan nimani tushunishi kerakligini tushuntirish maqsadida matnga qo'shimcha qilgan.

Mana shu yerda xursandchilik boshlanadi. Nusxa ko'chiruvchi mazkur nusxaga u yoki bu o'zgarishni *nimaga* kiritganini aniqlab, o'zgarishdan oldin asl qo'lyozmada nima bo'lganini bilish mumkin. Mana juda oddiy bir misol: tasavvur qiling sizda yo'qolgan qo'lyozmaning nusxasi bor va u yerda shunday yozilgan: "Qizil atingul, ko'k binafsha." Asl qo'lyozmani qayta yozish vaqtida nima bo'lganini tushunish unchalik qiyin emas, to'g'rimi? Agar asl muallifning aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqib, uni "qizil atingul" kabi noma'lum so'zlarni yozmagan deb hisoblasak, unda nusxa ko'chiruvchi "atingul" so'zini noto'g'ri yozgan deb aytishimiz mumkin. Ya'ni dastlab: "Qizil atingul, ko'k binafsha" deb yozilgan.

Endi biroz murakkabroq bo'lgan misollarni keltiramiz. Aytaylik, bizda uzoq vaqtdan beri o'zining asl qo'lyozmaligini yo'qotgan ikkita nusxaning parchalari bor. Nusxalarning birida (uni A parchasi deb nomlaymiz) shunday yozilgan:

Hozir fuqarolar urushining katta sinovidan o'tmoqdamiz. Biz bu yerning bir qismini muqaddas qilish maqsadida keldik – mazkur xalqning hayoti uchun kim hayot bergan bo'lsa bu oxirgi panohtir.

Boshqa bir nusxada (B parchasida) shunday yozilgan:

Hozir bu xalq yoki tug'ilishi va chaqiruvi bilan unga o'xshagan boshqa xalq tura olish qobiliyatiga qodirligini hal qiluvchi fuqarolar urushining katta sinovidan o'tmoqdamiz. Ushbu urushning qizg'in jang bo'lgan joyiga to'plandik. Biz bu yerning bir qismini muqaddas qilish maqsadida keldik – mazkur xalq hayoti uchun kim hayotini bergan bo'lsa bu oxirgi panohtir.

Birinchi o'rinda qanday farq haqida gap ketayotganini aniqlaymiz. Bu yerda ikkita farq bor. Qayta o'qib chiqing.

A parchaning juda qisqaligi darrov ko'zga tashlanadi. Unda butun bir parcha tashlab ketilgan: “. . . bu xalq yoki tug'ilishi va chaqiruvi bilan unga o'xshagan boshqa xalq tura olish qobiliyatiga qodirligini hal qiluvchi . . . Ushbu urushning qizg'in jang bo'lgan joyiga to'plandik.” Bundan tashqari mazkur ikki parchaning oxirgi jumlasida katta farq bor. Aslida qanday yozilgan? “Bu xalqning hayoti uchun kim hayot berdimi” yoki “odamlar hayoti uchun kim hayot berdimi”?

Keling birinchi farqni “ushbu urushning qizg'in jang bo'lgan joyiga” deb yozilgan va qolib ketgan jumladan boshlaymiz. Nusxa ko'chiruvchi asl qo'lyozmaga bu so'zlarni *qo'shgani haqida* jiddiy asos bormi? Bunday ish qilishning nima keragi bor, unday bo'lmasa

kerak deb o'ylayman. Unday bo'lmasa, mazkur so'zlarni nega *tushurib qoldirganini* qanday izohlash mumkin? To'g'ri. "Urush" so'zi B parchada ikki marta takrorlangan. Aynan A parchasida tushib qolgan jumla ushbu ikkita bir xil so'z o'rtasida joylashgan. Agar asl qo'lyozmada "urush" so'zi ikki marta (ayniqsa, har ikki holatda ham, ya'ni chiziqning boshi va oxirida bo'lsa) uchrasa, unda yozuvchining fikri tasodifan bir so'zdan boshqasiga o'tishi tabiiy holat. Bu holat qanday qilib beparvo tarzda mazkur jumla tushib qolganini tushuntirib beradi. Ushbu mantiqqa asoslangan holda matnning uzunrog'i, ya'ni B parchasi asl qo'lyozmaga mos deb ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Ikkinchi farq haqida nima deyish mumkin? Nusxa ko'chiruvchi "Bu xalqning hayoti uchun kim hayot berdi" jumlasini "odamlar hayoti uchun kim hayot berdi" jumlasiga o'zgartirishiga sabab bormi? Ehtimol yo'q. Ammo shunday bo'lgan taqdirda ham "bu xalq" iborasi ortiqcha. Shuning uchun nusxa ko'chiruvchi muvaffaqiyatsiz iborani tuzatishga qaror qilgan bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, asl qo'lyozma qabul qilishga oson bo'lgan A parcha qismidir.

Shunday qilib quyidagi xulosaga keldik, B parchasi asl qo'lyozmaning mazmunidagi birinchi farqni ko'rsatadi (nusxa ko'chiruvchi birinchi va ikkinchi parchalar orasidagi "urush" so'zini unutib qoldirgan), A parchasi bo'lsa, asl qo'lyozmaning mazmunidagi ikkinchi farqni ko'rsatadi (bu yerda nusxa ko'chiruvchi dastlab aytilgan so'zlarni tuzatmagan). Shu tarzda, biz tomondan qayta tiklangan asl qo'lyozma quyidagicha jaranglaydi:

Hozir bu xalq yoki tug'ilishi va chaqiruvi bilan unga o'xshagan boshqa xalq tura olish qobiliyatiga qodirligini hal qiluvchi fuqarolar urushining katta sinovidan o'tmoqdamiz. Ushbu

urushning qizg'in jang bo'lgan joyiga to'plandik. Biz bu yerning bir qismini muqaddas qilish maqsadida keldik – mazkur xalqning hayoti uchun kim hayot bergan bo'lsa bu oxirgi panohdir.

Ko'ryapsizmi? *Nimaga* nusxa ko'chiruvchi matnga ba'zi o'zgartirishlar kiritgani haqida o'ylaganimizda, *eng oxirgi variant bizdagi har bir parchaning ko'rinishidan farq qilishiga qaramay*, asl qo'lyozmada aytilgan so'zlarga xulosa qila olishimiz mumkin. Ajoyib, to'g'rimi?

Olimlar asrlar mobaynida bizga tanish bo'lgan Yangi Ahd qo'lyozmalarini aynan mana shunday yo'l bilan o'rganib kelmoqda. Albatta ularning oldidagi jumboq bizning oddiy misollarimizdan ancha murakkab, lekin siz gapning mohiyatini tushundingiz deb umid qilaman. Qadimgi qo'lyozmalarni taqqoslab, nusxa ko'chiruvchining o'zgarishlar kiritgani yoki ba'zi xatolarga yo'l qo'ygani haqida yaxshilab o'ylasak, aslida olimlar bu harakat orqali asl qo'lyozmada qanday ekanini aniqlashga yordam beradi. Bu folbinlik va sehrgarlik emas. Shu bilan birga taxmin yoki "barmoqni so'rish" ham emas. Bu deduktiv usulni mohirona qo'llashdir.

Buni Yangi Ahddagi misol yordamida aniq qilib tushuntirish mumkin. Qo'lyozmalardagi Matto 5:22 da farqni ko'rsa bo'ladi:

Lekin Men sizga aytaman: kimki birodariga g'azablansa, javobgarlikka tortiladi (Kass.).

yoki

Lekin Men sizga aytaman: kimki birodariga *behuda* g'azablansa, javobgarlikka tortiladi.

Sabab va farqni aniq ko'rish mumkin. Isoning nasihatlarini oson qabul qilinishi uchun nusxa ko'chiruvchi "behuda" so'zini qoldirib ketgani rostmi? Bunday bo'lishi mumkin emas. Ehtimol nusxa ko'chiruvchi birodarining g'azablangani javobgarlikka tortilishi yoqmagani sabab, Isoga "yordamlashish" maqsadida "behuda" so'zini qo'shib qo'ygandir. Aslida asl qo'lyozmada mazkur so'z bo'lmagan, qabul qilinishi murakkabroq bo'lgan qo'lyozma yaqindir. Shu sabab boshqa ko'p tarjimalarda bu so'z yo'q bo'lib, u faqat eslatmalarda beriladi.

ULAR NIMA YOZGANINI BILAMIZ

Ushbu masalani yakunlashdan oldin, yana bir nechta fikrlarni aytib o'tishimiz kerak. Birinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, bizda mavjud bo'lgan qo'lyozma nusxalaridagi matn variantlarining aksariyati dramatik va qiziqarli emas. Ular birlik yoki ko'plik olmoshlari, gap tartibi, istak yoki xabar mayllari, o'tgan tugallangan va tugallanmagan zamon va hokazolar bilan bog'liq. Juda zerikarli! Bularning aksariyati Muqaddas Kitobni tushunishimizga ta'sir ko'rsatadigan hech narsani o'z ichiga olmaydi.

Ikkinchidan, masihiy tadqiqotchilar eng muhim variantlarni biz ushbu bobda biz amalga oshirganimiz kabi ularning tahlillari bilan birga hujjatlashtirishga juda ehtiyotkor bo'lishgan, va ma'lum bir kitoblarda buni amalga oshirishgan, siz ularni, agar xohlasangiz, sotib olishingiz mumkin. To'g'ri, siz olimlarning har qaysi xulosasi bilan rozi bo'lmasligingiz mumkin. Masahiylar bu kabi narsalar haqida, ishonasizmi yo'qmi, doim bahslashib mazza qiladilar. Lekin asosiy ma'no shuki: takror aytaman, bu yerda hech qanday fitna yo'q va hech kim kimnidir aldamoqchi emas. Qo'lyozmalardagi variantlar

haqida gap ketganda masihiylar buni ochiq tarzda gapiradilar, chunki biz masihiylar ishonamizki, ushbu variantlar (va birinchi navbatda ularning mavjud bo'lishining sabablari), Yangi Ahdning asl qo'lyozmalarida aslida nima deb yozilganini yuqori darajadagi ehtimolikka aniqlashga bizga yordam beradi.

Nihoyat, tarjima masalasida bo'lgani kabi haqiqiy masihiylikning bironta ta'limoti Muqaddas Kitobga oid bo'lgan matnning bahsli qismiga tayanmasligini yana bir bor ta'kidlamoqchiman. Mana shunday bahsli joylarda chindan ham qiziqarli narsaning o'zi yo'q, bo'lgan taqdirda ham xuddi shu ta'limotlar Muqaddas Kitobning boshqa *munozarali bo'lmagan* qismlarida bayon etilgan.

Tushunyapsizmi? Bizni asl qo'lyozmalarining haqiqiy mazmunini bila olishmaydi, degan gap mutlaqo yolg'on. Asl qo'lyozma va eng qadimgi nusxalar orasidagi vaqt farqi umuman olganda unchalik katta emas. Ko'plab saqlanib qolgan nusxalar soni asl qo'lyozmalarining mazmunini bilishimizga *to'sqinlik qilmay*, aksincha tarixiy ishonchlilik darajasi yuqori bo'lgan mantiqni ko'rsatib, Yuhanno, Luqo, Pavlus va boshqa Yangi Ahd mualliflari aslida nima yozganini bilishga yordam beradi.

QANDAY XULOSAGA KELDIK?

Shunday qilib, Yangi Ahdga oid hujjatlarning tarixiy to'g'ri ekanligi haqidagi tadqiqotimizda quyidagi fikrga keldik. Birinchidan, bizning tarjimalar aniq va to'g'ri ekaniga ishonsak bo'ladi. Ikkinchidan, ushbu hujjatlarni haqiqatdan ham mualliflar yozganiga ishonsak bo'ladi.

Muqaddas Kitobni to'g'ri tarjima qilishganmi? Ha.

Uning mazmunini bizga to'g'ri yetkazishganmi? Ha

Lekin biz hali tugatmadik. Tarjimalar to'g'ri ekaniga ishonchimiz

komil, mualliflar nima yozganini bilish ehtimoli yuqori bo'lishiga qaramay, to'g'ri tanlangan hujjatlarni o'rganayotganimizni ishonch bilan tasdiqlay olamizmi?

Boshqacha qilib aytganda, *aynan shu* hujjatlarni o'rganishimiz kerak degan bizdagi ishonch qayerdan?

4

BIZ O'SHA KITOBLARNI O'QISHYAPMIZMI?

Den Braunning “Da Vinchi kodi” kitobini katta zavq bilan o’qiganman. Ajoyib tarzda o’tkir syujetli roman bo’lgani uchun o’qish juda qiziqarli bo’lgan. Qahramonlar qay tarzda jumboq ortidagi jumboqning yechimini topishi va butun Yevropa bo’ylab sayohat qilib qadimiy sirlarni oshkor qilishini yarim tungacha o’tirib o’qirdim. Birinchi nashr vaqtidan hozirgi kitob yozilgan kungacha “Da Vinchi kodi” kitobi Google xabariga ko’ra, 80 milliondan ortiq nusxada sotilgan. Bu muvaffaqiyat qisman Den Braunning hikoyani yetkazib berish qobiliyati bilan bog’liq deb o’ylayman, ammo bu bilan barchasini tushuntirib bo’lmaydi. Uning yuksak badiiy fazilatlarida kitobning yuqori darajadagi savdosi sababini izlay olmaymiz. Yo’q, “Da Vinchi kodi” kitobining tijoratdagi muvaffaqiyati har qanday muallifning orzusi hisoblanadi: mazkur roman butun dunyo bo’ylab bahs-munozaraga sabab bo’ldi.

Umuman olganda, ko’plab odamlar Braun tomonidan yozilgan shov-shuvli hikoyani jiddiy qabul qilmagan. “Da Vinchi kodi” kitobining birinchi betida shunday yozilgan: “Ushbu kitobdagi barcha qahramonlar va voqealar o’ylab topilgan, tirik yoki o’lgan odamlar bilan bo’lgan tasodif voqealar shunchaki tasodifdir”. Lekin kitobning mashhurligi undagi ba’zi g’oyalarni odamlarning ongiga kirib borishiga sabab bo’ldi va bu biz masihiylarga ham ta’sir ko’rsatdi. Bunday g’oyalardan biri bizga yaxshi ma’lum bo’lgan Muqaddas Kitob haqida bo’lib, u sun’iy ravishda yaratilgan kitob to’plami, hatto bu

dunyodagi eng kuchlilar fitnasining samarasi deb taxmin qilinadi. Bu fitna “Da Vinchi kodi” kitobida quyidagi tarzda namoyon bo’lyapti:

“Qaysi Xushxabar kitoblarini Muqaddas Kitobga kiritishni kim qaror qilgan?” – deb so’radi Sofi.

“Ana!” – dedi, Tibing ishtiyoqdan portlab. – “Mana bu masihiylikning fundamental istehzosi! Hozir biz bilgan Muqaddas Kitob, majusiy Rim imperatori Buyuk Konstantin tomonidan jamlangan.”¹²

To’g’risini aytganda hikoyaning shu joyi unchalik kelishmagan, ammo Braun ishontirmoqchi bo’lgan hodisalar Muqaddas Kitobga shubha qiluvchilar orasida allaqachon ma’lumdir. Yuzaga chiqayotgan manzara shuki, jamoat mavjudligining dastlabki uch asri davomida juda ko’plab hujjatlar butun Rim imperiyasi bo’ylab e’tibor va ta’sir uchun kurashishgan. Ularning fikriga ko’ra har bir imonlilar jamoatida Isoning haqiqiy ta’limoti aks ettirilgan hujjatlar to’plami bo’lgan. O’sha davrda masihiylik gurkuragan holatda bo’lib, unda ajoyib tarzda xilma-xillik va juda ko’plab g’oyalari hukmronlik qilardi! Bundan tashqari IV-asrning o’rtalarida bir necha nufuzli fitna-nozirlar xo’mraygan yuzlari bilan Nikeyadagi kichik bir dam olish maskanida to’planib, majusiy-himoyachi bo’lmish Konstantin ismli imperatorni qo’llab-quvvatlashga qat’iy qaror qilishadi. Ular o’zi yoqtirgan hujjatlar ro’yxatini tasdiqlab, boshqalarini qat’iyan taqiqlashgan. Ular har qanday boshqa fikrlarga qarshi kurashar va ularning tasavvurida bo’lmagan Isoga tegishli barcha hujjatlarni yo’q qilardi. Shu za’mla Yangi Ahd “kanoni” tasdiqlandi va turli g’oyalarni nurga olib boruvchi eshik, zindon eshigi singari yopildi. Dunyo zulmat ichida qoldi.

12. Den Braun, *Da Vinchi kodi* (Nyu York: Dabldey, 2003), 231-bet; [Ingliz tili: Dan Brown, *The Da Vinci Code: A Novel* (New York: Doubleday, 2003), page 231].

Albatta hozir ko'pirtirib gapiryapman, lekin ko'pchilik Muqaddas Kitobning qonun tarixini aynan shunday tasavvur qiladi deb o'ylayman. Men bilgan masihiylarning aksariyat qismi shubhalar bilan azoblangan holda, quyidagi savolni berishar edi: "Kerakli kitoblarni o'qiyotganingizga aminmisiz?"

Maqsadimiz Muqaddas Kitobning tarixiy ishonchli ekanligi haqida qat'iy xulosaga kelish bo'lgani uchun mazkur savol muhim hisoblanadi. Unday bo'lsa to'g'ri hujjatlarni o'rganayotganimizga aniq ishonch hosil qilishimiz kerak. Agar kimdir Iso haqidagi tarixiy va *ishonchli bo'lgan* boshqa kitoblarni chindan ham yo'q qilgan, yoqib yuborgan yoki boshqa qandaydir yo'l bilan kitoblar haqida sukut saqlashga harakat qilgan bo'lsa, unda Muqaddas Kitobning tarixiy aniqligiga bo'lgan ishonchimiz sezilarli darajada zaiflashib borishi shubhasiz.

Shuning uchun bu bobda, biz o'rganayotgan hujjatlar aynan shumi? – degan savolga javob berishimiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, e'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan boshqa "Xushxabarlar" (yoki ehtimol bo'lishi mumkin) bordir? Ehtimol, xuddi shu narsalarni o'rganish kerak bo'lgandir? Boshqalarini emas, balki aynan shu hujjatlarni Muqaddas Kitobga kiritish kerak degan ishonch qayerdan keldi?¹³

13. Ushbu bobni yozishda quyidagi kitoblardan foydalandim: Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi?* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); Bryus, F. F. *Muqaddas Yozuv Kanoni* (Downers Grove, IL: IVP Akademik, 1988); Hill, C. E. *Kim Xushxabarlarni tanlagan? Buyuk Xushxabar Fitnasini tekshirib ko'rish* (Oxford: Oxford University Press, 2010); Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi* (Grand Rapids, MI: Baker Akademik, 1999); [ingliz tili: Craig L. Blomberg, *Can We Still Believe the Bible?: An Evangelical Engagement with Contemporary Questions* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); F. F. Bruce, *The Canon of Scripture* (Downers Grove, IL: IVP Academic, 1988); C. E. Hill, *Who Chose the Gospels? Probing the Great Gospel Conspiracy* (Oxford: Oxford University Press, 2010); Paul D. Wegner, *The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible* (Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999)].

KANON NIMA?

Muqaddas Kitob *kanoni* deganda, masihiylar tomonidan qabul qilingan kitoblar ro'yxatini va Iso haqidagi bilimlar manbaini tushunamiz. *Kanon* so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "qoida" yoki "standart" degan ma'noni anglatadi. Nima uchun masihiylar bu so'zni o'zlarining ishonchli kitoblarida ishlatishini tushunish qiyin emas. Bu hujjatlar va faqat ular masihiylarning hayoti va ta'limotini baholashi, shakllantirishi, va kerak bo'lsa o'z hayoti hamda ta'limotini to'g'rilashga yordam beradigan *standart*dir. Albatta kanon qanday paydo bo'ldi degan savol tug'iladi. Kiritilgan kitoblarning shakllanish jarayonini hisobga olgan holda, aslida nima sodir bo'lgani haqida aniq ma'lumot olishimizning iloji bormi?

Asl maqsadimiz chindan ham Isoning tirilganini isbotlash bo'lgani uchun Eski Ahd kanoni va uning daliliga ko'p vaqt ajratmaymiz.¹⁴ Mazkur mavzuga 7-bobda e'tibor qaratamiz. Iso davrida deyarli barcha Eski Ahd kanonni tan olganini aytishning o'zi hozircha kifoya. Uning O'zi va Uning birinchi izdoshlari hech qachon Eski Ahdga nisbatan shubhaga bormagan.

Maqsadimiz uchun asosiy savol – Yangi Ahd kanonini paydo bo'lishidir. Buni juda muhim masala deb aytish mumkin, chunki Yangi Ahd hujjatlarining tarixiy ekaniga bo'lgan ishonchimiz unga qay tarzda javob berishga bog'liq. Agar Yangi Ahd kanoni aniqlikka teng da'vo qila oladigan boshqa kitoblarni taqiqlagan hokimiyatga ega odamlarning yovuz fitnasi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, unda hozirgi shakldagi

14. Eski Ahd kanoni va apokrif mavzusi bo'yicha munozaralar haqida batafsil ma'lumotni olish uchun quyidagi ikkita kitoblarga qarang: Bryus, F. F. *Muqaddas Yozuv Kanonida "Eski Ahd"*, ikkinchi qism (Downers Grove, IL: IVP Akademik, 1988); Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi* (Grand Rapids, MI: Baker Akademik, 1999); [ingliz tili: Wegner, Journey, 101–30; F. F. Bruce, "Old Testament," part 2 in *The Canon of Scripture*].

Yangi Ahdni tarixiy jihatdan ishonchli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari, o'sha kitoblarni tanlash mutlaqo o'zboshimchalik bilan qilingan bo'lsa, ya'ni bu uchun boshqa yaxshi sabablar bo'lmasa, unda mazkur kitoblar Isoning aniq va ishonchli qiyofasini beradi deb aytish qiyin. Kanonning shakllanishi qandaydir sirli bo'lganida ham u xuddi shu qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lar edi. Boshqacha qilib aytganda shaxsiy his-tuyg'udan tashqari tarixiy jihatdan ayrim kitoblarni tanlab boshqasini istisno qilish uchun yetarli asoslar bo'lmasa, unda ularni tarixiy ishonchli hujjat deb hisoblab bo'lmaydi. Qisqa qilib aytganda, Yangi Ahd hujjatlarining tarixiy jihatdan ishonchli deb hisoblashdan oldin quyidagi savolni berish kerak: boshqa kitoblarni emas, balki *aynan shu* kitoblarni o'rganishning sababi nimada?

Mazkur savolga qisqa javob beradigan bo'lsak, unda javobimiz "ha" va bunga jiddiy sabablar bor. Biroq bunday xulosaga kelish harakatni talab qiladi. Bu harakat ikki qadamdan iborat. Birinchi o'rinda, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan "Da Vinchi kodi" fikridan xalos bo'lish kerak, go'yo Yangi Ahd kanonini nufuzli nozir-fitnachilar yaratib, e'tiborga loyiq bo'lgan ko'plab hujjatlarga taqiq qo'ygan holda noinsof va nohaq yo'l tutgandek. Ikkinchi o'rinda, ilk masihiylar boshqa hujjatlarni emas, balki aynan shuni qabul qilishi uchun jiddiy asoslar bormi? Agar boshqa hujjatlar taqiqlanmagan bo'lsa, birinchi jamoat jiddiy asoslarga suyangan holda hujjatlarni qabul qilgan bo'lsa, unda kerakli kitoblarni o'qiyotganimizni ishonch bilan ayta olamiz.

XUSHXABARLARNING KO'PLAB TURLARI?

Boshqa hujjatlarni taqiqlash maqsadida til biriktirish bo'lgan yoki bo'lmaganidan boshlaymiz. Nima bo'lishidan qat'iy nazar bu fikr bema'ni bo'lib tuyuladi, sababi mana nimada.

Birinchiidan, ilk jamoat butunlay boshqa e'tiqoddagi kitoblarga sho'ng'igan deyish noto'g'ri. Jamoat mazkur muammoni hal qilish uchun (ba'zan buni rangli tarzda tasvirlaydi) faqat sevimli kitoblarni qoldirib, qolgan ajoyib kitoblarni o'rmondagi daraxtlarni kesib tashlagandek yo'q qilmadi. Ilk masihiylarda bu kabi turli e'tiqodlar bo'lmagan. Aslida I asrga taalluqli bo'lgan *yagona* masihiy asar oxir-oqibat Yangi Ahd tarkibiga kirdi. Bundan tashqari: II-asrning birinchi yarmida yozilgan quyidagi kitoblar bir qator o'qituvchilar tomonidan yozilgan bo'lib, biz ularni havoriy erlar deb ataymiz. Bu odamlar Yangi Ahdda bayon etilgan ta'limot bilan hayratlanarli darajada bir bo'lgan. Faqat II-asrning oxirida, Yangi Ahdga kiritilgan kitoblardan keyin yuz yil o'tib, avval bayon etilgan ta'limotdan sezilarli darajada farq qiluvchi hujjatlar paydo bo'lgan. Hatto sal keyinroq bajarilgan ishlarda ham ularning mualliflari avvalgi kitoblar haqida bilishgan. Binobarin, ular kuchli va mustahkam an'analarga qarshi bo'lgan.

Bu nima haqida gapiradi? Masihiylik tarixining dastlabki ikki asrida "Xushxabarlar" va boshqa kitoblarning nihoyatda ko'pligi va bu kitoblardan xohlaganini tanlab olishi mumkinligi haqidagi g'oya yolg'on. Yangi Ahd kitoblari bo'lgan, keyin yuz yil o'tib boshqalar – Yangi Ahd ta'limotiga shubha tug'dirishga uringan boshqa mualliflar paydo bo'lgan.

Ikkinchiidan, fitnaning barcha nazariyalari mazkur g'oyadan tashkil topgan – gurkirab ketgan xilma-xillik, bir necha asrlar davomida kitoblarning nihoyatda ko'payib ketgani, bu holat IV-asrga qadar nozirlar man etmagunga qadar davom etdi. Biroq jamoat Yangi Ahd kitoblarini ishonchli ekanini fitna nazariyasiga ruxsat berilishidan ancha oldin tan olgan ko'rinadi. Odatda shubha qiluvchilar IV-asrgacha kanon yig'ilish yoki nozirlar tomonidan

tasdiqlanmaguncha, hech qanday kanon bo'lmagan deb ta'kidlaydilar. Jamoat IV-asrga qadar bir nechta Yangi Ahd hujjatlarini ishonchli ekanligi haqida bahslashayotgan bo'lsa-da, bugungi kunda Yangi Ahdga kiritilgan kitoblarning aksariyat qismi II-asrning oxirida masihiylar tomonidan keng e'tirof etilganini tarixda ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu kitoblarning aksariyat qismi (jumladan, Havoriy Pavlusning ko'p maktublari) *I-asrning* oxirida ishonchli deb tan olingan.

To'rtta Xushxabarga keladigan bo'lsak – Matto, Mark, Luqo va Yuhanno Xushxabarlarini jamoat IV-asrdan ancha oldin, ularning ishonchli ekanini tan olgani haqida jiddiy asoslarimiz bor. Bu nuqtai nazarning himoyachilaridan biri – nozir Ireney Lionskiydir. U 180-yilda dunyoda to'rt asosiy shamol va to'rt tomon bo'lgani uchun Xudo jamoatga to'rtta Xushxabarni berishni lozim topdi deb yozgan. Ko'p yillar mobaynida ba'zilar Irineyning bu fikrini mazax qilib keldi. Ularning fikri shunday edi: to'rtta shamol bor bo'lgani uchun to'rtta Xushxabar bo'lishi kerak deb faqat ahmoq ayta oladi. Bunday bema'nilikka qanday ishonish mumkin? Xulosa qilishga shoshilmang. Iriney *mantiqiy* dalillarni keltirishga harakat qilmagan. U shubha qiluvchilarni *ishontirmoqchi* emas. Uning so'zlari – estetik usul bo'lib, bu bilan masihiylarda to'rtta Xushxabarning borligi qanchalik yaxshi ekanini aytmoqchi. Mazkur so'zlar birinchi navbatda *allaqachon ishonib*, faqat tasdiqqa muhtoj bo'lganlar uchundir. Bu tarixiy dalilni bildiradi. Iriney buni shubha qiluvchi odamlarni ishontirish uchun emas, balki allaqachon ishonganlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yozgan: 180-yilda hamma joyda aslida ham *to'rtta faqat to'rtta Xushxabar* borligini tan olishgan.

Lekin bu hali hammasi emas. Agar izlashni davom ettirsak apologet Jafokash Iustin [Justin Martyr] taxminan 150-yilda to'rt

Xushxabarning hokimiyatga ega ekanligini, ya'ni ishonchligini tan olishi haqida yozgani ko'ramiz. Papiy [Papias] ham aynan shu so'zlarni 110-yilda tasdiqlagan. Bundan tashqari yanada qiziqarli dalillar ham mavjud: Papiy Havoriy Yuhanning o'zi yozgan Xushxabardan tashqari yana uchta Xushxabar borligini tan olganini aytib o'tgan.¹⁵

Masala quyidagicha. Ilk masihiylik haqida boshqalar tomonidan tan olinish uchun teng kurashayotgan va to'rtinchi asrdagi bir nechta yepiskop va ma'jusiy imperator tomonidan bostirib yo'q qilinganmaguncha tarqalib borgan ko'plab xushxabar yozuvchilari va maktub mualliflari ko'pligi sifatidagi umumiy qarash shunchaki, uydurmadir. Tarixiy haqiqat Yangi Ahd hujjatlarining aksariyatini, xususan to'rtta Xushxabarni darhol ishonchli deb topishidadir. Barcha tomondan qabul qilingan kitoblarga shubha uyg'otuvchi uydurma gaplar bir necha asrlardan keyin paydo bo'lgan. Agar bu to'g'ri bo'lsa, unda Yangi Ahd kanonini aniqlash uchun muhim qadam tashlagan bo'lamiz: ba'zi kitoblarni tanlab, boshqa xuddi shunday ishonchli lekin noqulay bo'lganlarini yo'q qilish fitnasi bo'lmagan.

TANLAMAGAN BO'LSAK HAM OLDIK

Javob berish kerak bo'lgan yana bir savol bor. Yangi Ahd hujjatlarini kimningdir yomon niyati yoki yolg'oni bilan kanonlashtirilmagan bo'lsa ham, savol berishimiz kerak: ilk masihiylar aynan shu hujjatlarni kanonga kiritishi haqida asosli sabablar bo'lganmi?

15. C. E. Kim *Xushxabarlarni tanlagan? Buyuk Xushxabar fitnasini tekshirib ko'rish* (Oxford: Oxford University Press, 2010), 207-225-betlar; [ingliz tili: C. E. Hill, *Who Chose the Gospels? Probing the Great Gospel Conspiracy* (Oxford: Oxford University Press, 2010), pages 207-225].

To'xtab turing. Avvalgi satr boshini noto'g'ri ifodaladim. Ilk masihiylar *hech qachon* kanonga qo'shiladigan kitoblarni "tanlash" haqida gapirmagan. Nimaga aynan shu kitoblarni tanlagani haqidagi savol, ular uchun nimaga aynan shu ota-onani tanlagansiz degan savol bilan bir xil bo'lib jaranglagan.

Ilk masihiylar bunga butunlay boshqacha yondashgan. Kanonga kiritilgan va kiritilmagan kitoblarni birma-bir yozgan paytda, ular "biz *oldik*" va "bu kitoblar bizga *berildi*" degan iboralarni ishlatishgan. Ular kitoblarni ajratib, so'ng har biriga baho berib, qo'llari bilan ko'rsatib *tanlamagan*. Aksincha, ochiq qo'llar bilan *qabul qilishgan*.

Ko'rib turganingizdek bu yerda gap ma'no va hatto (hozircha) ruhiy jihatdan qabul qilish haqida emas, balki tarixiy jihatdan qabul qilish haqida ketyapti. Mazkur harakat kanon qanday shakllanganini tushunishimiz uchun katta ahamiyatga ega. Jamoat kanon uchun kitoblarni tanlab olgan deb hisoblaydigan bo'lsak, unda u ma'lum bir o'xshash kitoblarni tanlagan holda toza varoqdan boshlagani, keyin esa ularga baho berib qaysi biri afzal ekanini hal qilgan bo'ladi. Ammo bunga o'xshash holat hech qaysi ilk jamoatda sodir bo'lmagan. Aslida har bir jamoat – har bir avlod – toza varoqdan emas, balki oldingi avloddan *meros bo'lib qolgan* bir nechta ishonchli, ya'ni hokimiyatga ega bo'lgan kitoblardan boshlagan. Oldingi avlod undan oldingi avloddan olib, shu tarzda – havoriylarning o'zidan olingan bo'lyapti. To'g'ri, meros bo'lib qolgan kitoblar ba'zan u yoki bu darajada shubhaga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo masihiylar buni hal qilishi kerak bo'lgan. Lekin fakt bo'lib qoladi: ular *tanlash* yoki *qaror qilish* haqida gapirmagan. Ular *berilgan narsani qabul qilgani* haqida gapirgan. Bu mazmuniga nisbatan kamtarona munosabatdir. Ular tanlamadi, balki qabul qildi.

JIDDIY ASOSLAR

Shunga qaramay, ilk masihiylar nima uchun kerakli hujjatlarni ishonchli deb tan olgani haqida so'ramoqchiman. Eski an'analarga shubhalanib, u yoki bu kitob mos kelmasligini aytganlarga va shu vaqtning o'zida boshqalar buni haqiqat deb ma'qullaganlarga qanday javob berishgan? Ilk masihiylar quyidagi gapni aytishi uchun ishonchli mezonga ega bo'lganmi: "Ha, to'g'ri kitobni meros qilib olganimizga aminmiz, buning sababi mana shu" yoki "Yo'q, bu noto'g'ri kitob ekaniga aminmiz, mana nima uchun shunday deyaрман"? Nahotki ular *ko'r-ko'rona tarzda* berilgan narsalarni meros qilib olgan bo'lsa yoki kitoblarning haqiqat ekanini ko'rsatuvchi boshqa sabablar bo'lganmi?

Javob – ha, ular ma'lum bir asos va mezonga ega bo'lgan va bu mezonlarning asosiy qismi havoriylik, qadimiylik, ortodoksiallik (to'g'ri narsalarga ishonish va ta'lim berish) va tarqatishdan tashkil topgan.

Vaqtimiz bemalol, joyimiz esa yetarli darajada keng bo'lganida ilk manbalarining barchasi bilan tanishib chiqib, *nega* masihiylar jamoatda u yoki bu ishonchli kitoblarni tan olish kerakligi va aksincha tan olish kerak emasligi haqida qanday mulohaza qilganini, hamda shu tadqiqot orqali to'rt mezon (va boshqalari) qanday paydo bo'lganini bilib olar edik. Biroq vaqtimiz ham, joyimiz ham yo'q, qolaversa kitobimiz ham katta emas! Baxtimizga qadimgi hujjatlarning birida to'rtta mezondan kamida uchtasi taqdim etilgan. Mazkur hujjat Muratori kanoni (yoki Muratori parchasi) deb nomlanib, u VII-VIII-asrlarga taalluqlidir. Bu hujjat lotin tarjimasida bo'lib, aslida II asrning oxirida yunon tilida yozilgan. Uning to'liq matnini kanon mavzusiga oid bo'lgan kitobdan topishingiz mumkin (ilovaga qarang), biz bo'lsa ushbu mezonlar qanday qo'llanilishini

bir nechta jumla orqali ko'rib chiqamiz. Keling eng muhimidan boshlaymiz: havoriylik.

1-asos: Havoriylik

Havoriylik – oddiy ma'noga ega bo'lgan murakkab so'zdir. Bu hujjat havoriylardan biri yoki havoriylar bilan yaxshi tanish bo'lgan shaxs tomonidan yozilganini bildiradi. Muratoriyevning Kanonining muallifi, kitoblarning kanoniy ekanligini tasdiqlab, yana va yana aynan shu mezonga murojaat qiladi. Misol uchun: "To'rtinchi Xushxabar shogirdlardan [biriga] Yuhannoga tegishli". Luqo Xushxabarini "Havoriy Pavlusning roziligi bilan Luqoning o'zi yozgan". Shunga o'xshash jumlar bilan muallif Pavlusning maktublari haqida shunday yozadi: "Marhamatga sazovor havoriy Pavlusning o'zi nomini aytib faqat yetti jamoatga murojaat qiladi".¹⁶

Havoriylik muhim mezonlardan biri bo'lib, ilk jamoat shu mezon orqali u yoki bu kitobning kanon darajasini aniqlagan. Uning mohiyati juda oddiy va kuchli: har kim ham Iso Masih haqida kitob yozishi, hamda jamoat uni muqaddas deb tan olishi mumkin emas edi. Yo'q, bu hokimiyat darajasi Isoning o'zi havoriylar sifatida maxsus tayinlagan kishilar va havoriylarning bir nechta yaqin sheriklari uchun ajratilgan edi.

Bu yerda qiziq bir holatni ta'kidlab o'tish kerak, II-VI-asrlarda ko'p mualliflar o'z yozganlarini Muqaddas Kitob sifatida taklif qilib,

16. Jumla Muratoriyev kanonining elektron ko'rinishidan olingan: Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi* (Grand Rapids, MI: Baker Akademik, 1999) 147-bet; Stevenson, *Yangi Evseviy: Milodiy 337-yilgacha bo'lgan davrdagi jamoat tarixiga doir hujjatlar*, 137-138-bet; [ingliz tili: Quoted in Wegner, *Journey*, 147, and in J. Stevenson, ed., *A New Eusebius: Documents Illustrating the History of the Church to AD 337*, 3rd ed., rev. W. H. C. Frend (Grand Rapids, MI: Baker Academic, 2013), pages 137–38].

havoriylar yoki I-asrda yashagan Isoning izdoshlari nomidan yozgan holda jamoatni aldashga harakat qilgan! Ular nimaga bunday yo'l tutgan? Hammasi juda oddiy: o'z yozganlarini havoriylar yoki ularga yaqin bo'lgan odamlar nomidan yozmasa, bularni hech kim tan olmasligini ular yaxshi bilgan.

2-asos: Qadimiylik

Qadimiylik mezoni havoriylik mezoni bilan chambarchas bog'liq. Birinchi o'rinda kitob chindan ham havoriylikka oid yoki oid emasligini aniqlangan. Oddiy qilib aytganda, kitob havoriylik hokimiyatiga ega bo'lishi uchun I asrga tegishli va qadimiy bo'lishi kerak edi. II-asrning boshlarida barcha havoriylar vafot etgani sabab, keyinroq yozilgan kitoblar tan olinmagan. Shunday qilib, qadimiylik kanonlikni *kafolatlamagan*, lekin kitobning qadimiy ekanligi tasdiqlanmaguncha kanonga kiritishga *ruxsat berilmagan*.

Aynan shu yerda "Yermning Cho'poni" nomli kitobni Muratoriyevning kanoni rad qilyotganini ko'rish mumkin, chunki "Yerm Cho'pon haqida yaqinda, hozirgi kunda Rim shahrida yozgan . . . Shuning uchun . . . uni jamoatdagi odamlar, ko'plab payg'ambarlar va havoriylar orasida o'qib bo'lmaydi".¹⁷ Ilk masihiylar yangilarni qabul qilmaslikka qaror qilgan!

3-asos: Ortodoksiallik

Kanonga kiritish uchun uchinchi mezon: kitob Isoning o'zidan meros bo'lgan an'anaviy ta'limotni aks ettirgan haqiqatga mos kelishi

17. Jumla Muratoriyev kanonining elektron ko'rinishidan olingan: Uegner, *Matnlardan* 148-bet; Stevenson, *Yangi Evseviy: Milodiy 337-yilgacha bo'lgan davrdagi jamoat tarixiga doir hujjatlar*, 138-bet; [ingliz tili: Quoted in Wegner, *Journey*, 148, and in J. Stevenson, ed., *A New Eusebius*, page 138].

kerak bo'lgan. Dastlab ta'lim og'zaki bo'lib, u yillar davomida og'izdan og'izga uzatilgan. Biroq Xushxabarlar va maktublar yozilib, ularni hokimiyatga ega bo'lgan, ya'ni ishonchli tan olingandan keyin, kanon orqali boshqa kitoblarni solishtirish mumkin bo'lgan. Shuning uchun qaysidir kitob tan olingan ishonchli manbaga zid keladigan narsani o'rgatsa unda uni rad etishgan. Muratoriye v kanonining muallifi to'rt Xushxabar haqida shunday deydi: "Xushxabar kitoblarida turli tarzda voqealarni o'qisak ham bu masihiylarning imoniga ta'sir qilmaydi, chunki har biri [Xushxabar] bir Ruhda e'lon qilingan: tug'ilish, azoblanish, tirilish, shogirdlar bilan bo'lgan hayot va Uning ikkinchi bor kelishi".¹⁸ To'rt Xushxabar nafaqat havoriylar tomonidan yozilgan va nafaqat qadimiy, balki hammaga ma'lum haqiqatni aks ettirgani uchun ularni shubhasiz kanon deb tan olishgan.

4-usul: Tarqalish

Ilk jamoat uchun kanonni tasdiqlashda muhim bo'lgan yana bir mezon kitoblarning tarqalishi bo'lgan. Mezonning mohiyati, barcha masihiylar foydalangan va hurmatga sazovor deb bilgan ishonchli va hokimiyatga ega bo'lgan kitoblarni tan olishdan iborat bo'lgan. Agar kitob faqat bir mazhabda paydo bo'lgan yoki faqat bitta mintaqada o'qilgan bo'lsa unda u rad etilgan. Boshqa tomondan butun dunyodagi masihiylar murojaatidan so'ng, bu yoki u kitobga bo'lgan shubhalar sezilarli darajada kamaygan. Misol tariqasida Ibroniylar maktubi va Vahiy kitobini keng tarzda tarqalgani va oxir-oqibat har ikkala kitob ham kanon deb tan olinganini aytish mumkin.

18. Jumla Muratoriye v kanonining elektron ko'rinishidan olingan: Uegner, *Matnlardan* 147-bet; Stevenson, *Yangi Evseviy: Milodiy 337-yilgacha bo'lgan davrdagi jamoat tarixiga doir hujjatlar*, 137-bet; [ingliz tili: Quoted in Wegner, *Journey*, 147, and in J. Stevenson, ed., *A New Eusebius*, page 137].

BIZ O'SHA KITOBLARNI O'QIYAPMIZMI?

Qanday xulosaga keldik? Avvalo Yangi Ahd kanoni vijdotsiz fitnachilar tomonidan yarim tunda bir kitobni tanlab, boshqasini Isoga nisbatan noto'g'ri qarashda bo'lgani uchun taqiqlab tuzilmaganligiga amin bo'ldik. Aslida "boshqalar" degan ibora uzoq vaqt davomida bo'lmagan. Bu ibora yaxshi tashkil etilgan, kuchli an'analarga bo'lgan munosabat sifatida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, ilk masihiylar kanonni tuzishda faqat sirli ilhomga tayanmaganiga, o'zboshimchalik bilan ish tutmaganiga, hamda ishonuvchanlik hissi bilan boshqarilmaganiga amin bo'ldik. Bunday bo'lmagan. Boshqa kitoblar emas, balki aynan shu kitoblar Isoning hayoti va ta'limotini yaxshiroq yetkazib berishini ko'rsatuvchi ishonchli va hatto tarixiy ma'noga ega bo'lgan asoslarga ega bo'lgan: ular havoriylar (shu bilan birga qadimiy) tomonidan yozilgan bo'lib, avloddan-avlodga uzatilgani haqidagi haqiqat rost. Butun dunyodagi masihiylar bu kitoblarni hurmat bilan qabul qilib, uni hokimiyatga ega deb hisoblaydi.

Shuning uchun Muqaddas Kitobdagi Yangi Ahdning haqiqiyliги haqida gap ketganida shunday fikr yuritish kerak: ularning hech biri bu yerdagi mezonlarga qarshi emas. Ayrim kitoblarning tekshiruvdan o'tishi uchun ko'proq vaqt talab qilingani hech kimga sir emas, ammo jamoat har bir kitob to'liqligicha hokimiyat mezoniga javob berishini tan olgan. Mazkur mezonlarga asoslanish Yangi Ahd kitoblaridan *hech birini kanondan chiqarmaslikni* anglatadi. Ularning barchasi qadimiy, barchasi havoriylar yoki ularga yaqin bo'lgan odamlar tomonidan yozilgan, barchasi meros bo'lib qolgan haqiqatga mos va barchasi butun dunyo tomonidan tan olingan. Bir so'z bilan aytganda, ularning barchasi Isoning hayoti va ta'limotini ishonchli dalilidir.

Bundan tashqari – ehtimol bu muhimroqdir, lekin butun davr mobaynida *kanonga mos keladigan* bitta ham hujjat bo'lmagan,

qandaydir sabablarga ko'ra unga aloqador bo'lmaganini nazarda tutyapman. To'g'ri, birinchi asrdagi ba'zi kitoblar odamlarni hayratlantirgan, shuning uchun ularning har birini yetarli darajada qadimiy bo'lmagani, yetarlicha havoriylikka mos emasligi, tan olingan ta'limotga mos kelmasligi yoki keng tarzda qabul qilinmaganligini tan olishgan. Bu mezonlarning boshqa birikmalari ham bo'lishi mumkin. Misol tariqasida "Yermning Cho'poni" qadimiy mezonga va shu bilan birga havoriylikka mos kelmasligini ko'rdik. Yerm havoriy bo'lmagani va havoriylik doirasiga tegishli bo'lmagani uchun ilk masihiylar uning ishi ishonchli kanonning bir qismi bo'lolmaydi degan xulosaga kelgan. "Petrus bayon etgan Xushxabar" boshqa ayrim kitoblar singari ikki mezonga javob bermaydi. Birinchidan, u yerda go'yo Iso yashirincha ta'lim bergani va Uning mazkur nasihati ochiq aytilgan so'zlarga zid ekanini ko'rish mumkin. Shunday qilib bu "xushxabar" ortodoksiialikka dosh berolmagan. Ikkinchidan, uni faqat butun dunyo bo'ylab tarqalgan alohida jamoatlar tan olgani uchun u yana tarqalish sinoviga ham dosh berolmagan. Lekin eng mashhur misol bu "Tomas bayon etgan Xushxabar" hisoblanadi. Ushbu xushxabar faqatgina II-asrda yozilgani uchun rad etilmagan (bu mazkur Xushxabarni havoriy Tomas yozmaganini bildiradi, chunki bu vaqtda Tomas vafot etgan), balki u yerdagi g'oyalar barchaga begona bo'lib, Iso ta'limotiga zid kelgani uchun rad etilgan.

Keling bu savolga boshqacha yondashamiz: agar sizda Yangi Ahd kanonini toza varaqdan tuzish imkoni bo'lganida, ishonish kerak bo'lgan va aksincha ishonish kerak bo'lmagan qadimiy hujjatlarni qanday mezonlarga asoslanib tanlagan bo'lar edingiz? Quyida keltirilgan mezonlardan yaxshirog'ini taklif qila olasizmi, shu haqda o'ylab ko'ring?

Ishonchli kitoblar deb quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Isoga yaqin bo'lganlar tomonidan yozib tasdiqlagan (qadimiylik va havoriylik);
- 2) biz bilgan Iso Masihning ta'limotidan farq qilmaydigan (ortodoksiallik);
- 3) mazhab tomonidan tuzilmagan va faqat bitta mintaqada tan olinmagan, ammo ko'plab masihiylar tomonidan keng qo'llanilgan (tarqalish).

To'g'ri, eng yaxshi mezonlarni tanlash juda qiyin.

Shunday bo'lsa-da, Yangi Ahdning qaysi kitoblarini o'z kanoningizdan chiqarib tashlagan bo'lar edingiz? Bu masihiylik ta'limotini qay darajada o'zgartirdi? Boshqacha tarzda so'rayman: sizningcha *boshqa yana qaysi kitoblar* kanonga kiritilishi kerak? "Yermning Cho'poni" kanonini ilk masihiylar Isoning o'limidan bir necha asrdan keyin no'malum shaxs tomonidan yozilgan deb hisoblashsa ham siz bu kanonni ma'qullar edingizmi? "Petrus bayon etgan Xushxabar" Petrus tomonidan yozilmagan bo'lsa ham, siz uni kanonga kiritgan bo'larmidingiz? Bundan tashqari, muallif Isoning hech kim eshitmagan ba'zi nasihatlarini masihiylikka olib kelishga harakat qilgan. Tomas tomonidan yozilmagan "Tomas bayon etgan Xushxabarga" nima deysiz? Agar shunday bo'lsa kanonga quyidagilarni qo'shishga to'g'ri kelar edi:

"Shimo'n Petrus ularga dedi: "Maryam bizni tark etsin chunki ayollar hayotda yashashga loyiq emas." Iso shunday degan: "mana men uni erkakka aylantirib yuboryapman, toki uning ruhi siz erkaklarga o'xshab tirik bo'lsin. Chunki har bir erkak bo'lgan ayol osmon shohligiga kiradi.""¹⁹

19. *Tomas bayon etgan Xushxabar*, 114-fikr; jumla elektron ko'rinishda; [ingliz tili: *The Gospel of Thomas*, saying 114; English translation quoted in Blomberg, *Can We Still Believe the Bible?*, 73].

Ha jiddiy aytyapman, u yerda shunday yozilgan. Agar mazkur savolga vijdonan yondoshadigan bo'lsak, ilk jamoat tuzgan ishonchli hujjatlardan yaxshiroq to'plamni yig'a olmagan bo'lar edik deb o'ylayman.

Ilk masihiylar chindan ham Iso gapirgan va bajargan voqealar hujjatlarini ishonchli deb hisoblash bo'yicha yaxshi ish olib borgan ko'rinadi. Bir tomondan, ba'zi bir *boshqa* mutlaqo ajoyib tarzdagi hujjatlarni yo'q qilish uchun siyosiy fitna yo'qdek bo'lib ko'rinadi. Boshqa tomondan, ilk masihiylar hujjatlarning ishonchlilik darajasini talab qilishi, hujjatlarning juda ishonchli ekanini ko'rsatadi.

Agar haqiqatdan ham shunday bo'lsa, bizda boshqa hujjatlar borligidan va qayerdadir yana boshqa hujjatlarda Isoning timsoli Yangi Ahdga qaraganda *yaxshiroq* aks ettirilganidan qo'rqmasligimiz kerak. Bundan tashqari kitoblarimiz *eng qadimiy va eng ishonchli* ekaniga amin bo'lishimiz mumkin.

Mazkur hujjatlarning mualliflari bilganini aniq tarzda yetkazishga harakat qilgani maqsadimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Lekin unday bo'lmasachi?

5

SIZGA ISHONSAM BO'LADIMI?

Ko'cha odamlar bilan to'la. Shahardagi shovqin xuddi yangi yil kirib kelganini eslatadi. Bir daqiqa . . . Hozir dushman Peliseydsdan ko'rinyapti. Beshta – beshta ulkan mashina. Birinchisi daryoni kesib o'tyapti. Men uni shu yerdan ko'ryapman . . . Menda ma'lumot bor . . . Butun mamlakat bo'ylab mars silindrlari qo'ndi. Biri Buffalo atrofiga, boshqasi Chikagoga, yana biri Sent-Luisga . . . Ular vaqtni va qo'nish joyini hisoblab chiqqanga o'xshaydi . . . Birinchi mashina qirg'oqqa yetib bordi. Shaharni ko'zdan kechirmoqda . . . Qolganlarni kutyapti. G'arbda ular go'yo yangi minoralar kabi o'syapti . . . Ular metalli qo'llarini ko'tardi. *Tamom*. Atrofdagi barcha narsalar tutun ichida . . . butun shahar qora tutun ichida qoldi. Ko'chalarda odamlar! Sharq Daryosi tomon minglab odamlar kalamush kabi yugurmoqda! Tutun borgan sari tez tarqalib, Tayms-skverga yetib bordi. Hamma qochishga harakat qilyapti, lekin bu foydasiz. Odamlar pashsha kabi yiqilyapti! Tutun Oltinchi avenyuni . . . Beshinchi avenyuni ham qamrab oldi . . . tutun mendan yuz metr . . . yigirma metr nariroqda. . . [Nafas siqadigan yo'tal ovozi, kurash ovozi va sukut. Keyin shovqin ortidan ovoz eshitildi:] 2X2L barchani chaqiradi, 2X2L barchani chaqiradi . . . Nyu-York? Efirda kimdir bormi? Efirda kimdir bormi? Kimdir bormi? . . .”²⁰

20. “Omlar urushi” radio eshittirishidagi asl matn; [ingliz tili: “The War of the Worlds,” Internet Sacred Text Archive, accessed May 26, 2015, <http://www.sacred-texts.com/ufo/mars/wow.htm>].

1938-yil 30-oktyabrning yakshanba kunida, taxminan soat 20:15 da, Amerikadagi barcha odamlar “Si-bi-es” – “Kolombiya brodkasting sistem”dagi yangiliklarni eshitish maqsadida radioni yoqishadi. Bir necha daqiqadan so’ng Nyu-Yorkda bo’lgan radioning prodyuseri telefon qo’ng’irog’ini qabul qiladi: shaharlardan birining hokimi g’azablangan holda efir orqali uzatilayotgan eshittirishni to’xtatishni talab qiladi, chunki ko’p odamlar ko’chaga chiqib ketgan edi. Ko’p o’tmay boshqa yangilik nashrlarining muxbirlari “Si-bi-es” ning bosh ofisini qamrab olib izoh talab qilishadi:

Keyingi bir necha soat ichida haqiqiy dahshat hukmronlik qilardi. Binoni to’satdan olomon egallab oldi. Atrofdagi odamlar to’q-ko’k rangdagi kiyimda edi . . . Nihoyat, dahshatli tafsilotlarni bilishga qiziqayotgan matbuotdagilarni kirishiga ruxsat berildi. Qanchadan-qancha o’lim haqida eshitganmiz (minglab odamlar o’lganini ular biladi deb nazarda tutilgan edi)? Nyu-Jersi zaldagi halokatli sur-sur haqida nima bilasiz (bu yagona sur-sur emasligi nazarda tutilgan edi)? Halokatli yo’l harakati hodisalari haqida nima bilasiz (go’yo barcha yo’llar jasadlar bilan to’lib ketgandek)? O’z joniga qasd qilish haqida nima deysiz (Riversayd-drayvda joniga qasd qilganlar haqida eshitmaganmisiz?)? Bularning barchasi haqida menda juda dahshatli xotiralar qolgan.²¹

21. Jon Hausman, *Yugurib o’tish: Memuar*, (Nyu York: Simon va Schuster, 1972), 404-bet; [ingliz tili: John Houseman, *Run Through: A Memoir* (New York: Simon & Schuster, 1972), page 404].

Ma'lum bo'lishicha o'sha tunda hech qanday o'lim holati – na sur-sur yoki na o'z joniga qasd qilish, na avtohalokat yuz bermagan. Marsliklardan ham hech kim zarar ko'rmagan. Ko'plab odamlarni vahimaga solgan “Yangiliklar xizmati”, aslida Gerbert Uellsning “Omlar urushi” romani ekan.

Radio eshittirish tufayli bunday vahimaning nima uchun boshlangani haligacha noma'lum, chunki bunday eshittirishlar oldin ham bo'lgan. “Omlar urushining” o'zi “Merkyuri teatri efirda” nomli siklning bir qismi bo'lgan. Ammo o'sha holatda vaziyatlar birlashishi sodir bo'ldi: Germaniya bilan urush haqidagi tahdid, e'lon uchun juda kam bo'ladigan tanaffuslar, ba'zi tinglovchilar boshqa radioto'lqinda beriladigan mashhur dastur tugamagani tufayli eshittirishning boshini o'tkazib yuborgan bo'lgan. Natijada ko'p odamlar *Nyu-Yorkga chindan ham marsliklar hujum qilganiga ishongan!*

Mazkur hodisani Isoning hayotida Muqaddas Kitobga asosan sodir bo'lgan voqea bilan solishtirish qiziqarli bo'lsa kerak. Biz ham “Omlar urushi” tinglovchilari kabi xushxabarchilarning niyatini tushunmagan bo'lsak-chi? Ular bo'lib o'tgan voqeani emas, balki boshqa maqsadni nazarda tutgan holda san'at asari, afsona yoki aldashga harakat qilgan bo'lsa-chi?

Hozir quyidagilarga aniq aminmiz:

1. Bizda Muqaddas Kitob qo'lyozmalarining aniq tarjimasini mavjud.
2. Bugungi kungacha saqlanib qolgan qo'lyozmalar asl hujjatlarning mazmunini aniq aks ettiradi.
3. Biz to'g'ri va eng ishonchli hujjatlarni o'rganayapmiz.

Mana keyingi savol: Muqaddas Kitobga oid bo'lgan hujjatlarni yozgan odamlar ishonchli ekanini bilamizmi? Ular o'zlarining fikri bo'yicha sodir bo'lgan voqeani aniq tarzda yetkazishga chindan ham harakat qilganmi?²²

YO'L-YO'RIQ QIDIRAMIZ

Eng qizig'i, tinglovchilar e'tiboriga "Olamlar urushi" efirga uzatilgan paytda, bu yangiliklar emas balki san'at asari ekanligi haqida bir necha bor takrorlashgan. Bu zo'rg'a ko'rinadigan ishora bo'lmagan. Misol uchun, efirda uzatilgan ilk so'zlar quyidagicha jaranglagan: «"Kolombiya brodkasting sistem" va retranslyatsiya stansiyasi namoyish etadi: Gerbert Uellsning "Olamlar urushi" asari, Orson Uells va "Merkyuri teatri efirda" ko'magi ostida efirga uzatilyapti».²³ Suxandonni marsdagi gaz bo'g'ib qo'ygandan keyin shunday so'zlar jarangladi: «Siz "Si-bi-es" ni tinglayapsiz, efirda Gerbert Uellsning "Olamlar urushi" asari, bu asar Orson Uells hamda "Merkyuri teatri efirda" tomonidan taqdim etilyapti. Qisqa tanaffusdan so'ng yana efirga qaytamiz».²⁴ Dastur to'rt marotaba e'lon sabab to'xtatildi. Shunga qaramay "Si-bi-es" dan oqshom payti yana *uch marta* marsliklar chindan ham hujum qilmaganini e'lon qilishini so'rashgan!

Shu oqshom sharq vaqti bilan soat 20:00 dan 21:00 ga qadar bizning radioto'lqinni eshitgan tinglovchilar diqqatiga! Mazkur vaqt davomida Orson Uells va "Merkyuri teatri

22. Ushbu bobni yozishda quyidagi kitobdan foydalandim: Blomberg, Kreig L. *Xushxabarlarning tarixiy jihatdan ishonchliligi* (Downers Grove, IL: IVP Akademik, 2007); [ingliz tili: For this chapter, I have relied especially on Craig L. Blomberg, *The Historical Reliability of the Gospels*, 2nd ed. (Downers Grove, IL: IVP Academic, 2007)].

23, "Olamlar urushi" radio eshittirishidagi asl matn.

24, "Olamlar urushi" radio eshittirishidagi asl matn.

efirda” tomonidan Gerbert Uellsning “Omlar urushi” asari e’tiboringizga havola etildi. Eshittirish vaqtida to’rt marta aytilganiga qaramay, yana qaytaramiz: to’g’ri boshqa roman va spektakldagi kabi bu yerda ham ba’zi Amerikadagi shaharlarning nomi aytilgan, ammo barcha aytib o’tilgan voqealar o’ylab topilgan.²⁵

Bu bayonotni tayyorlagan “Si-bi-es” jahli chiqqan holda e’tiborli bo’lishni talab qildi! Odamlar eshittirish orqali aytilgan ko’rsatmalarga, ya’ni voqealar o’ylab topilganiga e’tibor berishi kerak edi. Chunki ularga hammasi tushuntirib o’tilgandi!

Endi savolimizga qaytamiz. Aniqlashimiz kerak bo’lgan narsa: Muqaddas Kitobda shunga o’xshash yo’l-yo’riqlar bormi? Unda faqat tarixiy voqea, badiiy uydirma yoki afsonani ko’rmaslik uchun nimaga e’tibor qaratish kerak? To’g’ri, Muqaddas Kitobda qandaydir izohlar bor, ammo ular e’tiborni butunlay teskari holatga qaratadi. Bularning barchasi Muqaddas Kitob mualliflari voqeani qanday ko’rgan bo’lsa, shunday aytib berishini oldiga maqsad qilib qo’ygani haqida xulosa qilishimizga imkon beradi.

ULAR NIMA QILGAN?

Mana gap nimada. Agar siz Muqaddas Kitob mualliflari ko’rgan narsalarni aniq yetkazishdan boshqa maqsadi borligi haqida

25. Hadley Cantril, Hazel Gaudet va Gerta Herzog, *Marsdan kelgan bosqin: mashhur Orson Uells eshittirishining to’liq matni bilan Vahima psixologiyasi haqida tadqiqot*, (Princeton, NJ: Princeton University Press, 1940), 43–44-betlar; [ingliz tili: Hadley Cantril, Hazel Gaudet, and Herta Herzog, *The Invasion from Mars: A Study in the Psychology of Panic, with the Complete Script of the Famous Orson Welles Broadcast* (Princeton, NJ: Princeton University Press, 1940), pages 43–44].

aytmoqchi bo'lsangiz, unda oddiy, to'g'ri harakat bu holatni shunchaki ma'qullashni emas, balki ishonchli muqobil taklif berishni talab qiladi. Muqadas Kitob mualliflari bo'lib o'tgan voqealar haqida aniq ma'lumot berishni istamagan bo'lsa, unda ularda qanday maqsad bo'lgan? Keling shu haqda o'ylab ko'ramiz.

1. Ehtimol, Muqaddas Kitob mualliflari *tarixiy bo'lmagan* maqsadlarga ega bo'lgandir. Ular Gerbert Uells singari romanga o'xshash narsa yozgandir. Buni o'ylab topilgan voqea ekanini bilishgani uchun kimdir buni bo'lgan voqea sifatida qabul qiladi deb o'ylashmagan. Ehtimol, ular afsona o'ylab topib, ya'ni unchalik diqqatga sazovor bo'lmagan voqeani ajoyib tafsilotlar bilan bezagandir. Afsona yozadigan yozuvchilar ko'pincha ularning hikoyalari biror narsani aniq tarzda bayon qilmasligiga qaramay, bor bo'lgan narsalar yoki xalqini kelib chiqishi haqida fikrga ishonadi. Shu bilan birga ularning o'zi juda g'alati voqealarni o'ylab topganini biladi. Shubhasiz muammo shundan iboratki, vaqt o'tgandan so'ng tinglovchi va kitobxonlar har doim ham farqni ko'rmagani sabab hikoyani haqiqat deb o'ylashadi. Ehtimol, Muqaddas Kitobda biz chindan ham bo'lgan voqealarga emas, balki *o'ylab topilgan afsonaga* duch kelgandirmiz va masihiylar bu o'yin ekanini tushunmagandir.
2. Ehtimol, Muqaddas Kitob mualliflarining maqsadi *yolg'on* bo'lgan. Ulargacha va ulardan keyin bo'lganlarni ataylab barmoq atrofida aylantirib, bo'lmagan narsalarga ishonishi uchun majburlashgan. Balki bu katta firibgarlik, siyosiy fitna yoki nosog'lom ambitsiyadir.

3. Ehtimol, Muqaddas Kitob mualliflarining o'zi *adashgandir*. Shu bilan bir qatorda ularni ongli ravishda aldash shart emas. Balki ularni o'z fikri aldagandir. Balki masihiylar orasida keng tarqalgan rivoyatni buzilgan shaklda eshitgandirlar. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, mualliflar ataylab bu yolg'onni bizga yetkazgan.
4. Ehtimol, mualliflar nima o'ylagani muhim emas. Ular voqeaning aniq tafsilotlarini yetkazishni xohlasa ham biz ularning hech biriga ishonishni istamaymiz, chunki ular aytayotgan gaplarda barcha narsa *umidsiz tarzda chalkash, bir-biriga qarama-qarshi va juda ko'p xatolarga ega*.

Ehtimol, haqiqat yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatmalarning birida bo'lishi mumkin. Lekin unday bo'lmasa-chi? Ularni haqiqatga mos kelmasligiga ishonch hosil qilgan bo'lsak nima bo'ladi? Aytaylik, mualliflar san'at asari yoki afsona yaratmagan, aldashga urinmagan, ularning o'zlarini yo'ldan ozdirmaganlar va ular tomonidan yozilgan qo'lyozmalarda xato yo'q. Shunday bo'lganida, mualliflar samimiy niyatda aniq ma'lumot bermoqchi deb ta'kidlasak bo'lar edi. Keyin ishonch bilan shunday deb aytsak bo'lardi: "Yangi Ahd hujjatlari *tarixiy jihatdan ishonchli*". Bu ular aytayotgan so'zlar haqgo'y ekaniga ishonsa bo'ladi degani emas (haqgo'ylik haqida keyingi bobda gaplashamiz), agar shunday bo'lsa unda sezilarli darajada oldinga qarab harakat qilgan bo'lamiz. Muqaddas Kitobning mualliflari badiiy uydirma yoki firibgarlikni yaratishga harakat qilmagan, ular aldanmagan va ular yozgan narsada qarama-qarshiliklar yo'q, ular buning barchasi sodir bo'lganiga chin dildan ishonganini ta'kidlash yetarli.

BADIY UYDIRMA?

Birinchi variantdan boshlaymiz. Ehtimol Muqaddas Kitob mualliflari tarixiy voqeani tasvirlashni istamagan va ular yozgan narsalarga chindan ham ishonishimizni kutmagan. Bu yerdagi birinchi savol, mualliflardan biri badiiy asar yozayotgani haqida ma'lumot berganmi – “Si-bi-es” ga o'xshab bu radio eshittirish ekanligi haqida aytib o'tganmi? Javob – yo'q. Muqaddas Kitobda bunga o'xshash hech narsa yo'q. Aksincha, Muqaddas Kitob mualliflari yana va yana aniq tarzda javob beryapti. Ular bizga imkon qadar aniq gapirib, gapirgan so'zlariga o'zlari ham ishonaypti va bizni ham ishonishimizni xohlaypti.

Misol tariqasida xushxabarchi Luqo Isoning hayoti haqidagi hikoyani qanday boshlaganini ko'rish mumkin:

Bizlarning oramizda to'liq ma'lum bo'lgan voqealar haqida ko'plar bayonot tuzishni boshlaganlariday, buni eng boshidan o'z ko'zlari bilan ko'rgan va So'zning xizmatkorlari bo'lgan odamlar bizga topshirganlariday, men ham, hurmatli Teofil, boshidan hammasini sinchiklab tekshirib chiqqanimdan so'ng, bularni tartib bilan senga yozib berishni lozim topdim, toki senga o'rgatilgan ta'limotning mustahkam asosini bilib olgin (Luqo 1:1-4).

O'z maqsadini yana qanday ifodalash mumkin? Luqo “boshidan hammasini sinchiklab tekshirgan” va “tartib bilan yozgan”, toki Teofil Iso haqidagi “ta'limotning mustahkam asosini bilib olsin”. Nima bo'lganda ham Luqo hikoyani faqat o'yin-kulgu uchun yozmagan; Luqo u yozgan so'zlar haqqoniy ekaniga ishonishini istagan.

Shuningdek, Yuhanno Isoning hayoti haqida yozish niyati haqida shunday deydi:

Iso shogirdlarining huzurida bu kitobda yozilmagan boshqa yana ko'p mo'jizalarni yaratdi. Bu narsalar esa, Isoning Masih va Xudoning O'g'li ekanligiga ishonishingiz uchun yozilgan, toki bunga ishonib, Uning nomi haqi hayotga ega bo'linglar (Yuhanno 20:30-31).

Ko'ryapsizmi? Yuhanno ham badiiy uydirma bilan shug'ullanmay, odamlar "Isoning Masih ekaniga" ishonishini xohlagan. O'zi yozgan narsalarga aslida bizni ham ishontirishga harakat qilgan.

Yuhanno o'z maqsadini boshqa parchada ham ochib berganini ko'rishimiz mumkin:

Boshidan bor bo'lgan, biz eshitgan, o'z ko'zimiz bilan ko'rgan, biz sinchiklab qaragan va o'z qo'llarimiz bilan ushlab sezgan Hayot So'zi haqida sizlarga ma'lum qilmoqdamiz. Chunki Hayot zohir bo'ldi va biz uni ko'rdik. Ota bilan turib, bizga zohir bo'lgan o'sha abadiy hayot haqida sizlarga guvohlik berib xabar qilmoqdamiz. Sizlar biz bilan muloqotda bo'lishingiz uchun o'zimiz ko'rgan va eshitganlarimiz haqida sizlarga xabar bermoqdamiz. Bizning muloqotimiz esa Ota va Uning O'g'li Iso Masih bilandir (1-Yuhanno 1:1-3).

Yuhanno quyidagicha beriladigan javobni hammasidan kamroq kutgan edi: "O, Yuhanno kitobni a'lo darajada yozishini bilamiz! Uning kitoblari yaxshi sotilishi kerak!" Yo'q, u haqiqatdan ham ko'rgani, eshitgani va hatto his qilgani haqida xabar berishni xohlagan.

Uning so'zlariga qaraganda, Yuhanno uydirma yoki afsona yozmaganini, balki unga ishonishimizni haqiqatdan ham xohlaganini ko'rish mumkin.

Bu xohishlardan tashqari, Muqaddas Kitob mualliflari o'zlari yozgan so'zlarga boshqa yo'llar bilan ham ishontirishni istagan. Misol tariqasida, ishonchlilik darajasini tekshirish mumkin bo'lgan tarix voqealari va sharoitlariga tez-tez murojaat qilishganini keltirish mumkin. Yangi Ahdda bunday joylar ko'p uchraydi, biroq ulardan biri alohida e'tiborga loyiq. Luqo Xushxabarida yozilgan kichkina bir parchaga diqqatingizni qarating:

Imperator Tiberius podshohligining o'n beshinchi yilida, Yahudiyada Pontiy Pilat, Galiliyada Hirod, Ituriya bilan Traxonit viloyatlarida uning ukasi Filip, Avilina yurtida esa Lisaniy hokimlik qilayotganlarida, Hanan va Kayafa oliyruhoniyligi paytida, sahroda yashayotgan Zaxariyahning o'g'li Yahyoga Xudoning so'zi keldi (Luqo 3:1-2).

Bir tadqiqotchi Luqo faqat ikki oyatning o'zida tarixiy shaxs, joy va holatlar haqida kamida 21 marta eslab o'tganini payqagan va buning hammasini tasdiqlashni (aslida ham shunday bo'lishi kerak edi, Luqo shuning uchun buni yozgan), lekin Luqo xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa rad qilish niyatida bo'lgan!²⁶ Luqo o'zining boshqa kitobi – Havoriylar faoliyati kitobida ham tafsilotlarga e'tiborli ekanini ko'rishimiz mumkin. Yangi Ahd kitoblarining boshqa mualliflari ham tekshirish mumkin bo'lgan o'sha zamondagi hodisalarni eslab o'tgan.

26. Natan Busenitz, *Biz ishonadigan sabablar: Masihiylikni tasdiqlovchi 50 ta dalil*, (Wheaton, IL: Crossway, 2008), 127-bet; [ingliz tili: Nathan Busenitz, *Reasons We Believe: 50 Lines of Evidence That Confirm the Christian Faith* (Wheaton, IL: Crossway, 2008), page 127].

Qaytaramiz: Luqo hamda Muqaddas Kitobning boshqa mualliflari badiiy uydirma yoki afsona yozmagan. Aksincha, ular o'z hikoyalarini tarixiy haqiqatning bir qismi sifatida taqdim etishga harakat qilgan. Ular yozilgan narsalarga ishonishimizni juda xohlagan.

Ammo ular haqiqatdan ham yolg'on narsalarni yozgan bo'lib, bizni shunga ishontirmoqchi bo'lgan bo'lsa-chi?

YOLG'ONCHILAR?

Shunday qilib biz ikkinchi variantga keldik: ehtimol, Muqaddas Kitob mualliflarining maqsadi *yolg'on* bo'lgan. Ular butun dunyoni aldab keyin aslida bo'lmagan narsalarga bizni ishontirishga harakat qilgan bo'lishi mumkinmi? Ular doim haqiqatni gapirayotganini ta'kidlagan bo'lsa-da (hatto o'z hikoyalarini tarixiy asoslar bilan bog'lagan bo'lishiga qaramay), bizni ahmoq qilib, uydirma gaplarga ishontirgan holda yetaklashgan bo'lsa-chi?

To'g'ri, shunday bo'lishi mumkin. Biroq bu yerda bizning maqsadimiz *ehtimoli past bo'lgan* biron narsani aniqlash emas. Biz *haqiqatdan* ham bor bo'lgan narsaga ishonishni xohlaymiz. Agar yaxshilab fikrlaydigan bo'lsak, Muqaddas Kitob mualliflarining aldashga harakat qilgani nolga teng. Keling boshqa narsa haqida o'ylab ko'ramiz.

Birinchidan, bunday katta yolg'onni yaratish juda qiyin va hatto imkonsiz vazifa hisoblanadi. Yangi Ahddagi barcha 27 ta kitob Isoning yerdagi hayotidan bir necha yillardan keyin yozilgan. Mazkur qo'lyozmalar tarqala boshlaganida yuzlab va hatto minglab odamlar hali tirik bo'lgani uchun Isoning nima qilganini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shuning uchun Luqo bu voqealarni o'ylab topganida yoki chiroyliroq qilib aytganida boshqalar unga: "To'xta, bunday bo'lmagan edi. Luqo

sen barchasini o'zing o'ylab topgansan" – deb e'tiroz bildirishardi. Biz bunday holatlarni aniqlamadik. Masihiylikni yo'q qilishga harakat qilganlar ham Isoning so'zlari va ishlari haqida yozilgan Muqaddas Kitob mualliflarining guvohliklarini *inkor etmagani* ishonchli dalil hisoblanadi. Ular Isoni yolg'onchi va adashgan deb ayblashgan. Iso bunday gaplarni *gapirmagan* deb taxmin qilsak ham (Muqaddas Kitob mualliflari barchasini o'zi o'ylab topgan), sizni ishontirib aytaman-ki, masihiylikka qarshi bo'lgan odamlar bu haqda albatta aytgan bo'lar edi.

Ikkinchidan, gap faqat guvohlar ko'p bo'lgani uchun ularni aldash juda qiyinligida emas. Kimdir bizni chindan ham aldashga urinayotgan deb taxmin qilsak, unda bu topshiriq g'alatiroq odamga berilgan. O'zingiz o'ylab ko'ring, xushxabarchilardan ikkisi – Luqo va Mark havoriy bo'lmagan. Ular hatto Iso bilan ko'rishmagan. Luqo Pavlus bilan yaqin bo'lgani uchun safarda unga hamroh bo'lgan, lekin u hech qachon jamoatda mashhur yetakchi bo'lmagan va hech qanday hokimiyatga da'vo qilmagan. Mark Petrus va Pavlusning do'sti, hamda hamkori bo'lgan, lekin u Pavlusni Pamfiliyada qoldirib, keyin qaytib kelishni xohlaganida Pavlus uni kelishini istamay rad etgan va ular orasida "kelishmovchilik" yuzaga kelgan (Havoriylar 13:13; 15:37-41). Hatto havoriylardan biri bo'lmish Matto ham o'z xalqi uchun xoin hisoblangan, chunki u rimliklar uchun soliq yig'uvchi sifatida xizmat qilgan. Agar siz butun dunyodagi odamlarni aldashni reja qilgan bo'lsangiz, jamoaga nizo olib keluvchi qochoqni, soliqchini va taniqli bo'lmagan odamni tanlaganingizni tasavvur qilish qiyin. Bunday yo'l bilan hiyla-nayrang muvaffaqiyatga erisha olmasligi aniq.

Bu bizni uchinchi savolga olib keladi. Agar Yangi Ahd mualliflarining barcha so'zlari yolg'on bo'lsa, buni qanday maqsadda bajarishgan? Mashhurlikka intilishganmi? Boy bo'lishni xohlashganmi? Katta jamoatning nufuzli yetakchisi bo'lish istagida

bo'lganmi? Shunday bo'lsa unda barchasi muvaffaqiyatsizlikka uchraganini tan olish kerak. Havoriylarning aksariyatining hayoti o'lim bilan yakunlangan – kimnidir boshidan judo qilishgan, kimnidir xochga mixlashgan, kimnidir boshqa daxshatli o'limga topshirishgan.

Bundan tashqari, agar ular o'zini yorqin nurda ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa, yoki *masihiylik* niqobi ostida aldashga va ko'pirtirib gapirishga intilgan bo'lsa, unda ular o'z oyog'iga o'zi bolta urgan bo'ladi. Chunki yozilgan so'zlarga qarasaq, u yerdagi qahramonlar umuman qahramonga o'xshamaydi. Agar siz yangi dinni chiroyliroq qilib ko'rsatish maqsadida biror narsa o'ylab topgan bo'lsangiz, o'qituvchisi gapirganini tushunmagan kelajak yetakchilarini doimo foydasiz qilib ko'rsatishning nima keragi bor? Petrus Isoni tushunmagani sabab askarning qulog'ini kesib tashlagani haqida gapirishning nima keragi bor, oxir-oqibat u o'zining bunday harakati uchun Isodan tanbeh eshitgan? Iso haqidagi g'alati voqealarning nima keragi bor (sizlar o'ylab topgan hamma narsani biluvchi Ilohiy Odam haqida), go'yo kim kiyimiga teginganini Iso bilmagandek, ikki ayol bilan qabr oldida turganida ko'zi yoshlangan yoki anjir daraxtida meva bo'lmagani uchun uni la'natlagan?

Ha bilaman, masihiylar bu hikoyalarda chuqur ma'no bor deb aytishadi (to'g'ri, bu haqiqat), lekin har qanday voizchi bunga shunchaki yuzaki qaramaslikni, mazkur ma'noni tushunish uchun harakat qilish kerakligini aytishi darkor. Mana nima demoqchiman: agar sizda yangi dinni yaratish rejasi bo'lganida, unda siz bu dinning asoschisi va yetakchilarini ko'rsatish uchun aniq bunday voqeani o'ylab topmagan bo'lar edingiz. Mark bilan Pavlus o'rtasidagi mojaro – Mark Pavlusni tashlab ketgani, keyin qaytib kelganida uni Pavlus qabul qilmagani va bu ular o'rtasida kelishmovchilikni yuzaga keltirgani haqida umuman aytmagan bo'lar edingiz. Bularning

barchasini aytishning yagona sababi chiroyli gapirish emas, balki *haqiqatdan ham nima bo'lganini gapirishdir.*

To'g'ri, buning barchasi ko'zbo'yamachilik bo'lib ko'rinishi, mazkur ma'lumotlar yolg'on tomon yetaklash uchun kerak bo'lgani, go'yo gap chindan ham bo'lgan voqea haqida ketayotgandek, lekin aslida buning hammasi yolg'on bo'lishi mumkin. Ammo bu ko'p qatlamli fitna nazariyasi bo'lgani uchun sizga savol berish adolatli bo'ladi: siz chindan ham haqiqatni bilmoqchimisiz yoki noto'g'ri fikrlaringizni himoya qilmoqchimisiz?

Nima bo'lganda ham ushbu bobda aytilgan barcha gaplarga tegishli bo'lgan yana bitta fikrni aytishimga ijozat bering. Hech kim to'qib chiqarilgan uydirma uchun o'zini qurbon qilmaydi. Hech kim yolg'on uchun o'zini qurbon qilmaydi. Agar maqsadingiz roman yozib aldash bo'lsa, unda boshingizni tanangizdan judo qilmoqchi bo'lganida yozgan narsalaringizga yopishib olmaysiz. Siz faqat birgina holatda o'z so'zingizda turasiz: *tasvirlangan narsalar haqiqatdan ham sodir bo'lganiga ishonangiz.* Yangi Ahd mualliflarining kitobida aynan shuni ko'ryapmiz. Ularni bu ishlari uchun o'ldirishi mumkinligiga qaramay, baribir yozib ta'lim berishgan. Har qanday tahdidga qaramay, o'la-o'lguncha *haqiqatni gapirishni davom ettirishgan.* Nima bo'lishidan qat'iy nazar ular yolg'on gapirmagan. Ular o'zi yozgan narsalarga ishongan va bizni ham ishonishimizni xohlashgan.

ULARNI SHUNCHAKI AXMOQ QILISHGAN?

Ammo boshqacha bo'lgan bo'lishi mumkin. Muqaddas Kitob mualliflari hech kimni aldamagan bo'lib, o'zlari aldangan bo'lsa-chi? Bu nazariya turli variantlarda asrlar davomida gapirib kelingan, ammo u ishonchsiz bir taxmin bo'lib qolmoqda. Mashhur bir

taxminga ko'ra barcha shogirdlar ommaviy alahsirash holatida Isoning tirilganini ko'rgan, keyin tirilishdan oldin bo'lgan voqeani yozgan. Mazkur taxmin qay darajada ehtimoldan uzoq ekanligi haqida o'ylashning hojati yo'q. Avvalo ommaviy alahsirashning o'zi bema'nilik. Alahsirash – ichki, shaxsiy holatni bildiradi va u alohida toifadagi odamlarning ongida sodir bo'ladi. Agar siz odamlar o'rtasida ekstrasensor yoki paranormal aloqa bor deb hisoblamasangiz, unda alahsirash yuqumli emas. Bundan tashqari, bir hafta mobaynida ko'plab odamlar Isoni ko'rganini hisobga oladigan bo'lsak, unda ommaviy tarzda yuqimli alahsirash g'oyasi shunchaki kulgili bir holatdir.

Boshqa, tushunishimiz qiyin bo'lgan taxminga ko'ra, Isoning shogirdlari o'zini-o'zi aldash holatidan azob chekkan. Mazkur taxminni qo'llab-quvvatlovchilar, havoriylar Isoning o'limini qabul qilishga tayyor bo'lmagani uchun orzular dunyosida yashashni boshlagan. Ular Isoning tirik ekaniga ishongan va buni tasdiqlagan, keyin Uning tirilishi bilan bog'liq bo'lgan voqealardan afsona yaratishgan. Bu hiyla-nayrangga o'xshaydi, lekin shogirdlar o'zini-o'zi aldash bilan ovora bo'lgani haqidagi fikr ommaviy alahsirash taxmini kabi bir xildir. Mazkur holat shogirdlar Isoning tirilishini xohlagani bilan umuman bog'liq emas. Hatto ularning ruhiyati buzilgan taqdirda ham, ular Isoning o'limini qabul qilmay, Uni hali-hamon tirik deb o'zlarini ishontirganiga qaramay, Isoni *tirilgani* haqidagi yupanchni hech qanday yo'l bilan o'ylab topishmagan bo'lar edi. Nimaga? Chunki birinchi asrda yashagan yahudiylar uchun tirilish ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan ilohiy tushuncha hisoblangan. Tirilish *faqat oxiratda*, barcha o'lganlar *bir vaqtning o'zida* tirilganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan. Ba'zi tirilganlarni Xudo hukm qiladi, boshqalarini esa ulug'laydi.

Tarixda *hech narsa va hech kim*, hatto qandaydir fikr va din ham, kimdir belgilangan muddatdan *oldin* tirilib shon-shuhratga ega bo'lishi mumkinligi haqidagi g'oyani shogirdlarga bergan bo'lishi mumkin emas. Shogirdlar Isoning *ruhiy jihatdan* tirik ekanligi va U aslida o'lmaganligini, balki Lazarni tiriltirgandek Uni ham tiriltirganini tasdiqlashi o'zini-o'zi aldash ayblovida katta ahamiyatga ega. Ammo ular Isoning o'lganligini va narigi dunyodan tirilib qaytganini ta'kidlashgan. Bu yangi va mutlaqo misli ko'rilmagan holat bo'lgan. Siz nimanidir *xohlaganingiz uchun* dunyoqarashning to'liq o'zgarishini talab qiladigan bunday fikr aqlga sig'maydi. Bu fikr asta-sekin yetiladi va ko'z ko'rgan hamda boshdan o'tgan kechinmalarni tushuntirish imkoni yo'qligi sabab ongimizda tezlashadi.

Bundan tashqari, havoriylar ba'zilar o'ylaganidek, Isoning tirilganiga osongina ishonib qolgan, sodda va xayolparast insonlar emas edi. Havoriylarga berilgan bunday ta'rif mutlaqo Muqaddas Kitobda ular haqida berilgan ta'rifga to'g'ri kelmaydi. Matto "ba'zilari . . . shubhalandilar" deb xabar beradi (Matto 28:17). Luqo esa shunday yozadi, ayollar Iso tirilgani haqida aytish uchun kelishdi, "Ammo bu so'zlar havoriylarga quruq gapday tuyuldi va ular ayollarga ishonmadilar" (Luqo 24:11). Iso hatto shogirdlariga zohir bo'lganida ham, "Shogirdlar esa qo'rqib va vahimaga tushib, biz ruhni ko'ryapmiz, deb o'yladilar" (Luqo 24:37). "Toma ularga: – Men Uning qo'llarida mixlarning chandig'ini ko'rmagunimcha, barmog'imni mixlarning chandig'iga tekkizmagunimcha va qo'limni Uning biqiniga qo'ymagunimcha ishonmayman, — dedi" (Yuhanno 20:24-25).

Bunday shubha (dalillarni kutish bilan) Muqaddas Kitobda qadr-qimmatga ega emas. Mualliflar quyidagicha yozmagan:

“Qarang, qanday mustahkam va barcha narsaga ishonadigan odamlar! Agar bu bo’lmaganida ular Isoning tirilganiga ishonmagan bo’lar edi!” Aksincha, Muqaddas Kitobda shogirdlarning ishonchsizligi sharmandali holat sifatida namoyon qilingan. Iso bu uchun ularga bir necha marta ta’na qilib, hatto Tomaga shunday degan: “Sen Meni ko’rganing uchun ishonдинг. Meni *ko’rmay ishonganlar* naqadar baxtlidir.” Tushunyapsizmi? Muqaddas Kitob havoriylarning ishonchsizligiga e’tiborni qaratib, ularni namunali pragmatik va dalil talab qiladigan shubhali odamlar sifatida ko’rsatmaydi. Muqaddas Kitob bu sharmandali holat bo’lishiga qaramay baribir aytadi va sodir bo’lgan voqealarni o’zini-o’zi aldash deb bo’lmaydi.

O’zini-o’zi aldash nazariyasining so’ngi taxminini ta’kidlashicha, Muqaddas Kitob mualliflarining ba’zi og’zaki an’analari ko’p yillar davomida buzilmagan. Chunki Iso 33-yilda vafot etgan va eng birinchi Xushxabar 27 yildan keyin yozilgan. Nahotki Isoning ta’limoti va u haqidagi hikoya *yigirma yetti yil davomida* faqat og’izdan-og’izga uzatilgan bo’lishiga qaramay, hech qanday qo’shimcha yoki kamchiliklarsiz asl shaklda saqlangan deb o’ylasak? Bu yerda yana bir narsa haqida aytib o’tish kerak. Birinchidan, barcha Yangi Ahd mualliflari ma’lum bir ma’noda og’zaki an’analarga murojaat qilganiga qaramay, ulardan ko’pchiligi – Matto, Yuhanno, Petrus, Yoqub va Yahudo hamma bo’lib o’tgan voqealarning guvohi bo’lishgan. Agar og’zaki urf-odatda biron-bir noto’g’ri talqin bo’lgan bo’lsa, ular buni darrov bilishgan bo’lar edi. Bundan tashqari Isoning ta’limoti Eski Ahd bashoratlari bilan bir xil kuchga ega ekanligi, shuningdek Uning ta’limotining ko’p qismi eslab qolish uchun oson shaklda bo’lgani haqida o’ylasak, ilk masihiylarning uzoq vaqt davomida Isoning ko’rsatmalarini to’liq takrorlagani ajablanarli emas.

Agar og'zaki so'zlashuv haqida gapiradigan bo'lsak, 27 yil unchalik uzoq muddat emasligi va bu vaqt ichida an'ana o'zgarmaganligini tushunishimiz kerak. "Jek va Jill" nomli bolalar she'ri bor. Keling uni past ovozda, ichimizda o'qib ko'ramiz:

Jek va Jill tepalik tomon borar,
Qo'llarida chelagi bilan.
Jek yiqildi yorib peshonasin,
Jill esa dumaladi tepalikdan.²⁷

Bu she'r qachon yozilganini bilasizmi? Yo'q, bilmaysiz. Garchi hozirgi kunga qadar qizg'in bahs-munozara davom etishiga qaramay buni hech kim bilmaydi. Saqlanib qolgan nashrlarning eng qadimgi kitobi "Ona g'ozning musiqasi" deb nomlanib, 1791-yil Londonda bundan ikki asr oldin chop etilgan.²⁸ Mazkur she'rni hech kim kitobdan o'rganmaydi, ayniqsa 1791-yilda nashr qilinganini. Ushbu nashrni juda kam odam ko'rgan. Ota-onalar she'rni bolalar bilan og'zaki o'rgangan va bu avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. Mana shu og'zaki an'ana deb ataladi. Sizningcha, o'tgan ikki yuz yildan oshiqroq vaqt mobaynida "Jek va Jill" she'ri og'zaki an'anadan qay darajada o'zgartirilgan? Chap tomondagi zamonaviy inglizcha ko'rinish, o'ng tomondagi 1791-yilda nashr etilgandan qay darajada farq qiladi?

27. S. Marshak tarjiması.

28. Faksimil nusxa 1791-yilda "Ona g'ozning musiqasi" kitobida nashr etilgan. [ingliz tili: A facsimile of the 1791 edition of *Mother Goose's Melody* can be found in Colonel W. F. Prideaux, ed., *Mother Goose's Melody: A Facsimile Reproduction of the Earliest Known Edition, with an Introduction and Notes* (London: A. H. Bullen, 1904), available online at Internet Archive, accessed May 26, 2015, <https://archive.org/stream/mother-goose-melo00pridiala/page/n27/mode/2up>].

ZAMONAVIY INGLIZCHA KO'RINISH:	1791-YILDA NASHR ETILGAN:
Jack and Jill	Jack and Gill
Went up the hill	Went up the hill,
To fetch a pail of water;	To fetch a pail of water;
Jack fell down	Jack fell down
And broke his crown,	And broke his crown,
And Jill came tumbling after.	And Gill came tumbling after.

Mana shu xolos. Mana shu tarzda u 1791-yilda chop etilgan! Faqat Jill ismi yozilishidagi farqni hisobga olmasak (hozir Jill, oldin Gill), bugungi kunda ham *ikki yuz yil oldin* qanday bo'lsa shunday jaranglamoqda. Shuning uchun takrorlashimga ijozat bering: 27 yil davomida asarni o'zgartirishsiz saqlab qolish qiyin emas.

Albatta "Jek va Jill" tarixi bilan Yangi Ahdning og'zaki an'anasi o'rtasida aniq chiziq chizishning iloji yo'q. Gap shundaki, og'zaki an'anani uzoq vaqt davomida saqlab qolish qiyin emas. Buning umuman iloji yo'q deb hisoblab bo'lmaydi.

Shunday qilib, aldangan mualliflar nazariyasining hech bir taxmini tanqidga dosh bera olmaydi. Havoriylar ommaviy tarzda alahsilashlarni boshdan kechirgani haqidagi taxmin asossiz va ma'nosizdir. Havoriylar o'zlari xohlagan narsani haqiqat deb ham ta'kidlamagan. Nihoyat, ular sodir bo'lgan voqeaning guvohi bo'lgani uchun atigi 27 yil ichida og'zaki an'ana o'zgarib ketmagan.

YAQQOL QARAMA-QARSHILIKLAR?

Yangi Ahd hujjatlarining mualliflari badiiy uydirma yozmagan, hech kimni aldashga urinmagan va o'zlari ham aldanmagan. Biroq so'nggi bir ehtimol bor: balki mualliflarning maqsadi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagandir. Nimaga? Chunki ular nima bo'lganini aniq tasvirlagani uchun ularning kitoblarida barcha narsa qarama-qarshilik, ishonchsizlik va juda ko'p xatolar sabab bunga ishonishning iloji yo'q.

Bu yerda javob berish kerak bo'lgan muhim narsa, bunday noto'g'ri tasavvurda mavjud dalillar *ko'rinmagani uchun* ko'pchilik ularni qo'llab-quvvatlaydi va kim *ko'rib chiqqan bo'lsa* ularning hech biri qo'llab-quvvatlamaydi. Muqaddas Kitob ikki yuz yildan ortiq vaqt mobaynida shubha qiluvchilar tomonidan yo'q qilinishi, hamda tanqid ostiga olingani bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, har bir xatoda kamida bitta tushuntirish, ayrim paytda ko'proq tushuntirishlarni topish mumkin. To'g'ri bu umumiy tushuncha. Eng yaxshisi mazkur muammoli savollarni ishonchli izohlar bilan tahlil qilish uchun bir necha yuz sahifali foliant tuzish kerak edi. Biz albatta, bunday og'ir va mashaqqatli ish bilan shug'ullanmaymiz, chunki barchasi allaqachon hal bo'lgan va buni tasdiqlaydigan boshqa kitoblar ham bor. Shuning uchun sizni Muqaddas Kitobdagi qaysidir joy o'yantirayotgan bo'lsa, men ushbu kitoblardan biriga murojaat qilib, uni o'qishni maslahat beraman (ilovaga qarang). Agar savollarni sabr-toqat bilan o'rganib, barchasini tushunishga harakat qilsangiz, hatto eng qiyin savollarga ham aniqlik kiritsa bo'ladi.

Boshqa tomondan Muqaddas Kitobga qarshi ayblovni qo'yayotgan bo'lsangiz, unda sizga bir narsani ochiq aytaman: sizni intellektual burchingiz bu ayblovdan voz kechish yoki masihiy tadqiqotchilarning

eng yaxshi ishlariga murojaat qilgan holda, skeptiklar ko'radigan barcha nomuvofiqliklar va xatolarni tushunish uchun ishonarli – odatda hatto ehtimolli – risolalarni o'qishdir. Bunday o'qish sizni to'liq ishontira olmasligini tushunuman. Boshingizni chayqatib hatto ayrim parchalarda qarama-qarshiliklarni ko'rishingiz mumkin. Bu oddiy holat. Biroq sizni ishontirib aytaman-ki, agar bu ishni bajarsangiz sizdagi shubha kamayib, ishonchli javoblar yanada ko'proq bo'ladi. Nima qilish *mumkin emas* (agar ketma-ket harakat qilinadigan bo'lsa), Muqaddas Kitobdagi ishonchsiz qarama-qarshiliklar va undagi xatolarni talab qilishni davom ettirgan holda o'z fikrini tasdiqlash uchun hech qanday harakat qilishni xohlamaslik mumkin emas. Shuning uchun harakat qilib ko'ring. Ehtimol, bilib olgandan keyin hayron qolarsiz.

Aslida shubha qiluvchilar tomonidan aytilgan nomuvofiqliklarning aksariyat qismiga yetarli darajada chuqur mulohaza qilinsa bu umuman muammo hisoblanmaydi. Ikki yuz yil mobaynida tanqidchi tadqiqotchilar bunday *qarama-qarshiliklarning har biri uchun juda ishonchli tushunchalarni taklif qilishgan*. Faqat savolga vijdonan yondashib, izohni o'qish uchun vaqt ajratish kerak.

Aytaylik barchasini batafsil o'rganib chiqqaningizdan keyin sizni hech bir izoh qoniqtirmadi. Siz o'zingizdan yana bir savol so'rashingiz kerak: barcha kelishmovchiliklar *hech narsa bo'lmaganini ko'rsatuvchi aniq dalil emasmi yoki haqiqatdan ham nima bo'lganini bila olmaymizmi?* Misol uchun, Matto Isoning qabri oldida *ikki ayol turganini, Luqo bo'lsa uch va undan ko'proq ayol haqida gapirayotgan bo'lsa, yakshanba kuni ertalab nima bo'lganini qanday qilib ishonch bilan ayta olamiz? Mayli! Guvohlar shohid bo'lgan bir nechta farq har qanday narsani anglatishi mumkin, ammo bu degani hech narsa sodir bo'lmagan yoki nima bo'lganini bilishimiz kerak emas degani emas.*

Qabr oldidagi ayollarning soni haqida gap boshlagan bo'lsak, bu qarama-qarshilikni oson yo'l bilan bartaraf etish mumkin. Matto *faqat* ikkita ayol kelgani haqida aytmagan. U faqat ulardan ikkitasining ismini eslatib o'tgan (Matto 28:1). Luqo ham qabrga qancha ayol kelganini aytmagan. U uchta ayolning ismini aytib, "havoriylarga bu xabarni yetkazgan . . . boshqa ayollar" borligi haqida qo'shimcha qilgan (Luqo 24:10). Bu yerda nimani ko'ryapmiz? Matto va Luqo bir-biriga zid narsalarni gapiryaptimi? Yo'q, bu yerda bir nechta yechim bo'lishi mumkin. Balki Luqo Mattoga qaraganda qabrga kelgan ayollar haqida batafsil yozgandir. Matto barcha ayollardan faqat ikkitasini ismini aytib o'tgan. Ehtimol shuningdek, qabrda faqat ikkita ayol bo'lgan bo'lib, qaytib kelishganida ular boshqalar bilan gaplashgan, havoriylarga esa bo'lib o'tgan voqeani birgalikda aytib berishgan. Nima bo'lganidan qat'iy nazar mohiyatni tushundingiz: biz haqiqatga zid bo'lgan holatlarga juda ko'p maqbul tushunchalarni berishimiz mumkin, shuning uchun shoshilib darhol qarama-qarshiliklarga e'tiboringizni qaratmang.

Bundan tashqari barcha hikoyadagi bor farqlar to'g'rilanib, bir-biriga mos keltirilganligi unga bo'lgan ishonchni ko'rsatadi. Bir tadqiqotchi shunday yozgan:

[Muqaddas Kitob] hikoyalari . . . aynan shunday bo'lganini isbotlash uchun ko'rinarli bo'lib turgan farqni ertaklarga xos emasligini, ammo o'z ko'zi bilan ko'rgan odamlar sirli hikoyadan hayratlanganiga qaramay, ular buni tushuntirib bera olmaydi.²⁹

29. N. T. Rayt. *Xudoning O'g'lini tirilishi*, (Minneapolis: Fortress, 2003), 612-bet; [ingliz tili: N. T. Wright, *The Resurrection of the Son of God*, vol. 3 of *Christian Origins and the Question of God* (Minneapolis: Fortress, 2003), page 612].

Muqaddas Kitob hujjatlari bir-biriga zid va chalkash degan xulosaga kelmaslik uchun barcha asoslar mavjud, ularda johil odamlar aytgandek juda ko'p xatolar yo'q. Barcha tafsilotlarni darhol o'zlashtira *olmaslikka* qaramay, qo'llarni pastga tushurib hech narsa bo'lmagan deb aytish noto'g'ri. Aslida Isoning hayoti haqidagi hikoyalar bir necha odamlar qanday tasvirlagan bo'lsa xuddi shundaydir. Ular g'ayritabiiy hodisalarning guvohi bo'lgani uchun boshqa hech narsani qo'shimcha qilmay, *nima sodir bo'lgan bo'lsa o'z fikri bilan buni bildirishgan*.

MUHIM LAHZA

Ha, bu muhim lahza vaqti keldi. Chuqur nafas olamiz! Muhim xulosaga kelishimiz uchun fikrlaydigan vaqt keldi. Yuqori darajali ishonch bilan . . . tayyorlaning . . . deb ayta olamiz.

Muqaddas Kitob tarixiy jihatdan ishonchlidir.

Bunday fikrga qanday kelganimiz esingizdami? Biz o'zimizdan Yangi Ahddagi voqealar qayd etilgan Muqaddas Kitob tomon yo'l olib quyidagilarga amin bo'lish mumkin deb qaror qildik.

1. Muqaddas Kitob qo'lyozmalarining bizdagi tarjimasini aniq tarjima.
2. Biz ega bo'lgan Muqaddas Kitob qo'lyozmalari asl nusxalarning mazmunini aniq aks ettiradi.
3. Biz ma'lumotlarni eng yaxshisidan, kerakli hujjatlardan olganmiz.
4. Muqaddas Kitob mualliflari badiiy uydirma bilan shug'ullanmagan, aldamagan va noto'g'ri talqin qilmagan, ular nima sodir bo'lgan bo'lsa xuddi shuni yozishgan.

Agar mazkur tasdiq chindan ham asosli bo'lgan xulosadan kelib chiqqan bo'lsa, unda Muqaddas Kitobning mualliflari nima sodir bo'lgani haqidagi gaplarga umuman shubha qilmasak bo'ladi.

Bizda yana bir savol, oxirgi savol bor: Muqaddas Kitob mualliflarining *fikriga ko'ra* aslida nima sodir bo'lganini aniq bilish mumkinmi?

6

BU ASLIDA HAM BO'LGANMI?

Odamlar ba'zan biror narsaga kuchli ishonishiga qaramay, xato qilishi mumkinligini tushuntirishning hojati yo'q. Hayotim davomida bir necha marta ko'rgan narsam aniq shunday ekaniga ishonchim komil bo'lgan, lekin keyinchalik bu unday emasligi, aslida hammasi butunlay boshqacha bo'lganini tushunganman.

Bu Muqaddas Kitobning ishonchli ekanligi bilan bog'liq bo'lgan oxirgi savol. Muqaddas Kitob mualliflari haqiqatdan ham sodir bo'lgan voqealarni aytib berishni *xohlagan* va o'zlari ham bunga ishongan, ammo aslida ular adashganmi? Men ularni aldagan yoki boshqalarni adashga harakat qilgan, shu bilan birga bizga badiiy uydirmanini taklif qilgan deb aytmoqchi emasman. Balki ular ba'zan biz kabi adashgandir? Men to'g'ridan-to'g'ri savol beraman: Muqaddas Kitob mualliflari *to'g'ri narsani* gapirganiga ishonsak bo'ladimi? Ular haqiqat deb *hisoblagan* barcha narsalar chindan ham *sodir bo'lgan* deb ishonsak bo'ladimi?³⁰

Yo'q, bunga *matematik aniqlik* bilan yondashishning iloji yo'q. Ammo tarixiy voqealar haqida gap ketganda, bunga matematik aniqlik bilan erishish *mumkin emasligini* yodimizda tutishimiz kerak. Shaxsan

30. Ushbu bobni yozishda quyidagi kitoblardan foydalandim: Kreig L. Blomberg, *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi?*; N. T. Rayt, *Xudoning O'g'lini tiri-lishi*; [ingliz tili: Craig L. Blomberg, *Can We Still Believe the Bible? An Evangelical Engagement with Contemporary Questions* (Grand Rapids, MI: Brazos, 2014); N. T. Wright, *The Resurrection of the Son of God*, vol. 3 of *Christian Origins and the Question of God* (Minneapolis: Fortress, 2003)].

o'zingiz guvoh bo'lmagan tarixiy voqealar o'rtasidagi tubsizlikni mantiqiy ilm, fikrlash va hisob-kitob yordamida yengib o'tishning iloji yo'q. Har doim *barcha narsada xato qilyapmiz* degan (minimal darajada bo'lsa ham) *ehtimol bo'ladi*. Bunday tubsizlik haqida aniq gapiradigan bo'lsak unga “keng va jirkanch oqava arig'i” deb berishgan.³¹ Ba'zi odamlar bu oqava ariqqa qarab qo'llarini pastga tushirgancha, tarix bilan bog'liq bo'lgan hech qanday tarixiy tasdiqlarga umuman ishonish mumkin emasligini ta'kidlashadi. Ammo bunday fikrlash bizni zulmatga burkangan tarixiy nigilizmga olib kelishi mumkin. Albatta, hech birimiz doimo shunday o'ylashni istamaymiz. Yo'q. Matematik aniqlikka erisha olmasak ham, tasvirlangan voqealarni ishonchli ekanini aniqlay olishimiz mumkin. Bunday holatda biz ishonch bilan shunday deb ayta olamiz: “Ha, bu voqea sodir bo'lganiga ishonaman”. Keyin mazkur voqeani sodir bo'lganiga ishongan holda yashab, harakat qilish kerak bo'ladi.

Tarix matematik aniqlikka intilmaydi. Tarix asosan aniqlikni izlamaydi. Tarix – aslida ham biron narsa sodir bo'lganiga ishonch hosil qiladigan ehtimollik darajasini izlaydi. Qanday voqea haqida gap ketishidan qat'iy nazar, tarix birinchi navbatda manbaning ishonchli ekanligi haqida so'raydi. Bu biz Muqaddas Kitob haqida bergan savoldir. Agar manbaga ishonish mumkin deb qaror qilingan bo'lsa, unda keyingi savol quyidagicha bo'ladi: bu ishonchli manbada tasvirlangan narsalar haqiqatdan ham sodir bo'lgan deb ayta olamizmi? Odatda mazkur savolga tezda quyidagi javobni berish

31. Gottold Efraim Lessing, “Ruh va kuchning isboti to'g'risida”, *Falsafiy va teologik yozuvlarda*, ed. H. B. Nisbet, *Falsafa tarixidagi Kembrij matnlari* (Kembrij: Cambridge University Press, 2005), 87-bet; [ingliz tili: Gotthold Ephraim Lessing, “On the Proof of the Spirit and of Power,” in *Philosophical and Theological Writings*, ed. H. B. Nisbet, *Cambridge Texts in the History of Philosophy* (Cambridge: Cambridge University Press, 2005), page 87].

mumkin: “Ha, albatta bo’lgan”. Agar ishonchli manbada bunday armiya bunday daryoni kesib o’tgan deb aytilgan bo’lsa, kesib o’tish jarayonida hech qanday muhim narsa yo’q deb hisoblansa va armiya daryoni kesib *o’tmaganligini* tasdiqlaydigan guvohlar bo’lmasa, unda odatda quyidagicha javob berish mumkin: “Ha, bunday armiya bunday daryoni kesib o’tgan”. Bu matematik darajadagi aniqlik emas, bu tarixiy ishonchlilikning *yuqori darajasidir*.

MO’JIZALAR HAQIDAGI SAVOL

Ammo, Muqaddas Kitobga murojaat qilganda boshqa savol tug’iladi. To’g’ri, u yerda daryoni kesib o’tgan qo’shin haqida gapirilgan. Lekin ular Xudo suvni ikkiga ajratgandan keyin quruq yerni bosgan holda kesib o’tgan! Muqaddas Kitobda suvni sharobga aylantirgan, suv ustida yurgan va odamlarni O’z so’zi bilan shifolagan shaxs haqida ham gapirilgan. Uni o’ldirishdi, ammo U uchinchi kuni tirildi! Buni qanday tushunish mumkin? Keling to’g’risini aytamiz. Hatto o’zimiz *aniqlagan ishonchli* tarixiy manbada yana bir qo’shin haqida o’qiganimizda befarqlik bilan shunday deymiz: “Yo’g’e! Jiddiy atyyapsizmi?”

Nima uchun bu bunday muhokamaga sabab bo’ldi? Ehtimol, mo’jizalar haqidagi hikoyalarga bo’lgan tabiiy ishonchsizligimiz ko’plab omillar bilan oziqlangani uchun shunday bo’lgandir, ammo eng anig’i va menimcha eng muhimi quyidagi hisoblanadi. Odatda *mo’jiza ko’rmagan odam* mo’jiza borligiga ishonmaydi. Buning ajablanarli joyi yo’q: biz tajribamizdan tashqarida bo’lgan narsalarga ishonishga moyil emasmiz.

Ko’pincha quyidagi tarzda misol keltiramiz: butun hayoti davomida ekvatorial kenglikdagi tropik orolda yashagan odamni (ko’p yillar oldin, elektr va boshqa zamonaviy texnologiyalar ixtiro qilinishidan

oldin) tasavvur qiling. Kunlarning birida kema kelib, ular uzoq Shimoliy mamlakatdan kelgani va u yerda juda sovuq bo'lgan paytda toshga aylanadigan mo'jizaviy tarzda suvni "muz" deb nomlanishi haqida aytishibdi. Tropik orolda yashovchi do'stimiz hech qachon muzni ko'rmagan va suvni muzlatadigan sovuqni ham his qilmagan. Albatta, uni suvning sovuq toshga aylanishiga ishonishi juda qiyin. Ehtimol, u buni *imkonsiz* deb aytar, dengizchilar bo'lsa yoki ahmoq, yoki uni aldashga harakat qilayotgan qalloblar. Muz orolda yashagan odamning tajribasidan yiroqda bo'lgani uchun u bunga ishonmagan.

Lekin muz aslida bor.

Janubiy odam muzga qanday munosabatda bo'lgan bo'lsa, ko'pchilik mo'jizaga nisbatan shunday munosabatda bo'ladi. Biz hech qachon odamni suv ustida yurganini, suvni sharobga aylantirganini yoki o'liklardan tirilganini ko'rmaganmiz. Shuning uchun bunday bo'lmaydi – *bunday bo'lishi mumkin emas* deb hisoblaymiz. Lekin bunday holatni ko'rmagan bo'lsa, bu sodir bo'lmagan degani emas. Orolidagi odam hech qachon muzni ko'rmagani uchun muz bo'lmaydi deb ta'kidlash noto'g'ri. Lekin mo'jizani *ko'rganlar* – butun dunyodagi millionlab odamlar ko'rganini ta'kidlaydi – mo'jizalarning imkoniyati haqida qaysidir ma'noda nimanidir gapirishning hojati yo'q. "Albatta, bunday bo'lishi mumkin – men buni *ko'rdim*" – deb ta'kidlaydi. To'g'ri siz o'zingizni oroldagi odam kabi, bu odamlar ahmoq yoki meni aldashga urinyapti deb o'ylashingiz mumkin. Ammo ular yelkasini qisganicha tabassum qilib shunday deydi: "Do'stim bir kuni siz ham muzqaymoqni tatib ko'rasiz".

Mo'jiza va shu bilan birga Muqaddas Kitobdagi barcha voqealarni o'zingiz ko'rmaganingiz uchun imkonsiz deb hisoblab bo'lmasligi haqida aytib o'tmoqchiman. Har bir inson o'zgacha tajribani boshidan kechiradi. Siz o'z hayotingizda bo'lib o'tgan voqea va hodisadan

boshqasini xato deb hisoblasangiz, bu sizda takabburlik borligidan dalolatdir. Agar siz mo''jizalarni imkonsiz deb hisoblasangiz, unda sizda buni tasdiqlaydigan qandaydir asos bo'lishi kerak.

ILMIY DALILLAR MO''JIZALARGA QARSHI

Ko'p asrlar davomida odamlar Muqaddas Kitob mualliflari tomonidan tasvirlangan mo''jizaning yo'qligi haqidagi yolg'on bilan bog'liq bo'lgan ikkita asosiy dalilni ilgari surishgan. Keling, har birini ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, *ilmiy e'tiroz* mo''jizalarga qarshi. Ilm-fanning muvaffaqiyati (ayniqsa so'nggi ikki asr davomida) mo''jizalar imkonsiz ekanini isbotladi. Odamlar dunyo qanday yaratilganini tushunmagani uchun birinchi navbatda g'ayritabiiy narsalarga ishonishni boshladi. Ularda biologiya, astronomiya, kimyo va ekologiya fanlarida bo'shliqlar bo'lgani uchun bu bo'shliqni mo''jizalar bilan to'ldirishga harakat qilishgan. Bugungi kunda ilm-fan bo'shliqlarining aksariyat qismini tushuntirib berish uchun mo''jizalarga ehtiyoj qolmadi. Demak, aslida mo''jiza bo'lmas ekan-da.

Hamma narsa shunday oddiymi? Birinchi iddao – odamlar dunyoni qanday yaratilganini *bizlarga* qaraganda unchalik yaxshi tushunmaganligi tufayli mo''jizalarga ishonishganligi Muqaddas Kitobdagi mo''jizalarga mos kelmaydi. Hatto qadim zamonlarda yashagan odamlar ham bolaga homilador bo'lish uchun ikkita odam kerakligini, suvda yurishga harakat qilganda cho'kib ketish mumkinligini va o'liklar tirilmasligini bilishgan! Shunga qaramay, Muqaddas Kitob mualliflari bu voqealar sodir bo'lgani va ular buni ko'rganini ta'kidlaydi. Hatto barcha zamonaviy bilimlarni ishga solsak ham, Muqaddas Kitob mualliflari nimani ko'rganini tushuntirib berolmaymiz. Ya'ni, biz Muqaddas Kitob mualliflariga shunday so'zlarni

aytolmaymiz: “Eh siz, qorong’ulikda qolgan odamlar, suvda yurish bilan bog’liq hech qanday mo’jiza bo’lmaganligini bilasizmi? Siz shunchaki kvant fizikasi qonunlari bo’lmish nisbiylik nazariyasini bilganingizda, suvda yurish *tabiiy hol* ekanini tushungan bo’lar edingiz va bu yerda ajablanarli narsa yo’qligini allaqachon bilib olar edingiz. Bokira qizdan tug’ilgan bola ham mo’jiza emas. Shamolni to’xtashi, kasal odamga so’z bilan shifo berilgani yoki o’likni tirilganida hech qanday mo’jiza yo’q. Buning barchasini ilm-fan tushuntirib bera olishi mumkin”. Yo’q, ilm-fan bu voqealarni Muqaddas Kitob davrida qanday bo’lgan bo’lsa, shundan kamroq hayratlanarli darajada qilib ko’rsatmoqchi.

Meni tushunyapsizmi? Muammo shundaki, ilm-fan tabiat qonunlari nuqtai nazaridan mo’jizalarni (shu jumladan Muqaddas Kitobga oid) tushuntirish uchun yetarlicha rivojlanmagan. Ilm-fan Muqaddas Kitobda tasvirlangan mo’jizalarni tushuntirib berolmaydi. Nimaga g’ayritabiiylikni ilm-fan tomonidan isbotlab berilgan bayonotiga ishonishimiz kerak?

Javob: biz bunday qilmasligimiz kerak. Agar to’g’ridan-to’g’ri gapiradigan bo’lsak, bu e’tiroz juda yuqori, ya’ni tasdiqlanmaydigan narsalarni talab qiladi. Bu juda oddiy: ilm-fan g’ayritabiiylik yo’q ekanini va bo’lishi ham mumkin emasligini *isbotlay olmadi*. Koinot va inson hayotida ilm-fan tushuntira olmaydigan juda ko’p narsalar bor. Meni to’g’ri tushuning. Ilm-fan tushuntira olmaydigan barcha narsa g’ayritabiiylikka xos deb aytmoqchi emasman. Yo’q, ilm-fan rivojlanayotgani uchun u kelajakda hozir javob bera olmaydigan savollarga javob bera oladi. Biroq, aytgan so’zlarini qadrlaydigan va ilm-fan *chegaralarini* (ayniqsa, kvant fizikasi, astronomiya va hatto biologiya kabi fanlardagi so’ngi yutuqlarni) tasavvur qiladigan hech bir olim quyidagi gapni umuman gapirmaydi: “Dunyoda sodir bo’layotgan voqealarni osongina tushuntirish mumkin, bundan keyin

hech qanday sir bo'lmaydi". Aslida bunday olim quyidagi so'zlarni aytadi: "Qancha narsani bilganimiz sari, shu darajada ko'p narsani tushunmasligimizni va juda ko'p narsa bizning tushunchalarimizdan ancha uzoqda ekanini bilamiz".

Mo''jizalar haqidagi savol oxir-oqibat Xudoning borligiga olib keladi, shunday emasmi? Agar Xudo bor bo'lsa, demak mo''jizaning imkoni bor, bo'ldi nuqta. Biroq, har bir odam ilm-fan Xudoning mavjudligini aniqlashga qodir emasligini biladi. Ilm-fan hech qachon Xudoning yo'qligini va shu bilan birga mo''jizalar amalga oshirilmaganligini *isbotlay olmaydi*. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak yosh olimlardan tez-tez quyidagi ishonchli bo'lmagan yengiltaklik va mag'rurlikni eshitaman: ilm-fan g'ayritabiiy holatni imkonsiz ekanini isbotladi!

FALSAFIY DALILLAR MO''JIZALARGA QARSHI

Mo''jizalarning ishonchli ekaniga ikkinchi e'tiroz *falsafiylikdir*. Uning mohiyati shundan iboratki, agar ilm-fan mo''jizalar *bo'lmazligini* isbotlay olmasa ham (muhim e'tirofqa e'tibor bering), biz mo''jizalarni *juda kam ahamiyatli* deb hisoblab unga ishonmasligimiz kerak. Misol uchun, Isoning suv ustida yurganiga ishonmasligimiz kerak chunki qachonlardir suv ustida yurishga harakat qilib muvaffaqiyatsizlikka uchragan har bir odam (aytaylik yuz milliard odam – qachonlardir yer yuzida shuncha odam yashagan) haqida gapiradigan bo'lsak, unda Isoning haqiqatdan ham suv ustida yurgani yuz milliarddan birga teng bo'ladi. Bu juda katta ko'rsatkich emas.

Lekin bunday dalillar bilan qiziqishning keragi yo'q. Shubha qiladigan har bir narsaning ehtimollik darajasini aniqlashning iloji yo'q. Unday bo'lsa *barcha o'zgacha* va noyob narsalarni shubha ostiga

qo'yishga to'g'ri keladi. Yer yuzida yetti milliard atrofida odamlar yashaydi, ammo bilishimizcha faqat *bir odam* yuz metr masofani 9,58 soniyada yugurib o'tishga muvaffaq bo'lgan. Men tomondan quyidagi so'zlarni aytish be'manilik va o'ziga ortiq darajada ishonishni bildiradi: "Xm! Ha Useyn Bolt 9,58 soniya ichida yuz metr masofani bosib o'tish ehtimoli yetti milliarddan birga teng ekanini tushunyapsizmi? Bunga ishonish ahmoqlik". Aynan shu sababli Isoning suv ustida yurganini rad etib bo'lmaydi, chunki bu ajoyib holat hisoblanadi. Havoriylar ham bunday holatdan hayratlangani uchun bu haqda yozishgan.

Mana shunday e'tirozlar. Albatta, shubha qiluvchilar mazkur ikki dalildan ko'plab taxminlarni o'ylab topishadi, ammo ularning barchasi mo'jiza yoki g'ayritabiiy holatni yo'q qilib ko'rsatishni oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ilm-fan Muqaddas Kitob mualliflari guvoh bo'lgan hodisalarni tushuntirib berolmaydi. Shu bilan birga ilm-fan bunday hodisalar bo'lmasligini isbotlamagan. Bundan tashqari, ehtimollik asosida voqealarning ishonchli ekanini aniqlashga ehtiyoj yo'q. Agar siz g'ayritabiiy holat bo'lmaydi (umuman, hech qachon) deb tasdiqlaydigan bo'lsangiz, unda faqat *tasdiqlab* yurishingizga to'g'ri keladi. Sizda hech qanday dalil yoki asos yo'q. Boshqacha qilib aytganda, siz o'zingizni mo'jizalar bo'lmaydi, degan ko'r-ko'rona ishonchdan cheklashingiz kerak.

MUQADDAS KITOBDAKI MO'JIZALAR ISHONCHLIMI?

Shunday qilib, Muqaddas Kitob mualliflari ajoyib tarzda narsalarni ko'rganini tasdiqlagan. Sodir bo'lgan voqealarni imkonsiz yoki umuman mumkin emasligini ta'kidlashimiz uchun mantiqiy asos yo'q. Lekin shunga qaramay bir savol bor. Ko'pchilik mo'jizalar haqida hikoyalar aytgan. Bobilliklar. Yunonlar. Rimliklar. Lekin bugun hech

kim *ularning* hikoyalariga ishonishimiz kerakligi haqida aytmayapti. Muqaddas Kitobdagi voqealar nimasi bilan farq qiladi? Muqaddas Kitobda yozilgan mo''jizalarni nima yanada ishonchli qilib ko'rsatadi? Gap shundaki, Muqaddas Kitob qadimgi kitoblardan butunlay farq qiladi va bu Muqaddas Kitobni *yanada ishonchli qilib ko'rsatadi*.

Nima demoqchi bo'lganimni tushuntirib berishimga ijozat bering. Mo''jizalar yozilgan boshqa qadimiy hikoyalarni biz hatto guvohlarning guvohligi sifatida ham ko'rib chiqmaymiz, ular bunday qilishimiz uchun da'vo qilmayapti. Aksincha, biz quyidagilarga egamiz: 1) asrlar mobaynida ko'plab yangi tafsilotlar bilan to'lib ketgan afsonalar, xuddi kemaga yopishgan chig'anoqqa o'xshaydi; 2) dastlab diqqatga sazovor bo'lmagan tarixiy hikoyalar, vaqt o'tishi bilan g'ayritabiiy tafsilotlar bilan bezatilgan, chindan ham ajoyib, lekin bu hech narsaga asoslanmagan holat. Bu bilan men bu hikoyalardagi g'ayritabiiy voqealar hikoyaning o'zi uchun hech qanday ahamiyatga ega emasligini nazarda tutyapman; hikoya g'ayritabiiy qismlarsiz to'liq ma'noga ega bo'lar edi, bu esa bu qismlar keyinchalik ta'sirliroq qilish uchun qo'shilganligini ko'rsatadi. Gap shundaki, har ikki holatda ham tarixchilar o'sha qadimiy hikoyalarga nazar tashlab, mo''jizaviy tafsilotlar tarixiy emas, degan ishonch bilan xulosa qilishlari mumkin. Bular vaqt o'tishi bilan tafsilotlar orqali yaratilgan afsonalar yoki taasurot qoldirish maqsadida qo'shib qo'yilgan lofga to'la so'zlardir. Ammo bu voqealar haqidagi guvohlik emas, chunki u yerda tarixiy voqealar hech qanday ma'noga ega emas.

Ammo, *aynan shu holat* Muqaddas Kitobdagi mo''jizalardan ajralib turadi. Bu afsona emas. Ular asrlar davomida nihoyasiga yetmagan. Odamlar gapirgani uchun ular haqida shunday yozilgan: "Men buni ko'rdim, yaqinda ko'rdim". Nafaqat bu, balki Muqaddas Kitobda yozilgan mo''jizalar ularning atrofidagi voqealar uchun

juda muhimdir. Isoning mo''jizasi shunchaki ajoyib emas. Diqqat bilan qarasangiz ular Iso e'lon qilgan so'zlar bilan to'liq bog'liqligini tushunasiz. Aynan shuning uchun Iso shlyapadan quyon chiqarish o'rniga odamlarga shifo bergan: U odamlarni gunoh kasalligidan shifolash kuchiga ega ekanini ko'rsatgan. Aynan shuning uchun Iso tangani qo'ldan g'oyib qilish o'rniga, odamlarni o'likdan tiriltirgan: U ruhiy o'limdan hayotga qaytara olishini ko'rsatgan. Hatto Isoning suv ustida yurishi ham arzon bir nayrang bo'lmagan. Iso shu tarzda "Men borman" deb O'zining buyukligini tasdiqlayotganini shogirdlari tushungan. Dengizni o'ziga bo'ysundirgan odam qadimdan betartiblik va yovuzlikni o'zida mujassam etgan deb hisoblangan. U O'zi "yuksaklikda ko'plab suvlarning shovqinidan, dengizning qudratli to'lqinlaridan qudratliroqdir" (Sanolar 92:4). Bu boshqa din va boshqa madaniyatlardagi "mo''jizalar" haqidagi hikoyalarga o'xshamaydi.

Muqaddas Kitobda mo''jizalar ortiqcha bezak hisoblanmaydi. Ular Muqaddas Kitobning ajralmas qismi bo'lgani uchun uning mohiyatini ko'rsatib turadi. Bundan tashqari, bu vaqt o'tishi bilan yaratilgan afsona emas, balki odamlarning o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohligidir. Nima bo'lganda ham mo''jizalar haqidagi Muqaddas Kitob hikoyalari yunon va bobil afsonalaridan juda katta farq qiladi, shuning uchun ularga butunlay boshqacha munosabatda bo'lish kerak.

Bu bizni Muqaddas Kitobda tasvirlangan mo''jizalar haqidagi muhim xulosaga olib keladi: ularni mantiqqa to'g'ri kelmaydi deb aytish noto'g'ri, ular boshqa hikoyalardagi "mo''jizalarga" qaraganda ancha ishonarli. Shunga qaramay, bu haqda ko'proq gapirish mumkinmi deb o'ylayman. Muqaddas Kitob mualliflari tomonidan tasvirlangan voqealarning ishonchli ekanligi haqida emas, balki ularning tarixiy *ehtimollik darajasi* haqida gapirish mumkinmi?

O'ylaymanki, mumkin.

BARCHA NARSA TIRILISHGA ASOSLANGAN

Endi fikrlash uchun bizda bir nechta variantlar bor. Iso tomonidan amalga oshirilgan o'nlab mo''jizalarni har tomondan o'rganishga kirishsak bo'ladi. Boshqa ko'plab kitoblarning mualliflari shunday yo'l tutadi va ularning xulosasi ko'pincha ishonchli bo'ladi (ilovaga qarang). Bo'lmasa masihiylikka asoslangan va barchasini boshlanishiga sabab bo'lgan bir mo''jizaga e'tiborimizni qaratishimiz mumkin. Unda masihiylik tarixi, masihiylik ta'limoti va masihiylikka oid urf-odatlar bor. Nihoyat, mazkur mo''jiza masihiylarning asosi bo'lmish Muqaddas Kitobi – Xudoning Kalomidir.

Bu albatta Isoning tirilishi.

Buni umuman chetlab o'tib bo'lmaydi: agar tirilish amalga oshgan bo'lsa unda masihiylikda tuzilgan barcha narsalar hamohang, xuddi soat mexanizmiddek hammasi o'z joyida, shu jumladan Eski va Yangi Ahd qismlari ham Muqaddas Kitob singari hokimiyatga ega. Agar tirilish amalga *oshmagan bo'lsa* unda hamma narsani unutingiz mumkin. Agar biz bilgan Muqaddas Kitob mualliflari eng muhim narsa – tirilishda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, unda boshqa qolgan narsalarda ularni to'g'ri deb bo'lmaydi. Bundan tashqari, har bir narsa haqidagi ularning haqiqati muhim emas, chunki qolgan *hamma narsa* – mo''jiza, ta'limot, turli bayonotlar Isoni Masih ekanini ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Agar Iso o'liklardan tirilmagan bo'lsa, unda U Masih emas va qolgan narsalarning barchasi ahamiyatsiz. Bo'ldi nuqta. Masihiylikning mavjudligi Isoning o'liklar ichidan diniy yoki ruhiy tarzda tirilganligi bilan emas, balki *tarixiy tarzda* tirilganligi bilan bog'liq.

Muqaddas Kitob mualliflari mazkur voqeani bo'lib o'tgan voqea deb o'ylashgan. Ular adashmagan, ular hech kimni aldamagan va ular afsona yaratmagan. Ular ko'rgani, eshitgani, ushlab teginib ko'rgani

va boshdan o'tkazgan kechinmalari haqida gapirgan. Lekin biz, ular to'g'ri yo'l tutgan deb, ishonch bilan aytishimiz mumkinmi?

Ha, mumkin. Nimaga?

NIMA UCHUN ULAR ISO TIRILGAN DEB HISOBLASHGAN?

Keling gapimizni aniq bir savol bilan boshlaymiz. Umuman olganda, Muqaddas Kitob mualliflari va ilk masihiylarni Iso tirilishiga ishontirishga nima majbur qilgan? Ularning guvohligiga asosan bu e'tiqod ikki sababga ko'ra paydo bo'lgan: 1) haftaning birinchi kuni ertalab ular Isoning jasadi qo'yilgan qabrni bo'sh holda topishgan; 2) Isoning o'limidan keyin ular Uni jismonan bir necha marta ko'rishgan.

Ilk masihiylarning mazkur tajribasiga kelsak, ba'zi vaziyatlarni tushunish muhim. Birinchidan, mualliflar Isoning jisimsiz, ruh, arvoH yoki shunga o'xshash holatda paydo bo'lganini (ya'ni jismoniy tanasiz) qat'iy rad etishadi. Luqo Iso O'zini shogirdlariga birinchi marta zohir bo'lganida, Iso O'ziga teginib ko'rishni taklif qilmaguncha ular chindan ham Uni arvoH sifatida qabul qilishgan: "Ruhning etu suyagi bo'lmaydi". Bu so'zlarni tasdiqlash maqsadida Iso qovurilgan baliqdan bir qismini yegan (Luqo 24:39, 42-43). (Baliq qovurilganligi haqidagi eslatma juda qiziq. Pishirilgan, qovurilgan yoki qaynatilganligini nima farqi bor? Hech qanday. Bu afsonalarga qo'shilmaydigan tafsilotlardan biri hisoblanadi. Bu yaqqol bo'lmagan, lekin aniq ko'rsatma bo'lgani uchun tirik guvoh aytayotgan voqeadir.)

Ikkinchidan, shogirdlarga zohir bo'lgan shaxs boshqa bo'lmay, balki *aynan xochda o'lgan Iso* ekaniga ularning ishonchi komil bo'lgan. Iso Tomaga dedi: "Barmog'ingni bu yerga uzat va qo'llarimga qara, qo'lingni bu yerga cho'z va biqinimga qo'y" (Yuhanno 20:27). U arvoH bo'lmagan. U boshqa qandaydir shaxs ham bo'lmagan. Havoriylar,

ularga zohir bo'lgan shaxs xochga mixlangan Iso ekanini ta'kidlab o'tishgan.

Na bo'sh qabr, na Isoning zohir bo'lishi havoriylarga tirilish haqida gapirish uchun bunday ishonch bermasligini tushunish muhim. Agar ular faqat bo'sh qabrni ko'rganida, albatta boshini chayqagancha tarqab ketishar, lekin Iso tirildi deb ishonmagan bo'lishar edi. Juda ko'p variantlar bor: qabr talon-taroj bo'lgan, rimliklar tomonidan yana bir mazax sifatidagi harakat bo'lgan yoki shogirdlar adashib boshqa qabrga kelgan bo'lishi mumkin!

Shu bilan birga ular uchun faqat Isoni ko'rishning o'zi yetarli emas edi. Bu yerda ham ko'plab izohlar bo'lishi mumkin: bu arvoq yoki ko'rinish bo'lishi mumkin, bu qallob yoki shunga o'xshash odam ham bo'lishi mumkin! Agar jasad qabrda qolganida hech kim tirilish haqida gapirishni o'ylamagan bo'lar edi.

Ammo havoriylar bo'sh qabrdan tashqari, Isoning zohir bo'lganligini ko'rgani ularning ongi o'zgarishiga sabab bo'ldi. Qabr bo'sh edi chunki Iso tirilgan edi. "U bu yerda yo'q. O'zi aytganidek, qayta tirildi" (Matto 28:6). Buni havoriylar tasdiqlagan. Aynan shuning uchun ular ishondi, Isoning chindan ham tirilganiga ishongani uchun hatto o'limga ham rozi bo'lishgan. Albatta, siz ularga ishonmasligingizni aytishingiz mumkin: o'sha yakshanba kuni ertalab, *bundan boshqa* duch kelgan narsa bo'lgan bo'lishi mumkin. Agar shunday deb o'ylasangiz, unda boshqa biron bir narsani taklif qilishingiz kerak. Tirilish bo'lmagan bo'lsa, unda *nima sodir bo'lgan?*

BOSHQA IZOHGA HOJAT YO'Q

Siz qila olmaydigan yagona narsa (o'z fikringizni qanday bo'lsa shundayligicha ayta olsangiz) o'zingizni *hech narsa* bo'lmagandek

qilib ko'rsatish. Aniq bir narsa *yuz bergan* va mazkur hodisa dunyodagi keyingi ikki ming yilga o'z ta'sirini o'tkazgan. Hatto havoriylarning hayotida sodir bo'lgan voqealar ularning dunyoqarashini butunlay o'zgartirdi. Ular xochga mixlangan Iso – uzoq kutilgan Masih, yahudiylarning umidi, U – Xudoning O'g'li, odamlarning gunohini o'ziga olgan Xudoning Qo'zisi, O'z xalqi orasida boshlanishi kerak bo'lgan yangi ijodning birinchi mahsuli, tirilishidan keyin O'z hayotiga o'xshash yangi tug'ilish singari O'z xalqini bir marta va butunlay qutqarib olgan va dunyoga yangi tug'ilishni ato qilgan shohlar Shohi ekaniga ishonishgan. Ular bu haqiqat haqida va'z qilish maqsadida hayotini o'zgartirishgan: oldingi ishlarini qoldirgan, uylarini tark etgan, hatto ularni (rivoyatlarga ko'ra) boshini tanasidan judo qilishganida, xochga mixlashganida, nayza sanchishganida, terisini tanasidan sidirib olishganida va toshbo'ron qilishganida ham e'tiqodida mustahkam turib bundan voz kechishmagan.

Bunga biror sabab bo'lishi kerak edi.

U yerda chindan ham o'liklar ichidan tirilish yoki boshqa biron-bir kuchli taassurot bo'lgani aniq. Chunki barcha shogirdlar bir vaqtning o'zida bu ishonchni qabul qilgan. Bundan tashqari, azobli o'limga qaramay ular o'z hayotini o'zgartirib, o'z e'tiqodi haqida gapirishgan. Unda oxirgi savolni berishga to'g'ri keladi: kimdir hamma narsani tushuntira oladigan boshqa talqinni taklif qilganmi? Ko'pchilik buni bajarishga harakat qilgan.

Ehtimol, ayollar boshqa qabr oldiga borib barchani xursand qilgan va o'z xatolarini sezmagandir. Balki. Lekin Isoning tirilishi haqidagi xabar shahar bo'ylab juda tez tarqalgan. Nima uchun hukumat *to'g'ri* qabrdagi jasadni ko'rsatmadi? Ular bu qabr qayerda joylashganini aniq bilishardi: chunki rim qo'riqchisi u yerga muhr qo'ygan edi. Qayd etganimizdek, faqat qabr bo'shligi haqidagi yangilikdan hech kim Iso

tirildi degan fikrga kelmagan. Iso yana shogirlariga ham *tirik holda zohir bo'lgan!* Agar siz ular adashgan deb aytadigan bo'lsangiz, mayli. Tirilish bo'lmagan bo'lsa unda nima sodir bo'lgan?

Mayli, ehtimol Iso chindan ham o'lmagandir. Aytaylik, *U o'lim yoqasida edi.* Keyin U qabrdan chiqib yashirinib o'tirgan shogirdlari oldiga qaytgan. Balki shundaydir. Lekin unda nimaga . . . To'xtang, yana qanday "balki"! Nima biz chindan ham Iso xochga mixlanganidan so'ng tirik qolganiga va hamma joyi yarador, nayza sanchilgan, suvsiz va ochlikdan o'layotgan holda qo'rquv va shubhada qolgan shogirdlariga zohir bo'lib, O'zini – hayot Hukmdori va o'lim G'alabachisi ekaniga ishontirmoqchi bo'lgan deb hisoblaymizmi? Juda ishonish qiyin bo'lgan holat deb aytgan bo'lar edim. Bunday holda ular voizlik qilish uchun emas, balki shifokor izlab ketgan bo'lishar edi!

Balki shogirdlar jasadni o'g'irlab, keyin Isoning o'liklar ichidan tirilgani haqida aytishgandir? Balki, bu jahon tarixidagi eng muvaffaqiyatli yolg'on bo'lgandir? Yo'q, bu hikoyada yolg'onga o'xshash hech narsa yo'qligi haqida avvalroq aytib o'tgan edik, eng asosiysi hech kim yolg'on uchun o'limga bormaydi. Agar siz barchani aldagan bo'lsangiz, hammasi tugab boshingizni tanangizdan judo qilishganda, qo'lingizdan ustunga mixlashganda, qizib turgan yog'ga tashlaganda yoki ma'badning devoridan pastga uloqtirganda siz yana quyidagi so'zlarni aytmaysiz: "Ha, U tirik!" Siz mazkur hikoyaga *haqiqatdan ham shunday bo'lgani uchun ishonasiz.*

Ehtimol, havoriylar ommaviy alahsirashning qurboni bo'lgandir. Yo'q, biz bu taxminni batafsil muhokama qilib bo'ldik. Turli odamlar bir hafta ichida bir necha bor Isoni ko'rganligi haqidagi so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ommaviy alahsirash g'oyasi o'z-o'zidan be'manilik hisoblanadi.

Ehtimol, bunday holatda ularni qandaydir tush, ko'rinish, mistik kechinma yoki yangi ruhiy hayotga bo'lgan mukammal samoviy kechirimni his qilishi hayratga solgandir. Ehtimol, ular "tirilish" deganda Isoning o'liklar ichidan tirilganini emas, balki aynan shuni nazarda tutayotgan bo'lsa kerak. Balki, barcha Yangi Ahddagi voqealar haqiqatni ifodalovchi katta bir metafora bo'lib, uni to'g'ridan-to'g'ri tushunish kerak emasdir.

Yo'q, birinchi navbatda gap shundaki, tirilish haqidagi voqealar ruhiy metaforaga o'xshamaydi. Ular yuz bergan voqeaga guvoh bo'lishgan. Buni sezmaslik uchun juda ko'p harakat qilish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, birinchi asrda yashagan yahudiylar tush, ko'rinish va ekstatik diniy kechinmalar bilan yaxshi tanish bo'lgan. Yahudiylar uchun masih-qalloblar nomiga ega bo'lganlar yangilik hisoblanmagan, chunki ular hukumat tomonidan o'limga topshirilgan. Shuning uchun qatl qilingan "masih" bilan bog'liq bo'lgan ko'rinish yoki mistik kechinma (his-tuyg'u haqida gapirmaganda), o'zini o'limga ham topshirishga rozi bo'lgan ilk masihiylar tomonidan Isoni tirilishiga bo'lgan dunyoqarashni o'zgartiradigan imonni keltirib chiqargan bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, birinchi asrda yashagan yahudiylar his-tuyg'uni hisobga olmaganda, ko'rinish yoki mistik kechinma qay darajada kuchli bo'lishidan qat'iy nazar hech qachon "tirilish" so'zini ishlatishmagan. Buning sababi, "tirilish" so'zi mutlaqo aniq ma'noga egaligidadir. Bu tana va ruhni jismonan hayotga qaytishini bildiradi. *Bundan boshqa hech qanday* ma'noni bildirmaydi. Ilk masihiylar Iso bilan nima sodir bo'lganini gapirganda *aynan shu so'zni* ishlatishgan.

Ehtimol, ular o'z-o'zini aldash qurboni bo'lgandir? Balki, ular Isoning o'limini *kuchli* xohlamagani uchun o'zlarini U tirik

deb ishonitirishgandir? Yana va yana yo'q. Shogirdlar ustoz va do'stining o'limidan tasalli qidirganda ham, ular tirilish haqida umuman o'ylamagan bo'lar edi. Lekin ular o'zlarini Iso ruhan tirik va shunga o'xshash so'zlar bilan yupatishgan. Ammo birdan Isoning tirilgani va oxirigacha ulug'langani haqida ularga kelgan fikr umuman aqlga sig'maydi. Ko'rgani va boshdan kechirgani *ular da boshqa tanlov qoldirmaganida*, shunda buni tasdiqlagan bo'lishar edi. Tushunyapsizmi? Ilk masihiylar Isoning tirilishini juda *xohlagani* uchun bunday deb aytishmagan. Ular ko'rgan narsalariga boshqa izoh topa olmagan uchun shunday deb aytishgan. Bunday xulosaga ularni o'zini-o'zi aldash emas, balki o'z ko'zlari bilan ko'rgan holat olib kelgan.

Bundan tashqari, biz bilgandek, shogirdlar tirilish haqidagi xabarni qabul qilishga tayyor emas edi. Aksincha, shogirdlar ishonishidan oldin uzoq vaqt *ishonmagani* sabab, Isoni ularga ta'na qilishga to'g'ri keldi. Yo'q, shogirdlar *umuman* oxirigacha bir shaxsning tirilishiga psixologik, diniy va madaniy darajada tayyor emas edi. Bu holatning amalga oshgani ularning ongini ag'dar-to'ntar qilib, izoh qidirib azoblanishiga sabab bo'ldi.

Shunday qilib, o'sha yakshanba kuni ertalab nimadir yuz bergan va buni inkor etish be'manilikdir.

Endi sizdan *nima bo'lgan edi* deb so'ramoqchiman? Bu xato bo'lmagan, bu o'limga yaqin holat ham emas edi, bu yerda yolg'on ishlatilmagan, ommaviy gallyutsinatsiya ham bo'lmagan, ko'rinish yoki kechirim olishda mistik his-tuyg'u bo'lmagan, o'zini-o'zi aldash ham bo'lmagan – buning hech biri bo'lmagan. Agar yuqorida ta'kidlangan holatlar bo'lmagan bo'lsa, *unda nima bo'lgan?*

Ko'rib turganimizdek, ilk masihiylar qabrning bo'sh ekanligi va Isoning tirilganligini ko'rgani haqida bayonot qilishgan; bu

tajribadan kelib chiqqan ishonch ularning hayotini o'zgartirgan; hatto o'lim oldida ham ularning imonini tebranmasligiga sabab tarixiy jihatdagi faktdir:

Iso haqiqatdan ham o'liklar ichidan tirildi.

ISONING TIRILISHI NIMANI ANGLATADI?

So'zsiz aniq bo'lishiga qaramay savol bilan murojaat qilmoqchiman: kimdir o'liklar ichidan tirilgani uchun undan yuz o'g'irish mumkinmi? Bu juda katta va abadiy ahamiyatga ega bo'lgan haqiqat. Biz ushbu bobni tugatyapmiz, shuning uchun so'zni taniqli tadqiqotchi N. T. Raytga berishimga ijozat bersangiz, uning xulosasi biz uchun juda foydali bo'ladi. Shoshilmasdan diqqat bilan o'qib, o'ylab ko'ring:

Albatta, [Masihning tirilishi haqida aytilgan barcha so'zlar] mantiqiy yoki matematik dalil bo'la olmaydi. Tarixchi hech qachon Pifagor holatida bo'lolmaydi. . . . Tarix bilan vaziyat boshqa-boshqadir. Mutlaq ishonch bilan deyarli hech narsaga erishib bo'lmaydi: tarix – asosan g'ayritabiiy va takrorlanmas holatni o'rganishdir. Shuning uchun biz yuqori darajadagi ehtimollikni izlayapmiz, bunga barcha imkoniyat va taxminlarni ko'rib chiqish va mazkur hodisa qay darajada yaxshi tushuntirib berilganligi orqali erishish mumkin. Tirilish haqida fikr yuritganda, doim shubha qiluvchi va tanqidchilar ko'radigan narsalarni ko'rish mumkin: Ilk masihiylarning e'tiqodi paydo bo'lishi uchun yetarli darajada sharoit yaratilgan, ammo tanqidchilarning epistemologik va ontologik maorif toifasi yoki butparastlik toifasiga mos

keladigan izohlari hech qanday qiyinchilikka sabab bo'lmagan. Biroq, so'nggi ikki asr mobaynida ko'plab olimlarning umidsiz urinishlariga qaramasdan, (agar o'tmishdagi tanqidchilarning Selsa bilan boshlagan ishini hisobga olmasa), ular bunga izoh topa olishmagan. Ilk masihiylar allaqachon ularda bo'lgan imonni tushuntirish uchun bo'sh tobut va "uchrashuvlar", ya'ni Isoning tirilgani "ko'rinishini" o'ylab topishmagan. Balki, mazkur imonni bir nuqtaga tushib kelgan ikki hodisa sababli topishgan. Hech kim bunday bo'lishini kutmagan edi; hech qanday murojaat tajribasidan bunday g'oya chiqmagan edi; qanday ayblov (yoki kechirimni) boshidan kechirgani, Muqaddas Kitob ustida necha soat astoydil shug'ullanganidan qat'iy nazar – buni hech kim o'ylab topa olmagan bo'lardi. Boshqacha o'ylash – tarix bilan shug'ullanishni to'xtatib, o'z xayoli dunyosiga kirib borishni bildiradi. Yuqoridagi fikrning aksi esa, tarixni o'rganishni to'xtatib, o'z xayolot olamingizga sho'ng'ishdir. Bu yangi kognitiv uyg'unlikning buzilishi Ma'rifat davridan (17-18-asrlar) keyingi dunyoqarashning qulash xavfi borligidan darak beradi. Shu sabab, bu dunyoqarashni mustahkamlash strategiyasi ishlab chiqildi. Odatda tarixchilar qabul qiladigan dalillar nuqtai nazaridan biz taxlil qilayotgan voqeaga qaraydigan bo'lsak: bo'sh qabrning dalillari bilan birga tirik Isoning o'limi va tirilishidan keyin paydo bo'lganligi haqidagi dalillar birlashtirilib, ilk masihiylik e'tiqodini yaratdi va bu ikkisi birgalikda siz har qanday joyda topishingiz mumkin bo'lgan kuchli dalilni yaratadi.³²

Muqaddas Kitobga ishonish mumkin degan fikrga kelishdan

32. N. T. Rayt, *Xudoning O'g'lini tirilishi*, 706-707-betlar; [ingliz tili: Wright, *The Resurrection of the Son of God*, pages 706–7].

oldin uzoq yo'lni bosib o'tdik, shunday emasmi? Har qadamda bizni savollar poylab turganiga qaramay, Muqaddas Kitobni tarixiy jihatdan ishonchli deb aytishimiz mumkin. Mana nimada ishonch hosil qildik: Muqaddas Kitobdagi tarjimalarimiz to'g'ri; biz ega bo'lgan qo'lyozmalar asl nusxalarga to'liq mosdir (yoki hech bo'lmaganda bizga mazmunini qayta tiklashga imkon beradi); biz kerak bo'lgan hujjatlarni, eng yaxshilarini o'rganyapmiz; Muqaddas Kitobning mualliflari nodon bo'lmagan, aldamagan va san'at asari yozishni oldiga maqsad qilib qo'ymagan (ular bizga o'zining fikriga ko'ra haqiqatdan nima sodir bo'lganini aytishgan); va nihoyat, ular haqiqat deb *hisoblagan* narsalar aslida ham sodir bo'lganiga ishonish uchun bizda yetarli asoslar bor. Ta'riflangan mo''jizalarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, ularning ehtimollik darajasi g'ayritabiiy hodisalar haqidagi boshqa tarixiy voqealarning ishonchlilik darajasidan ancha ustun. Bor bo'lgan mo''jizalardan eng muhimi – Isoning tirilishi bo'lib, barcha guvohliklarga faqat bitta izoh bor va u ham bo'lsa *tirilishning haqiqatdan ham amalga oshganidir*.

Ammo fikrlashimiz kerak bo'lgan yana bir qadam bor. Agar tirilish bo'lgan bo'lsa, unda bizni Muqaddas Kitobga bo'lgan ishonchimiz tarixiy jihatdan tan olishdan ko'ra yanada yuqoriroq darajaga ko'tariladi.

Agar Iso chindan ham tirilgan bo'lsa, unda Muqaddas Kitob – Xudoning Kalomidir.

7

O'LIKLAR ICHIDAN TIRILGANNING SO'ZIGA ISHONING

Qaysidir ma'noda kitobni avvalgi bobda tugatmoqchi bo'ldim.

Men adolatga bo'lgan ishonchni hozirgina gapirgan so'zlarga asosan chin dildan qurishni istayman, chunki insoniyat tarixida haqiqatga nisbatan hech qachon bunday jiddiy tarzda da'vo qilish bo'lmagan: bizga taqdim etgan guvohliklarga eng yaxshi izoh, bu Isoning haqiqatdan ham o'liklar ichidan tirilganidir. Shuning uchun kitobni oxirigacha o'qib chiqasiz degan umiddaman, shuningdek, bu da'vo va u nimani anglatishi haqidagi fikr siz uchun eng hayajonli va hayratlanarli bo'ladi deb umid qilaman. Agar mazkur voqea chindan ham sodir bo'lgan bo'lsa, unda siz uchun Isoning tirilishi nimani anglatadi? Agar chindan ham shunday bo'lsa, unda javobingiz qanday bo'ladi?

Lekin bu kitob "Nima uchun Isoning o'liklar ichidan tirilganiga ishonish kerak?" deb nomlanmay, balki "Nima uchun Muqaddas Kitobga ishonish kerak?" deb nomlangani uchun savolimizni oxirigacha hal qilishimiz kerak. Biz birinchi navbatda Muqaddas Kitobdagi Yangi Ahdning to'rt Xushxabari *tarixiy hujjatlar* ekanligi haqida fikr yuritib gaplashdik. Buni amalga oshirib, biz ular har qanday tarzda ilohiy yoki Xudodan ekanligi taxminidan kelib chiqib gapirmadik. Biz ularni Xudoning Kalomi va ular xatosiz yoki har doim to'g'ri degan taxmindan ham kelib chiqib gapirmadik. Aslida, qadimiy qishloq xarobalaridan topilishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday tarixiy hujjatlarni ishonsiz deb hisoblash mumkin bo'lganidek, Muqaddas Kitob

hujjatlarining ham tarixiy dalil sifatida ishonchsiz bo'lishi mumkin degan taxminlarni ham ko'rib chiqqanmiz. Ammo tarixiy nuqtai nazardan, ularning juda ishonchli ekaniga, *tarjimalarimiz*, qadimgi nusxa ko'chiruvchilarning *asl mazmunini yetkazishi*, boshqa hujjatlar ichida *aynan shu hujjatlarni* ishonchli deb topilishi va mualliflar, hamda ular yozgan voqealarni *ishonchli ekaniga* yana va yana amin bo'ldik. Muqaddas Kitobning tarixiy manba sifatida ishonchli ekanini ta'minlash uchun boshidan oxirigacha kuchli dalillar zanjirini yaratdik.

Biroq, biz masihiylar Muqaddas Kitobga ishonishimiz kerakligini aytganimizda, biz uning *tarixiy jihatdan ishonchli ekanini* nazarda tutmaymiz. Balki bundan ham ko'proq narsani nazarda tutamiz. Biz, Muqaddas Kitob Yaratgan tomonidan ilhomlangan Xudoning Kalomi ekaniga ishonamiz va shuning uchun Muqaddas Kitobdagi so'zlarning barchasini to'liq haqiqat deb tan olamiz. Mana misol tariqasida bizning jamoatda imon quyidagicha e'tirof etiladi:

Muqaddas Kitob – ya'ni Eski Ahd 39 kitobdan va Yangi Ahd 27 kitobdan tashkil topgan Xudoning Kalomi ekaniga ishonamiz; u Xudo tomonidan ilhomlangan odamlar orqali yozilgan, ilohiy ko'rsatmalarning komil xazinasi hisoblanadi; uning muallifi Xudo, maqsadi najot bo'lib, unda yolg'on aralashmagan haqiqat bor; unda Xudo bizni hukm qilishi kerak bo'lgan qonunlar ochib berilgan. Shuning uchun Muqaddas Kitob hozirda va oxirigacha masihiylar ittifoqining haqiqiy markazi, barcha bilim, imon va itoatkorlik najotining yagona, aniq, hamda hokimiyatga ega bo'lgan manbai bo'lib qoladi.³³

33. "Biz nimaga ishonamiz", Uchinchi avenyudagi Baptist jamoati, Luis-vill, Kentukki; [ingliz tili: "What We Believe," Third Avenue Baptist Church, Louisville, KY, accessed February 25, 2015, <http://www.thirdavenue.org/What-We-Believe>].

Jamoatimizning har bir a'zosi Muqaddas Kitob "Xudoning yozilgan Kalomi" ekaniga, uni "Xudo tomonidan ilhomlangan holda" odamlar yozganiga, u "ilohiy nasihatlarining komil xazinasi" ekaniga, uning "muallifi Xudo" ekaniga va hatto Muqaddas Kitobda "yolg'on aralashmagan haqiqat borligiga" ishonadi. Shubhasiz, bu tarixiy haqiqatga bo'lgan ishonchdan ham ancha ustundir!

Masihilar mazkur so'zlarni aytganda nimani nazarda tutayotgani haqida o'ylash uchun na vaqtimiz, na joyimiz bor. Muqaddas Kitobning *ilohiyligi* va *bexatoligi* mavzusida alohida kitoblar bor (ilovaga qarang). Birinchi o'rinda, masihilar Muqaddas Kitob haqida nima gapirishini tushunishimiz juda muhim. Qisqa qilib aytganda, Iso o'liklar ichidan tirildi. Iso tirilgani uchun Uning aytgan so'zlariga ishonamiz, agar Isoning O'zi Eski Ahdni ma'qullab, Yangisini boshlagan bo'lsa, unda uning ishonchli va haqiqiy ekaniga aminmiz.

MASIH TIRILISHI KERAK EDI

Masihilar uchun tirilish ko'p sabablarga ko'ra muhim hisoblanadi. Bu imon orqali Masih bilan ittifoq tuzganlar U kabi tirilishini bildiradi. Bu Iso gunoh uchun O'zini xochda keltirgan qurbonligini Xudo butunlay qabul qilganini va Xudoning oldidagi gunohimizdan qutqarish uchun bu qurbonlik yetarli ekanini anglatadi. Bu endi Iso yer yuzida yashayotgan xalqni boshqarishini, uni himoya qilishini, unga shafolat qilib, hamda unga yaxshilik qilishini anglatadi. Bu shuningdek, Xudo Isoning kimligi va qanday kuchga ega ekanligi haqidagi bayonotini joriy qilgani, ma'qullagani va tasdiqlaganini bildiradi.

Buni tushunish qiyin emas. Isoning tirilishi boshqa mo'jizalar singari voqea baxtli nihoya topishi uchun shunchaki ta'sir qilmadi. Iso har safar tirilish haqida gapirganda, doimo buni O'zining kim ekanligi

bilan bog'lagan. Misol uchun, Xushxabarchi Matto Iso O'z xizmatini tugatishidan oldin uch marta o'lib-tirilishi haqida karomat qilganini yozgan. Iso har safar bu haqda *Masih ekanini tasdiqlovchi muhim xulosa sifatida* gapirgan. Keling mazkur uch bashoratni ko'rib chiqamiz.

Iso dastlab shogirdlaridan Uni kim deb hisoblashi haqida so'radi. Petrus "Sen Barhayot Xudoning O'g'li – Masihsan, – dedi" (Matto 16:16). Bu iboraning ma'nosi bitmas-tuganmasdir, lekin Petrus Iso uzoq kutilgan Isroilga kelishi kerak deb karomat qilgan Masih (moylangan degan ma'noni anglatadi, shohni shunday chaqirishgan), shuningdek Xudoning O'g'li (Isoning O'zi *ham* Xudo ekanini anglatadi) ekanini tasdiqladi. Iso buni eshitib xursand bo'ldi va mazkur ochiqlikni Ota Xudo ochib bergani uchun Petrus baxtli ekanini aytib o'tdi. Petrus Isoni Shoh sifatida tan olganidan keyin Iso Shoh sifatida harakat qila boshladi. U jamoatning boshlanishi – Shohning yer yuzidagi vakolatxonasini o'rnatib, uni himoya qilish va berilgan vazifani bajarish uchun kuch berishini va'da qildi. Iso bu vakolatxonaga O'z nomidan gapirish huquqini berib, keyin juda muhim narsalar – Shoh, Masih nimani anglatishi haqida havoriylarga ta'lim bera boshladi. Matto (buni hammasini ko'rgani va eshitgani haqida esdan chiqarmang) quyidagi so'zlarni yozib qoldirgan:

Shu vaqtdan boshlab, Iso O'zining Yerusalmiga borishi va oqsoqollar, oliy ruhoniylar, ulamolardan ko'plab azob chekib, o'ldirilishi va uchinchi kuni tirilishi kerakligini shogirdlariga ochiq ayta boshladi (Matto 16:21).

Birinchidan, Matto aytgan so'zlarga e'tibor bering: "Shu vaqtdan boshlab, Iso . . . shogirdlariga ochiq ayta boshladi." Bu qandaydir qisqa suhbat bo'lmaganligi aniq. O'sha paytdan boshlab Iso O'zining

ta'limotidagi mohiyatni ochib bera boshladi. Bundan tashqari, "kerak" degan so'zga e'tibor bering. U Yerusalmga borib, ko'p azob chekishi, o'ldirilishi va uchinchi kuni tirilishi "kerak" edi. Endi "ochiq" chasiga deb aytilgan so'zga e'tibor qarating. Bu bo'lishi kerak bo'lgan narsalarni Iso ochiqchasiga aytganini bildiradimi? Qaysi nuqtai nazardan ularga ochiqchasiga aytdi? Mantiqanmi? Aqlanmi? Yo'q, bu Muqaddas Kitobning Eski Ahdida yozilgan so'zlar nimani anglatishini ochiqchasiga aytishni bildiradi. Tushunyapsizmi? Masihning roli, Uning maqsadi va taqdiri hal qilinmagan holatda emas, hammasi Eski Ahdda aniq belgilab qo'yilgan edi, bu Masih tirilishi kerakligini anglatadi. Iso "Masih o'liklar ichidan tiriladi, deb aytilgan edi. Agar tirilmasam, unda Men Masih emasman. Ammo Men tirilaman, shuning uchun . . ." Xulosa qilib aytganda buni O'zi so'rayapti.

Iso ikkinchi marta O'z o'limi haqida bir necha kundan keyin bashorat qildi. Bu safar U O'z so'zlarini Eski Ahdning Masih haqidagi bashorati bilan bog'ladi. Bu haqda Matto shunday yozadi:

Ular Galiliyada turganlarida, Iso shogirdlariga dedi: "Inson O'g'li odamlar qo'lga tutib beriladi va ular Uni o'ldiradilar. Uchinchi kun esa U tiriladi". Shunda shogirdlari juda ham qayg'uga tushdilar (Matto 17:22-23).

Iso O'zini ko'pincha *Inson O'g'li* deb atagan, ammo bu U faqat "inson o'g'li" deganini bildirmaydi. Oxirgisini biz haqimizda yozilgan so'zlar deb aytsa ham bo'ladi. U mazkur unvonni Eski Ahddagi Donielning bashoratidan olgan: u vahiy orqali "inson qiyofasidagi bir Zotni ko'rgani" haqida gapiradi. Ya'ni Doniel ko'rgan shaxs odamga o'xshagan bo'lgan. Ammo "inson qiyofasidagi bir Zot" nima qilganiga e'tibor bering:

Men tundagi vahiyларimda, mana, samo bulutlari bilan kelayotgan inson o'g'lidek bir Zotni ko'rdim. U kunlariga ko'ra qadimiy Bo'lganning oldiga yetib bordi va Uning yoniga yaqin keltirildi. O'shanda barcha xalqlar, qabilalar va millatlar Unga xizmat qilishlari uchun Unga hokimiyat, shuhrat va shohlik berildi. Uning hukmronligi – mangu, hech o'tib ketmaydigan hukmronlikdir va Uning shohligi abadiy buzilmaydi (Doniel 7:13-14).

Iso O'zini *Inson O'g'li* deb ataganda aynan shu haqda gapirgan. Mazkur muhim unvon nafaqat shohlikka bo'lgan hokimiyatni, balki ilohiylikni ham ko'rsatadi. Biroq, biz uchun quyidagi narsa juda muhim: Matto 17:22 da Iso bu ismni tirilish bilan bog'layotganiga e'tibor bering. Yo'q, bu yerda Iso "kerak" so'zini aytmedi, lekin ma'no jihatdan bir xil. Mana U nimani nazarda tutyapti: "*Eski Ahdda bashorat qilinganidek*, Inson O'g'li o'ldiriladi va uchinchi kuni tiriladi. Agar bunday bo'lmasa, unda Men o'sha Inson O'g'li emasman. Ammo Men aynan o'sha Inson O'g'liman, shuning uchun xuddi shunday bo'ladi".

Iso Matto Xushxabarida O'zining tirilishi haqidagi uchinchi bashoratini Quddusga kirishidan oldin, ya'ni xochga mixlanishidan bir necha kun oldin aytgan. Mana Matto Uning so'zlarini quyidagicha yozgan:

Iso Yerusalimga borayotganida, o'n ikki shogirdini yo'ldan chetga chaqirib, ularga dedi: "Mana, biz Yerusalimga kirib boryapmiz. Inson O'g'li oliy ruhoniylaru ulamolarga topshiriladi va Uni o'limga hukm qiladilar. So'ng Uni xo'rlash, urish va xochga mixlash uchun majusiylarga topshiradilar. Uchinchi kuni esa U tiriladi" (Matto 20:17-19).

Bu yerda ham yangi narsa yo'q. Iso avval nimani bashorat qilgan bo'lsa shuni aytyapti: "Men Inson O'g'liman, shuning uchun buning barchasi amalga oshadi".

Tushunyapsizmi? Iso har safar tirilishni O'zining kimligi bilan bog'lagan. Agar Uning so'zlari amalga oshsa, unda U Masih, Shoh va Inson O'g'lidir. Agar amalga oshmasa, unda U unday emas. Isoning tirilishidan keyin havoriylar ham xuddi shu haqda gapirishgan. Shu nuqtai nazardan Havoriylar kitobining ikkinchi bobidagi va'zning ma'nosi juda aniqdir:

Isroil erkaklari, bu so'zlarni tinglanglar! Sizlarning o'zlaringiz bilganingizdek, Xudo, U orqali sizlarning oralaringizda amalga oshirgan qudratu mo'jizalar va alomatlar orqali Xudo guvohlik bergan Kishi, nazoriy Isoni Xudoning azaldan tayinlangan niyati va oldindan bilishiga ko'ra qo'lingizga topshirilgan shu Odamni sizlar tutib, Xudoning qonuniga ega bo'lmaganlarning qo'li bilan xochga mixlab o'ldirdingizlar. Biroq Xudo o'lim kishanini uzib, Uni tiriltirdi, chunki Uni ushlab qolishga o'limning kuchi yo'q edi. Chunki Dovud U haqida aytyapti: "Men Rabbiyni doimo o'z oldimda ko'rar edim, zero men tebranmasligim uchun U mening o'ng tomonimdadir. Shu sababdan, yuragim quvonib, tilim shodlandi, hatto tanam ham umidvorlikda orom topadi, chunki Sen mening jonimni do'zaxda qoldirmaysan va O'z muqaddasingning chirishni ko'rishiga yo'l qo'ymaysan. Sen menga hayot yo'lini anglatding, meni O'z huzuringda quvonchga to'ldirasan". Erkaklaru birodarlar! Men sizlarga otamiz Dovud haqida dadillik bilan aytayinki, u ham o'ldi, ham dafn etildi, uning

qabri ham bugunga qadar bizlardadir. U payg'ambar bo'lib va Xudo unga qasam ichib bergan va'dasi bo'yicha uning urug'idan Bo'lganni uning taxtiga o'tirg'izishini bilib, u Masihning tirilishini, Uning joni do'zaxda qolmasligini, jasadi esa chirishni ko'rmasligini oldindan aytdi. Ushbu Isoni Xudo tiriltirdi, bunga esa biz hammamiz guvohmiz. Shunday qilib, U Xudoning o'ng qo'li bilan yuksaltirilib va Otadan Muqaddas Ruh va'dasini olib, endi sizlar ko'rayotgan hamda eshitayotgan narsalarni yog'dirdi. Zero Dovud osmonga chiqmagan, lekin o'zi aytmoqda: "Rabbiy mening Rabbimga dedi: Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga poyandoz qilgunimcha, Mening o'ng tomonimda o'tirgin". Shuning uchun, ey, butun Isroil xonadoni, qat'iy bilinglar: Sizlar xochga mixlagan shu Isoni Xudo Masih va Rabbiy qilib qo'ydi (Havoriylar 2:22-36).

U nima haqida gapirayotganini tushunyapsizmi? Mohiyat mana nimada: sizlar Isoni o'limga topshirdingiz, lekin Xudo Uni hayotga qaytardi, sababi o'lim Uni ushlab turolmadi. Nimaga? Chunki Dovud aytganidek, Xudo Masihni o'lim ko'rishiga yo'l qo'ymadi. Dovud o'zini men Masihman *deb ayta olmagan*, chunki u vafot etib dafn qilingan va biz uning qabri qayerdaligini bilamiz. U kelajakdagi Masih haqida gapirgan. Bilasizmi nima? Xudo Isoni tiriltirdi va biz barchamiz bunga guvohmiz. Masihning tirilishi shart bo'lgani uchun Iso tirilgani sabab, *Isroilning xonadoni bilib qo'ysin, siz xochga mixlagan Isoni Xudo Rabbiy va Masih etib tayinladi*.

Petrus bundan ham aniqroq qilib gapira olmadi. Iso tirildi, shuning uchun O'zi aytganidek Iso – Masihdir.

ESKI AHD UCHUN TIRILISH NIMANI BILDIRADI?

Isoning tirilishi va O'zini Masih deb aytishi Muqaddas Kitob uchun qanday ahamiyatga ega? Muhim ahamiyatga ega. Eski Ahd Masihning hokimiyati keng qamrovli, to'liq va mutlaq bo'lishi haqida o'rgatadi. U hayotning barcha sohalarida hukmronlik qiladi. Lekin Uning hokimiyati xususan *Ota Xudo nomidan gapirishda ham namoyon bo'ladi*. Boshqacha qilib aytganda, U Payg'ambar, mazkur so'zning to'liq ma'nosidagi Payg'ambardir. Xudo Musoga o'xshagan Payg'ambarni yuborishni va'da bergan: "Men ularga birodarlarining orasidan xuddi senga o'xshagan Payg'ambarni ko'taraman, O'z so'zlarimni Uning og'ziga solaman va Men Unga buyurgan hamma narsani U ularga aytadi" (Qonunning takrorlanishi 18:18). Aynan shuning uchun Iso quyidagi so'zlarni ayta olgan: "Rostini, sizlarga rostini aytaman, agar O'g'il Otasining nima qilayotganini ko'rmasa, O'z O'zidan hech narsa qila olmaydi. Chunki Ota nima qilsa, O'g'il ham shuni qiladi" (Yuhanno 5:19). Aynan shuning uchun Yuhanno Iso haqida shunday degan: "Chunki Xudo yuborgan Shaxs Xudoning so'zlarini so'zlaydi" (Yuhanno 3:34). Masih *haqiqiy* payg'ambarga aylangan holda Xudo kim ekanini va nima gapirmoqchi bo'lganini to'liq ochib berdi.

Shuning uchun Iso – Masih, Payg'ambar va Xudoning nomidan gapirishi uchun mukammal kuchga ega bo'lgan shaxs O'z xizmatida Eski Ahdga qanday murojaat qilinganiga alohida e'tibor berishi kerak. Misol tariqasida Iso tirilgandan keyin O'z shogirdlariga nima haqida garirganini Luqo Xushxabarida ko'rish mumkin:

Iso ularga dedi: "Men hali sizlar bilan birga bo'lganimda, Men haqimda Musoning Qonunida, Payg'ambarlar va Sanolar kitobida yozilganlarning barchasi bajo bo'lishi kerak, deb aytgan edim-ku" (Luqo 24:44).

Yahudiylar buni ko'pincha Eski Ahd – “qonun, payg'ambarlar va bitiklar” yoki “qonun va payg'ambarlar” uchun qo'llashgan. Shuning uchun Iso “Musoning qonuni, payg'ambarlar va Zabur sanolari Men haqimda yozilgan va barchasi bajo bo'lishi kerak”, deb aytganida (Zabur Muqaddas Kitobdagi eng katta bitikni bildiradi), U butun Eski Ahdning boshidan oxiriga qadar ishonchligini tasdiqladi. (Aytgancha, U Eski Ahd kanonini an'anaviy ravishda yahudiylar tomonidan e'tirof etilgan 39 ta kitobni aniq qilib belgilab qo'ydi.)

Ammo Isoning Eski Ahd haqidagi shahodati hatto shu bilan ham cheklanib qolmadi. Chunki Iso uni nafaqat hokimiyatga ega deb hisoblagan; Iso uni Xudoning Kalomi deb aytgan. Matto Xushxabaridagi oyatga e'tibor bering:

Farziylar ham Unga kelib, Uni vasvasaga solib: – Har qanday sababga ko'ra erkak o'z xotinidan ajralishi mumkinmi? – deb so'radilar. U ularga javob dedi: – Yaratuvchi azaldan ularni erkak va ayol qilib yaratganini o'qimaganmisizlar? Shuning uchun inson ota-onasini qoldirib, o'z xotiniga yopishadi va ikki kishi bir tana bo'ladi. Shuning uchun ular endi ikkita emas, balki bir tanadir. Shunday qilib, Xudo qo'shganini inson ajratmasin (Matto 19:3-6).

Bu yerda farziylar va Isroilning ruhiy yo'l boshchilari Iso Muqaddas Bitikni qanday tushunishini so'rashgan. Albatta, ularni javob qiziqitirmagan, chunki Uni tuzoqqa ilintirib obro'sini pasaytirishni xohlashgan. Ularning suhbatini o'zi hayratlanarli. Lekin men quyidagi so'zlarni Iso qanday qilib aniqlaganiga e'tibor berishingizni istayman: "Shuning uchun, inson ota-onasini qoldirib,

o'z xotiniga yopishadi va ikki kishi bir tana bo'ladi", so'zlarini aytgan Zot, "Yaratuvchi azaldan ularni erkak va ayol qilib yaratgan" deb ham aytgan.³⁴ Eng qizig'i, Ibtido kitobiga qarasangiz, bu so'zlar Xudo tomonidan aytilganligi ko'rsatilmagan. Bu Ibtido kitobini yozgan odamning sharhi sifatida yozilgan. Lekin hamma gap shunda: Iso Eski Ahdning Xudo to'g'ridan-to'g'ri gapirmagan qismlarini ham *Xudo gapirgan so'zlar sifatida* tushungan.

Xuddi shuni Mark 12:36 da ko'rish mumkin, Iso Dovud tomonidan yozilgan Zaburni misol tariqasida keltirganida, quyidagi so'zlar bilan xabardor qiladi: "Dovudning o'zi Muqaddas Ruh bilan degan . . ." Iso Masih Eski Ahdning har bir so'zi boshidan oxirigacha Xudoning Kalomi ekanini, ya'ni birinchi so'zdan tortib oxirigacha haqiqat ekanini tasdiqlayapti. Bu Eski Ahdning Xudo haqidagi ta'limoti va Isoning so'zlariga ko'ra Eski Ahd tarixiy ekaniga ishora qiladi. To'rt Xushxabarning turli joylarida Iso har xil odamlar va voqealar haqida gapirib, ularni tarixiy jihatdan ishonchli deb hisoblaydi: Odam Ato va Havva haqida, Qa'n va Hobil, Nuh, Ibrohim, Sodom va Gamora, Is'hoq, Yoqub, Muso, samoviy manna, bronza ilon, Dovud va Sulaymon, Sheba malikasi, Eliyah va Elisha, Zarepatlik beva, Neheman, Isha'yo, Yermiyah, Zakariyo va hatto katta baliq yutib yuborgan Yonah haqida. Iso Eski Ahddagi barcha tafsilotlarga ishongan. Bu juda muhim ahamiyatga ega, chunki U – Masih.

34. O'zbek tarjima-dagi punktuatsiya muallifning xulosasini ko'rishga imkon bermaydi. Ingliz va rus tilidagi tarjimalarda mazkur oyat shunday jaranglaydi: "U javob berdi: "O'qimaganmisizlar, ularni yaratgan Zot avvaldan ularni erkak va ayol qilib yaratgan va shunday degan: "Shunday qilib, erkak ota-onasini qoldirib, xotiniga mahkam yopishadi va ikkalasi bir tan bo'ladi." Shunday qilib, ular endi ikkita emas, balki bitta tanadir. Xudo birlashtirganni inson ajratmasin." – Tarjimon eslatmasi

Biroq ba'zida odamlar bu haqda shubha qilishadi: "Iso Eski Ahdda ba'zi joylardagi aytilgan gaplarni *to'g'irlamaganmi*? Ba'zi joylarni xato va noto'g'ri deb hisoblamaganmi, O'z izdoshlariga boshqacha munosabatda bo'lishni buyurmaganmi?" Yo'q. To'g'ri, Iso "Eshitgansizlar . . . ammo Men sizga aytaman . . .", degan iboralarni ishlatgan. Bunday holatlarni ko'rib chiqish uchun bizda vaqt yo'q (siz batafsil izohni istagan yaxshi Muqaddas Kitob sharhidan topishingiz mumkin), ammo bu holatlarning hech birida Iso Eski Ahdni to'g'rilamagani tushunish juda muhim. Iso Eski Ahdning haqiqiy ma'nosini buzish istagida bo'lgan noto'g'ri, riyokor va hatto niyati buzuq farziylarga yoki o'zi uchun ma'nosiz urinishga harakat qilganlarga to'sqinlik bildirgan. Bu hech qanday *tuzatishga* kirmaydi: Iso *Eski Ahdda aytilgan narsalarni tushuntirish uchun* O'zining shohlik va payg'ambarlik vakolatidan foydalangan, ya'ni isroilliklarning hayotida Muqaddas Bitikni hokimiyati, obro'si va haqiqatini tasdiqlagan. Iso tog'dagi mashhur va'zni tushuntirishdan oldin shunday degan: "Meni qonun yoki payg'ambarlarni bekor qilgani kelgan deb o'ylamanglar, Men bekor qilgani emas, balki bajo keltirgani kelganman" (Matto 5:17).

Albatta baribir germeneytikaga oid masalalar, talqin qilishga oid holatlar, Muqaddas Bitikdagi u yoki bu joyni qanday tushunish kerakligi, masihiylar hayotida ahd va amrni qanday qo'llash, hamda boshqa narsalar bilan bog'liq savollar bo'ladi. Bundan tashqari, Eski Ahdda ortodoksiallik, kanonlik va mualliflik masalalari bo'yicha noyob qarashlar bor. Mazkur mavzularning barchasi masihiy tadqiqotchilarning katta va jiddiy kitoblarida batafsil yoritilgan (ilovaga qarang). Muhimi boshqa. Nimaga jiddiy kitoblar Eski Ahd Xudoning Kalomi ekanini tasdiqlash bilan boshlanadi? Chunki tirilgan Iso Masih shunday deb aytgan. Shuning uchun biz ham shunga ishonamiz.

TIRILISH YANGI AHD UCHUN NIMANI ANGLATADI?

Yangi Ahd haqida nima deyish mumkin? Ochig'ini aytganda, Yangi Ahdda hammasi oddiy emas. Iso yer yuzida bo'lganida Yangi Ahdning obro'sini tasdiqlashi mumkin edi (xuddi Eski Ahdni tasdiqlaganidek), ammo Yangi Ahd hali yozilmagandi.

Shunga qaramay, masihiylik e'tiqodi Yangi Ahd – Xudoning Kalomiga va boshqacha tarzda tirilgan Iso Masihning hokimiyatiga asoslangan. To'rtinchi bobda ilk masihiylar ularga *berilgan* kitoblarning doimo hokimiyatiga ega va kanonligi haqida gapirgani esingizda bo'lsa kerak. Kanon darajasini aniqlashni asosiy mezonni havoriylik nufuzi hisoblangan. Biz bunday yondashuvning tarixiy jihatdan oqilona ekanini ta'kidladik: to'g'ri, bayon etilgan voqealar guvohlar tomonidan tasdiqlangan kitoblarga ishongan ma'qul.

Meros bo'lib qolgan kitoblarning hokimiyatini tasdiqlash maqsadida, tasdiqlashga bosh bo'lgan ilk masihiylar nima uchun havoriylikni asosiy va yagona mezon qilganining sababi bu emas. Asosiy sabab yana Isoning hokimiyati bilan bog'liqdir. Yuhanno 16-bobda Iso havoriylarga oxirgi nasihatini bergan. U tirilib osmonga ko'tarilgandan keyin havoriylarga ta'lim berish uchun Muqaddas Ruhni yuborishini va'da bergan. Bu chindan ham ajablantiradigan oyat:

Sizlarga ko'p narsalarni aytishim kerak, lekin hozir bularni sig'dira olmaysizlar. Haqiqat Ruhi kelganida esa, U sizlarni bor haqiqatga yetaklaydi. Chunki U O'zidan gapirmaydi, lekin nimani eshitsa, o'shani gapiradi va sizlarga kelajakni ma'lum qiladi. U Meni ulug'laydi, chunki Mendan olib sizlarga ma'lum qiladi. Otamga tegishli bo'lgan hamma narsa Menikidir. Shuning uchun Men, U Mendan olib, sizlarga ma'lum qiladi, dedim (Yuhanno 16:12-15).

Iso hokimiyat zanjirini qanchalik ajoyib tarzda tasvirlagan, shunday emasmi? U aytgan hamma narsa Otadan (Isoning bashorat qiladigan roli haqida yana bir bor eslaylik). Iso Otasidan kelgan hamma narsani Muqaddas Ruhga beradi, Muqaddas Ruh esa buni havoriylarga e'lon qiladi. Iso bu yerda havoriylarga ko'proq ta'limot kelishini va bu ta'limot *aynan ularga* kelishini aytmoqda. Eng qizig'i, havoriylar o'z yozuvlarida xuddi shu Muqaddas Ruhning hokimiyati va ilhomi bilan yozayotganlarini o'zlari anglashgan ko'rinadi. Bir parcha alohida muhim hisoblanadi. Havoriy Petrus o'zining ikkinchi maktubida kitobxonlarni oxirigacha chidamli bo'lishga chaqirib shunday deydi:

Sevikli birodarimiz Pavlus ham, unga berilgan donolik bo'yicha sizlarga qanday yozgan bo'lsa, xuddi shunday, Rabbimizning uzoq sabr-toqatini najot deb hisoblanglar. Pavlus bu haqida hamma maktublarida gapiradi. Bu maktublarda tushunish qiyin bo'lgan narsalar bor, shuning uchun johil va beqaror odamlar boshqa Yozuvlarga o'xshatib, bu maktublarni ham buzayaptilar. Bu esa ularni halokatga olib boradi (2-Petrus 3:15-16).

Petrus Pavlusning maktubini tushunishga noqulay deb hisoblashi juda qiziq. Ko'pincha boshqa masihiylar ham shunday deb o'ylashadi! Petrus bundan tashqari, Pavlus o'zining "hamma maktublarida", "unga berilgan donolik" bilan yozgani haqida aytadi. U oddiy donolik haqida emas, balki Iso havoriylarga va'da qilgan, "ularni har qanday haqiqatga yo'naltiradigan" Muqaddas Ruh haqida gapirgan. Oxirida Petrus "johil va beqaror odamlar" o'z manfaatlarini yo'lida Pavlusning so'zlarini *boshqa Bitiklar singari* noto'g'ri talqin qilishadi! Petrus Pavlus

tomonidan yozilgan maktublarni Eski Ahd singari hokimiyatga ega deb hisoblagan. Ular, Iso Muqaddas Ruh orqali bajarishni va'da qilgan narsalarni amalga oshirishdi.

Hokimiyatning quyidagi tarzda uzatilishi ilk masihiylar nima uchun kanon deb tan olishdan oldin, havoriylar tomonidan kelib chiqqan hujjatlarga shu darajada e'tibor berganini tushuntirib beradi. Gap *faqat* havoriylar Xushxabar voqealarining guvohi bo'lganida emas; gap Shoh *aynan ularga* jamoatni o'rgatish uchun *maxsus hokimiyatni berganidadir*.

To'rtinchi bobda shunday xulosaga keldik: Yangi Ahd kitoblari haqiqatdan ham zarur bo'lgan hokimiyatga ega, deb ishonch bilan aytishimiz mumkin. Agar siz to'rtinchi bobni qayta o'qib chiqmoqchi bo'lsangiz, shunday qiling. Yangi Ahd kanoni aynan shu kitoblardan iborat bo'lishi kerakligini tasdiqlaydigan ko'plab *tarixiy dalillar* mavjud. Lekin Yangi Ahddagi Iso ta'limotining aniq tarzda masihiy sifatida uzatilishi faqat tarixiy dalillarga asoslanmagan. U shuningdek, Muqaddas Ruhning harakati to'liq haqiqat sari yetaklashiga asoslangan bo'lib (Yuhanno 16:13 ga qarang), Yangi Ahd kanoni shakllanganini ham nazarda tutadi. Agar siz Isoning o'liklar ichidan tirilganiga va U butun borliqning Shohi ekaniga ishonch hosil qilsangiz, unda U O'zi va'da qilgan "har bir haqiqatni" bir kitobga yig'ish uchun g'amxo'rlik qila oladi.

Hamma gap shunda. Agar Iso tirilgan bo'lsa, unda U uzoq kutilgan Masih, Shoh, Xudoning O'g'li, to'liq ma'nodagi Payg'ambar. Agar bu to'g'ri bo'lsa, unda biz Isoga va U tasdiqlagan Xudoning Kalomi Eski Ahdga quloq solishimiz kerak. Bundan tashqari, Iso va'da qilgan barcha narsalarni to'liq bajarganiga ishonishimiz uchun asoslarimiz bor: Muqaddas Ruhni yubordi, Iso jamoatning manfaatini ochishni istagani uchun havoriylarni haqiqat yo'li sari yetakladi. Shuning

uchun jamoat haqiqatni tan olishi uchun Muqaddas Ruh ko'rsatma berib, mehnat qilganiga ishonishimiz uchun barcha asoslarimiz bor.

Masihiy odamning "nima uchun Muqaddas Kitobga ishonish kerak?" degan savoliga, yakuniy tarzda shunday javob berish mumkin: "Chunki tirilgan Shoh Iso, Eski Ahdni *tasdiqlab* Yangi Ahdning *yaratilishiga hokimiyat berdi*". Bu taxmin emas. Bu endi aql bovar qilmaydigan e'tiqod ham emas. Bu diqqat bilan o'rganib chiqilgan xulosadir:

1. Muqaddas Kitob tarixiy jihatdan ishonchli;
2. Iso o'liklar ichidan tirilgan;
3. Muqaddas Kitob shu tarzda Isoning obro'siga asoslangan.

Aynan shuning uchun biz Muqaddas Kitobga tayanamiz.

Aynan shuning uchun biz unga ishonamiz.

Xotima: KEYINGI SAVOL

Boshida aytib o'tganimdek, agar siz masihiy bo'lmasangiz bu sizni masihiylarga va Muqaddas Kitobga nisbatan biroz boshqacha tasavvurga undagan bo'lsa kerak deb umid qilaman. Biz masihiylar asossiz yoki oddiy isbotlanmagan taxminlarga ishonmasligimizni tushundingiz deb o'ylayman. Endi siz hech bo'lmasa: "Masihiylikda oldin e'tibor bermagan narsalarim bor ekan", deb aytarsiz.

Shu bilan birga, masihiylikni o'rganishda to'xtamaysiz degan umiddaman. Mazkur kitob Muqaddas Kitobning haqiqiy ekanini baholashingiz uchun biroz yordam bergan bo'lsa, unda siz bundan ham muhim bo'lgan va Muqaddas Kitobning o'zida doimo jaranglaydigan *Iso kim* degan savolga ham vaqt ajratasiz deb o'ylayman.

U O'zi haqida nima degan? Nima uchun bu muhim? To'g'risini aytganda, *Muqaddas Kitobning ishonchliligi* haqidagi xulosa *Isoga ishonish* mumkinmi degan suhbatga yetaklaydi. Bu haqda havoriy Yuhannoda boshqalarga nisbatan yaxshiroq yozilgan:

Bu narsalar esa, Isoning Masih
va Xudoning O'g'li ekanligiga ishonishingiz
uchun yozilgan, toki bunga ishonib,
Uning nomi haqi hayotga ega bo'linglar.
Yuhanno 20:31

Ilova

Qo'shimcha izlanishlar uchun manbalar

Ushbu kitobda men, ayniqsa, Kreig Blombergning ikkita ajoyib kitobiga tayandim. Bular: *Xushxabarlarning tarixiy ishonchliligi* hamda *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi?* kitoblaridir. Ikkalasi ham ushbu masalalarga chuqurroq yondashish uchun juda ajoyib manbalardir. Bundan tashqari, agar siz ushbu kitobda muhokama qilingan masalalarni batafsil o'rganmoqchi bo'lsangiz, men sizga quyidagi foydali manbalardan boshlashingizni tavsiya qilgan bo'lar edim:

MUQADDAS KITOB TARJIMALARI

Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi? (Can We Still Believe the Bible? An Evangelical Engagement with Contemporary Questions)*. Grand Rapids, MI: Brazos, 2014.

Fee, Gordon D. va Mark L. Strauss. *Qanday qilib Muqaddas Kitobning to'g'ri tarjimasini tanlash mumkin: Muqaddas Kitob versiyalarini tushunish va ulardan foydalanish bo'yicha qo'llanma (How to Choose a Bible Translation for All Its Worth: A Guide to Understanding and Using Bible Versions)*. Grand Rapids, MI: Zondervan, 2007.

Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi (The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible)*. Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999.

MUQADDAS KITOB QO'LYOZMALARINING YETIB KELISHI

Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi? (Can We Still Believe the Bible? An Evangelical Engagement with Contemporary Questions)*. Grand Rapids, MI: Brazos, 2014.

Metzger, Bryus M. *Yunoncha Yangi Ahdga matnli sharh (A Textual Commentary on the Greek New Testament)*. 2nd ed. Stuttgart: United Bible Societies, 2012.

Ulleys, Daniel B. *Yangi Ahdning o'zgartirilishini qayta ko'rib chiqish: Qo'lyozmaviy, patristic va apokriflarga oid dalillar (Revisiting the Corruption of the New Testament: Manuscript, Patristic, and Apocryphal Evidence)*. Grand Rapids, MI: Kregel, 2011.

Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi (The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible)*. Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999.

KANONLASHTIRILISH

Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi? (Can We Still Believe the Bible? An Evangelical Engagement with Contemporary Questions)*. Grand Rapids, MI: Brazos, 2014.

Bryus, F. F. *Muqaddas Yozuv kanoni (The Canon of Scripture)*. Downers Grove, IL: IVP Academic, 1988.

Hill, C. E. *Kim Xushxabarlarni tanlagan? Buyuk Xushxabar fitnasini tekshirib ko'rish (Who Chose the Gospels? Probing the Great Gospel Conspiracy)*. Oxford: Oxford University Press, 2010.

Kruger, Michael J. *Kanonni qayta ko'rib chiqish: Yangi Ahd kitoblarining kelib chiqishi va hokimiyatini belgilash (Canon Revisited:*

Establishing the Origins and Authority of the New Testament Books). Wheaton, IL: Crossway, 2012.

Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi (The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible)*. Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999.

KALOMIY MUALLIFLARNING ISHONCHLILIGI

Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi? (Can We Still Believe the Bible? An Evangelical Engagement with Contemporary Questions)*. Grand Rapids, MI: Brazos, 2014.

Blomberg, Kreig L. *Xushxabarlarning tarixiy jihatdan ishonchliligi (The Historical Reliability of the Gospels)*. 2nd ed. Downers Grove, IL: IVP Academic, 2007.

Bryus, F. F. *Yangi Ahd hujjatlari: Ular ishonchlimi? (The New Testament Documents: Are They Reliable)?* 6th ed. Grand Rapids, MI: Eerdmans / Downers Grove, IL: InterVarsity Press, 2003.

Hoffmeier, Jeyms K., va Dennis R. Magary, muharrirlar. *Tarixiy masalalar imon uchun muhimmi?: Muqaddas Yozuvga zamonaviy va postmodern yondashuvlarga tanqidiy baho (Historical Matters Matter to Faith?: A Critical Appraisal of Modern and Postmodern Approaches to Scripture)*. Wheaton, IL: Crossway, 2012.

ISONING MO"JIZALARI

Blomberg, Kreig L. *Biz hali ham Muqaddas Kitobga ishonishimiz mumkinmi? (Can We Still Believe the Bible? An Evangelical Engagement with Contemporary Questions)*. Grand Rapids, MI: Brazos, 2014.

Kiner, Kreig S. *Mo'jizalar: Yangi Ahd hikoyalarining ishonchliligi* (*Miracles: The Credibility of the New Testament Accounts*). Grand Rapids, MI: Baker Academic, 2011.

ISONING TIRILISHI

Habermas, Gary R., va Michael R. Licona. *Isoning tirilishiga doir ish* (*The Case for the Resurrection of Jesus*). Grand Rapids, MI: Kregel, 2004.

Strobel, Lee. *Tirilishga doir ish: Birinchi asr muhbiri Xoch tarixini o'rganmoqda* (*A First-Century Reporter Investigates the Story of the Cross*). Grand Rapids, MI: Zondervan, 2009.

Wright, N. T. *Xudo O'g'lining tirilishi. 3-jild - Masihilikning kelib chiqishi va Xudoga doir savol*. (*The Resurrection of the Son of God*. Vol. 3 of *Christian Origins and the Question of God*). Minneapolis: Fortress, 2003.

ESKI AHD MASALALARI

Hoffmeier, Jeyms K., va Dennis R. Magary, muharrirlar. *Tarixiy masalalar imon uchun muhimmi?: Muqaddas Yozuvga zamonaviy va postmodern yondashuvlarga tanqidiy baho* (*Historical Matters Matter to Faith?: A Critical Appraisal of Modern and Postmodern Approaches to Scripture*). Wheaton, IL: Crossway, 2012.

Longman, Tremper, III, va Raymond B. Dillard. *Eski Ahdga Kirish 2-tahrir* (*An Introduction to the Old Testament*. 2nd ed). Grand Rapids, MI: Zondervan, 2006.

Uegner, Paul D. *Matnlardan tarjimalar tomon sayohat: Muqaddas Kitobning kelib chiqishi va shakllanib borishi* (*The Journey from Texts to Translations: The Origin and Development of the Bible*). Grand Rapids, MI: Baker Academic, 1999.

ILHOM VA BEXATOLIK

DeYoung, Kevin. *Xudoni O'z Kalomida qabul qilish: Nima uchun Muqaddas Kitob tushunarli, kerakli va yetarli va bu siz va men uchun nimani anglatadi (Taking God at His Word: Why the Bible Is Knowable, Necessary, and Enough, and What That Means for You and Me)*. Wheaton, IL: Crossway, 2014.

Kaiser, Walter C., Jr., Peter H. Davids, F. F. Bruce, va Manfred T. Brauch. *Muqaddas Kitobdagi og'ir so'zlar (Hard Sayings of the Bible)*. Downers Grove, IL: InterVarsity Press, 2010.

MakArtur, Jon, muharrir. *Muqaddas Bitikni buzib bo'lmaydi: XX asrning bexatolik ta'limotiga oid yozuvlari. (The Scripture Cannot Be Broken: Twentieth Century Writings on the Doctrine of Inerrancy.)* Wheaton, IL: Crossway, 2015.

Packer, J. I. "Fundamentalizm" va Xudoning Kalomi: *Xushxabarga oid ba'zi tamoyillar ("Fundamentalism" and the Word of God: Some Evangelical Principles)*. Grand Rapids, MI: Eerdmans, 1958.

Sproul, R. C. *Muqaddas Kitobga ishonishim mumkinmi? Muhim savollar to'plami 2 (Can I Trust the Bible? Crucial Questions Series 2)*. Lake Mary, FL: Reformation Trust, 2009.

Muqaddas Kitobga iqtiboslar

<i>Qonunning takrorlanishi</i>	24:10.....96
18:18.....127	24:11.....90
	24:37.....90
<i>Sanolar</i>	24:39, 42-43.....110
92:4.....108	24:44.....127
<i>Doniel</i>	<i>Yuhanno</i>
7:13-14.....124	3:34.....127
	5:19.....127
<i>Matto</i>	16:12-15.....131
5:17.....130	16:13.....133
5:22.....54-55	20:24-25.....90
6:19-21.....31	20:27.....110
16:16, 21.....122	20:30-31.....83
17:22-23.....123, 124	20:31.....135
19:3-6.....128-129	
20:17-19.....124	<i>Havoriylar</i>
27:24.....45-46	2:22-36.....125-126
28:1.....96	13:13.....86
28:6.....111	15:37-41.....86
28:17.....90	
<i>Mark</i>	<i>1-Petrus</i>
10:50.....35-37, 39-40	3:15.....15, 20
12:36.....129	
<i>Luqo</i>	<i>2-Petrus</i>
1:1-4.....82	3:15-16.....132
1:3.....21	
3:1-2.....84	<i>1-Yuhanno</i>
	1:1-3.....83

To'plam haqida

9Belgilar (9Marks) kitoblar to'plami ikkita asosiy g'oyaga asoslanadi. Birinchidan, masihiylar hayotida mahalliy jamoat bugungi kunda ko'pgina masihiylar tasavvur qilganidan ko'ra ancha muhimroqdir. Biz 9Belgilar jamoasida ishonamizki, sog'lom masihiy bu sog'lom jamoat a'zovidir.

Ikkinchidan, mahalliy jamoatlar o'z hayotlarini Xudo Kalomi atrofida qurishganda hayotda va quvvatda o'sishadi. Xudo gapiradi. Jamoatlar Uni tinglashi va Unga ergashishi kerak. Bu juda oddiy. Jamoat tinglab, ergashganda, u ergashayotgan Shaxsga o'xshashni boshlaydi. U Uning sevgisi va muqaddasligini aks ettiradi. U Uning ulug'vorligini namoyon etadi. Jamoat Unga quloq solgani sari, Unga o'xshab boradi.

Shu nuqtai nazardan, Mark Deverning *Sog'lom jamoatning to'qqizta belgisi* [Nine Marks of a Healthy Church] nomli kitobidan olingan "9Belgilar"ning hammasi Kalom bilan boshlanishini payqashingiz mumkin:

1. Ekspositsion va'z
2. Xushxabar ta'limoti (doktrinas)
3. Yuqoridan tug'ilish va xushxabarchilikka doir Kalomiy tushuncha
4. Kalomga mos jamoat a'zoligi
5. Kalomga mos jamoatdagi tartib-intizom
6. Shogirdlik va o'sish borasida Kalomiy qarash

7. Kalomga mos jamoat yetakchiligi
8. Ibadat amaliyotiga doir Kalomiy tushuncha
9. Elchilik xizmatiga doir Kalomiy tushuncha

Jamoatlar sog'lom bo'lishi uchun nima qilishi kerakligiga doir bundan ko'proq narsalarni aytish mumkin. Lekin, ushbu to'qqizta amallar, bizning nazarimizda, eng e'tibordan chetda qolayotgan amallardir. Shunday qilib, jamoatlarga bizning asosiy xabarimiz, eng yaxshi biznes amaliyotlari yoki eng yangi uslublarga qaramang; Xudoga qarang. Xudoning Kalomiga yana quloq solishdan boshlang.

Ushbu barcha loyihadan, 9Belgilar nomli kitoblar to'plami ajralib turadi. Ushbu jildlar to'qqizta belgilarni chuqurroq, har xil tomonlardan o'rganish uchun mo'ljallangan. Ba'zilari cho'ponlar uchun. Ba'zilari jamoat a'zolari uchun. Umid qilamanki, bularning barchasi Muqaddas Kitobni sinchkovlik bilan o'rganish, ilohiy mulohazalar, madaniy mulohazalar, korporativ qo'llash va hatto bir oz shaxsiy nasihatlarni o'ziga birlashtiradi. Eng yaxshi masihiycha kitoblar har doim ham teologik, ham amaliy bo'ladi.

Xudo ushbu jild hamda boshqa kitoblarni O'z kelini, ya'ni jamoatni O'zining kelish kuni uchun porloq va ulug'vor qilib tayyorlash maqsadida ishlatadi, deb ibodat qilamiz.

9BELGILAR XIZMATINING BOSHQA KITOBLARI

Og'ir joylarda Jamoat: Mahalliy jamoat qanday qilib kambag'al va muhtojlarga hayot olib keladi (Church in Hard Places: How the Local Church Brings Life to the Poor and Needy), Mez McConnell and Mike McKinley (2016)

Yoqimli jamoa: Xudoning qudrati jamoatni jozibador qiladigan joy (The Compelling Community: Where God's Power Makes a Church Attractive), Mark Dever and Jamie Dunlop (2015)

Cho'pon va konsultatsiya: Muhtojlikdagi a'zolarga cho'ponlik qilish asoslari (The Pastor and Counseling: The Basics of Shepherding Members in Need), Jeremy Pierre and Deepak Reju (2015)

Iso kim? (Who is Jesus?), Greg Gilbert (2015)

Sog'lom jamoatning to'qqizta belgilari, uchinchi tahrir (Nine Marks of a Healthy Church, 3rd edition), Mark Dever (2013)

Sadoqatli oqsoqollar va diakonlarni topish (Finding Faithful Elders and Deacons), Thabiti M. Anyabwile (2012)

Men haqiqatdan ham masihiymanmi? (Am I Really a Christian?), Mike McKinley (2011)

Xushxabar nima? (What Is the Gospel?), Greg Gilbert (2010)

Jamoatning hayotida Kalomiy teologiya: Xizmat uchun qo'llanma (Biblical Theology in the Life of the Church: A Guide for Ministry), Michael Lawrence (2010)

Jamoatlarga asos solish o'z insonlar uchun: Xudo g'ayritabiiy narsalarni qiladigan oddiy jamoatlarga asos solish uchun tartibsiz odamlardan qanday foydalanadi (Church Planting Is for Wimps: How God Uses Messed-up People to Plant Ordinary Churches That Do Extraordinary Things), Mike McKinley (2010)

Bu yaxshi: Badal to'lovi haqida ekspozitsion va'zlar (It Is Well: Expositions on Substitutionary Atonement), Mark Dever and Michael Lawrence (2010)

Xudo bizdan nima xohlaydi? Butun Muqaddas Kitob bo'yicha qisqacha xulosa (What Does God Want of Us Anyway? A Quick Overview of the Whole Bible), Mark Dever (2010)

Jamoat va Xudo sevgisining hayratlanarli haqoratlanishi: Jamoat a'zoli va intizomi ta'limotlarini qayta joriy etilishi (The Church and the Surprising Offense of God's Love: Reintroducing the Doctrines of Church Membership and Discipline), Jonathan Leeman (2010)

Sog'lom jamoat a'zosi nimani anglatadi? (What Is a Healthy Church Member?), Thabiti M. Anyabwile (2008)

Jamoatlar duch keladigan 12 chaqiriqlar (12 Challenges Churches Face), Mark Dever (2008)

Xushxabar va shaxshiy xushxabarchilik (The Gospel and Personal Evangelism), Mark Dever (2007)

Sog'lom jamoat nima? (What Is a Healthy Church?), Mark Dever (2007)

SOG'LOM JAMOATLAR BARPO ETISH KITOBLARI (BUILDING HEALTHY CHURCHES)

MARK DEVER VA JONATAN LIMAN TOMONIDAN TAHRIRLANGAN

Jamoatdagi tartib-intizom: Jamoat qay tarzda Isoning nomini himoya qiladi (Church Discipline: How the Church Protects the Name of Jesus), Jonathan Leeman (2012)

Jamoat oqsoqollari: Xudoning xalqiga qay tarzda Iso kabi cho'ponlik qilish mumkin (Church Elders: How to Shepherd God's People Like Jesus), Jeramie Rinne (2014)

Jamoat a'zoli: Isoning yerdagi vakillari kimlar ekanligini dunyo qanday biladi? (Church Membership: How the World Knows Who Represents Jesus), Jonathan Leeman (2012)

Xushxabarchilik: Qay tarzda butun jamoat Iso haqida gapiradi (Evangelism: How the Whole Church Speaks of Jesus), J. Mack Stiles (2014)

Ekspozitsion va'z aytish: Bugun biz Xudoning Kalomini qanday gapiramiz? (Expositional Preaching: How We Speak God's Word Today), David R. Helm (2014)

Xushxabar: Jamoat qay tarzda Masihning chiroyini namoyon eta oladi (The Gospel: How the Church Portrays the Beauty of Christ), Ray Ortlund, (2014)

Sog'lom ta'limot: Jamoat qay tarzda Xudoning sevgisi va muqaddasligida o'sadi (Sound Doctrine: How a Church Grows in the Love and Holiness of God), Bobby Jamieson (2013)



9 Belgilar

SOG'LOM JAMOATLAR QURISH

Sizning Jamoatingiz Sog'lommi?

9Marks (9Belgilar) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Expositionsion va'z
2. Xushxabar ta'limoti (doktrinasi)
3. Yuqoridan tug'ilish va xushxabarchilikka doir Kalomiy tushuncha
4. Kalomga mos jamoat a'zoligi
5. Kalomga mos jamoatdagi tartib-intizom
6. Shogirdlik va o'sish borasida Kalomiy qarash
7. Kalomga mos jamoat yetakchiligi
8. Ibodat amaliyotiga doir Kalomiy tushuncha
9. Elchilik xizmatiga doir Kalomiy tushuncha

9Marks (9Belgilar)da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug'vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

40dan ortiq tillardagi kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro'yxatdan o'ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to'liq ro'yxatini quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin:

<https://www.9marks.org/international>

uz.9marks.org

Xudo Kalomining haqqoniyligini himoya qilishni o'rganing

“Gilbert Muqaddas Kitobning ishonchliligini qo'llab-quvvatlovchi rad qilib bo'lmaydigan dalillarni ilgari surmoqda va bu orqali skeptik dunyo bilan ishlash uchun imonlilarni muhim vosita bilan qurollantirmoqda.”

Josh MakDouel, *muallif hamda ma'ruzachi*

“Gilbert nima uchun Muqaddas Yozuvga ishona olishimizni oddiy tilda tushuntirib beryapti va unda hayot haqida nima deyilganiga urg'u beryapti.”

Darrell L. Bok, *Hovard G. Hendriks Markazi Madaniy aloqalar ijrochi direktori va Dallas Teologiya Seminariyasida Yangi Ahdni o'rganish bo'yicha katta tadqiqotchi professor*

“Yaxshi o'rganilgan va tushunarli tarzda yozilgan, bu mening astoydil izlanuvchilar va yangi imonlilar uchun yangi manbalardan biri bo'ladi.”

J. D. Greear, *Shimoliy Kalorina, Durhamdagi, Sammit jamoatida yetakchi Cho'pon*

“Nega Muqaddas Kitobga ishonish kerak? kitobi bu masihiylarni Muqaddas Kitobni ishtiyiq bilan himoya qilish maqsadida qurollantirish uchun ajoyib manbadir, shuningdek, u skeptiklarni o'z pozitsiyalarini qayta ko'rib chiqishga chaqiradi.”

Kristian Vegert, *Arche Gemeinde, Gamburg, Germaniyada katta cho'pon*

Greg Gilbert (MDiv, Janubiy Baptist Teologiya Seminariyasi; BA, Yale universiteti) Kentukki shtatining Luisvill shahridagi Uchinchi avenyu Baptist Jamoatining katta cho'poni. U “Xushxabar nima? va “Iso kim?” kitoblarining muallifi hamda Kevin DeYoung bilan birga “Jamoatning vazifasi nima?” kitobining hammuallifi.